



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Pedagog
kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish tarmoq markazi

JAHON ADABIY TA’LIMIDA YETAKCHI KONSEPSIYALAR

moduli bo ‘yicha

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI**


**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**JAHON ADABIY TA'LIMIDA YETAKCHI
KONSEPSIYALAR**

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbek tili filologiyasi:
o'zbek adabiyotshunosligi



Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

H.Boltaboev - filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

R.Niyozmetova - pedagogika fanlari doktori, ToshDO‘TAU professori

S. Normamatov – filologiya fanlari doktori. ToshDO‘TAU

E. Ushenmez – filologiya fanlari doktori, Turkiya Istanbul universiteti professori

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

(2020-yil 29-dekabrdagi 7-sonli qarori)

MUNDARIJA

T/r	BO'LIMLAR	SAHIFA
I.	ISHCHI O'QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	12
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI	23
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI	59
V.	KEYSLAR BANKI	88
VI.	GLOSSARIY	90
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	95
VIII.	TAQRIZ	100

I. ISHCHI O'QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiylariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar” moduli Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimi oldiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar asosida tuzilgan bo‘lib, u jahon filologik ta’lim tizimida, jumladan, adabiyot o‘qitish va adabiy materialni singdirishga qaratilgan.

So‘nggi davrlarda ilmiy texnik jarayonning kuchayishi, audiovizual vositalarning keng qo‘llanilishi natijasida adabiy ta’limga munosabat ham o‘zgardi. Chunki bugungi kitobxon yoki Oliy ta’lim muassasasi talabasi kechagi an’anaviy yo‘l bilan adabiyot materialini o‘ziga singdira olmaydi. Buning uchun adabiyot o‘qitishning yangi usul va tamoyillari talab etiladi.

Jahon adabiy ta’limida badiiy asarni o‘qish, tushunish va tahlil qilishning usullari ham zamonaviylashgan. Internet, elektron kitoblar orqali badiiy adabiyot o‘qilayotgan ekan, uni tahlil qilishning yangi metodlari va zamonaviy usullari ham taqozo qilinadi.

Ushbu modul Oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilariga adabiyot o‘quv fanlarini o‘qitishda jahon adabiy ta’limidagi yetakchi tendensiyalar bilan tanishitirishga harakat qiladi.

Modulning maqsad va vazifalari

“Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar” modulining maqsadi malaka oshirish kursi tinglovchilariga jahon adabiyotshunosligida yuz berayotgan yetakchi tendensiyalar va adabiy ta’limidagi yangilanishlarni yetkazishdan iborat. Ushbu modulning vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- oliy mакtab professor-o‘qituvchilarini jahon adabiy ta’limidagi yetakchi konsepsiylar bilan tanishtirish;
- Oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilarida jahondagi yetakchi ilmiy akademik mакtablarning asosiy qarashlarini singdirish orqali o‘zbek adabiyoti bilan bog‘liq fanlardan ma’ruza o‘qish, amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda jahon tajribasidan foydalanish;
- tinglovchilarda “Adabiyot o‘qitish metodikasi” kursi bo‘yicha samarali saboqlar uyushtirish ko‘nikmasini shakllantirish;
- professor-o‘qituvchilar “Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar”

- kursini o‘tishda zamonaviy innovatsion usullar va interfaol metodlardan foydalana bilish ko‘nikmasini tarkib toptirish;
- tinglovchilarga turli zamonaviy sinkretik janrlarda yozilgan asarlarni tahlil qilish yo‘llarini o‘rgatishdan iborat.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentliligi darajasiga qo‘yiladigan talablar

“Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar” moduli yuzasidan tinglovchilar quyidagi **bilimlarga** ega bo‘lishi kerak:

- jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalarni bilishi;
- ilmiy akademik maktablar tomonidan ilgari surilayotgan pedagogik qarashlar bilan tanish bo‘lishi;
- adabiy ta’limni yangilashga xizmat qiladigan yangi pedagogik qarashlar mazmunini o‘z faoliyatiga singdirishi;
- adabiy ta’lim samaradorligiga erishishda professor-o‘qituvchining auditoriya bilan mustahkam aloqasini ta’minalash;
- adabiy ta’lim jarayonida ijodiy fikr va mustaqil tahlil yetakchi ahamiyatga egaligini tushunib yetishi.

Ushbu modul tinglovchida quyidagi **ko‘nikmalarni** shakllantirishga xizmat qiladi:

- adabiy ta’lim jarayoniga adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga asoslangan nazariyalarni tatbiq qila olish;
- dunyo badiiyati xazinalarini o‘rganishda har bir talabani ilmiy va badiiy tahlil unsurlarini bilishga yo‘naltirish;
- badiiy asardagi muhim adabiy unsurlardan nomuhimlarini ajratish orqali tahlil samaradorligini oshirish.

Ushbu modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ushbu **malakalarni** egallashlari mo‘ljal qilinadi:

- jahon adabiy ta’limidagi yangiliklarni o‘zbek adabiyoti talqinlari va tahliliga jalb eta olish;
- adabiy ta’lim yo‘nalishidagi auditoriya bilan ilmiy muloqotga kirishish;
- jahon adabiy ta’limidagi yangiliklarni o‘zbek adabiyoti talqinlari va tahliliga jalb eta olish;
- adabiy ta’lim tizimida baholash yuzasidan olib borilayotgan ishlarni xolis yoritish, ta’limdan maqsad baholash emas, tahlil ekanini singdirish;

- adabiyotga doir fanlar yuzasidan talabalar bilimini xolis baholay bilish; Modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchi professor-o‘qituvchilar dunyo badiiyati xazinalarini o‘rganishda ilmiy va badiiy tahlil unsurlaridan foydalana olish, jahondagi yetakchi adabiy ta’lim tizimini bilish ***kompetentliligiga*** ega bo‘ladilar.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o‘qitishning zamonaviy usullari, jahon adabiy ta’limi va estetik tafakkuridagi so‘nggi yutuqlardan foydalanish ko‘zda tutilgan:

- ma’ruza mashg‘ulotlarida dunyodagi yetakchi adabiy ta’lim metodikasidan foydalanish;
- masofadan o‘qitish orqali tinglovchilarning adabiyot o‘qitishga doir yangiliklarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning interfaol usullarini qo‘llay olish, ular yordamida badiiy matnni tahlil qilishga kirishish ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning Oliy ta’limdagи o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “Jahon adabiy ta’limida yetakchi konsepsiylar” mutaxassislik fanini o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda har qanday ilmiy darajadagi auditoriya ahli bilan adabiy yaratiqlar to‘g‘risida fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi
		J a m .

			Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiylar.	2	2	
2.	Ilmiy akademik maktablar tomonidan ilgari surilayotgan pedagogik qarashlar.	2	2	
3.	Badiiy asardagi muhim va nomuhim adabiy unsurlar va ularning mohiyati.	2	2	
4.	Umumiy poetika masalalariga e'tibor.	2		2
5.	Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik; mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya).	2		2
6.	Narratologiya va uning istiqbollari: feministik qarashlar, fenomenologik tadqiqotlar.	2		2
7.	Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga asoslangan nazariyalar: intertekstual tadqiqotlar; “yangi istorizm”, kulturologik metodologiya; qiyosiy adabiyotshunoslik; multikulturologiya.	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiylar. Zamonaviy jahon adabiyotidagi yetakchi konsepsiylar. XX-XXI asrlardagi ijodiy metod va

konsepsiyalarga umumiy obzor. Adabiy ta'limdagi o'r ganilish obektlariga nisbatan asosiy konsepsiylar.

2-mavzu. Ilmiy akademik maktablar tomonidan ilgari surilayotgan pedagogik qarashlar. Formal maktab vakillari tomonidan poetika masalalarining o'r ganilishi. V.Shklovskiy, Eyxenbaum, V. Jirmunskiy qarashlari. Matnga struktural yondashuv. R.Bart nazariyasi va uning Yu.Lotman tomonidan amalga oshirilishi. "Yangi tanqid" nazariyasi va namoyandalari. Narratologiya va uning istiqbollari.

3-mavzu. Badiiy asardagi muhim va nomuhim adabiy unsurlar va ularning mohiyati. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga asoslangan nazariyalar. Intertekstual tadqiqotlar poststrukturalizm va postmodernizm adabiyotining natijasi ekanligi. "Yangi istorizm" ruhidagi talqinlarda tarixiy asarlarga munosabat. Kulturologik metodologiya va multikulturologiyada milliy adabiyotlararo muloqot va uning tahlil tamoyillari. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanining bugungi imkoniyat va istiqbollari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Umumiy poetika masalalariga e'tibor. Umumiy poetika masalalarini o'r ganishda Verli kitobiga tayanish mumkinligi. Muallifni o'r ganishga qaratilgan konsepsiylar. Biografik va aftobiografik metodlarning badiiy asar tahlili jarayonidagi roli va ahamiyatini o'r ganish. Biografik tadqiqotlarga e'tibor qaratish.

2-mavzu. Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik; mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya). Tarixiy bosqichilar: arxaik, kanonizatsiya, dekanonizatsiya. Kontekstga asoslangan nazariyalar. Intertekstual tadqiqotlar asosida yaratilgan N.Kristeva asarlari bilan tanishish. Poststrukturalizm va postmodernizm adabiyoti namoyandalarini aniqlash.

3-mavzu. Narratologiya va uning istiqbollari: feministik qarashlar, fenomenologik tadqiqotlar. Kitobxon (adresat)ni o'r ganishga qaratilgan qarashlar. Retseptiv estetika va uni qabul qilish tarixi, usullari va vositalari. Remmitsensiya nazariyasi va uni kitobxon-matn-muallif loyihasidagi o'rni.

Tarixiy-funksional tadqiqotlarga e’tibor qaratish.

4-mavzu. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga asoslangan nazariyalar: intertekstual tadqiqotlar; “yangi istorizm”, kulturologik metodologiya; qiyosiy adabiyotshunoslik; multikuturologiya. “Yangi istorizm” ruhidagi talqinlarni o‘zbek tarixiy romanlari tahliliga jalg etish masalalari. Kulturologik metodologiya va multikuturologiyada milliy adabiyotlararo muloqot qilishning tahlil tamoyillarini o‘rganish. Ko‘ptillilik va ko‘padabiyotlilik sharoitida adabiy ta’limning o‘rni. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanidagi yangiliklar. Jahon adabiy ta’lim tizimida elektron va kompyuter tahlil usullarini joriy etish. Bugungi adabiy ta’limda elektron kitob va resurslarning o‘rni. Uning ijodiy-ilmiy muloqot vositasiga aylanib borishi. Tahlil jarayonidagi formal usullarni kompyuterga joylash va topshirish mumkinligi. Badiiy matnni mashina yordamida tahlil qilish ko‘nikmalari. She’riy asarlar vaznining elektron tahlilini yuzaga chiqarish omillari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror toptirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni

mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S- (strength)	-kuchli tomonlari
W-(weakness)	-zaif, kuchsiz tomonlari
O-(opportunity)	-imkoniyatlari
T-(threat)	-to'siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi
W	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi
O	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi
T	To'siqlar (tashqi)	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar,

muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati

Badiiy tahlil tizimlari

shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiyl muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> – yakka tartibdagи audiovizual harakat; – keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); – axborotni umumlashtirish; – axborot tahlili; – muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishslash; – muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; – asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishslash;

muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> – muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; – har bir yechimning imkoniyatlari va to‘sqliarni tahlil qilish; – muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka va guruhda ishlash; – muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; – ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; – yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

KEYSNI BAJARISH BOSQICHLARI VA TOPSHIRIQLARI:

- Keysdagи muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish)

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiyl fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	-fikringizni bayon eting
S	-fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	-ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	-fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Namuna.

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig'ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 ballgacha baholanadi.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- “Struktura – tarkib”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- “Struktura – tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- “Struktura – tahlil”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- “Struktura – talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- “Struktural tahlil” - badiiy tahlil turi.
- “Struktural tahlil” - ilmiy tahlil turi.
- “Struktural tahlil” - tanqidiy tahlil turi.
- “Struktural tahlil” - badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- Badiiy matn roman va hikoyalari matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmiy matnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarini mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoq dorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	
Uslug	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	

Izoh: Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ifoda shakllari bo'yicha (she'riy va nasriy nutq)



“Blits-o'yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejulashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o’rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash”. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					

Matnning ichki qurilishi				
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi				
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)				
Matn qismlarining dastlabki talqini				
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi				

III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:

**JAHONDAGI YETAKCHI ADABIY TIZIM VA
KONSEPSIYALAR**

REJA:

1. *Umumiy poetika masalalariga e'tibor*
2. *Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya)*
3. *XX-XXI -asrlardagi ijodiy metod va konsepsiyalarga umumiy obzor*
4. *Adabiy talimdagи o'r ganilish obektlariga nisbatan asosiy konsepsiylar*

Tayanch tushunchalar: *umumiy poetika, adabiy tafakkur, tarixiy bosqich, arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya) konsepsiylar, ijodiy metod, adabiy ta'lim.*

Umumiy poetika masalalariga e'tibor. “Poetika” istilohi Arastu hakim davrida ilmiy muomalada bo‘lib, quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan: badiiy borliq hosil qiluvchi, badiiy makon va zamonda mavjud bo‘lib, dunyo va shaxs haqidagi muayyan konsepsiylar tashuvchi vositalar yig‘indisidir ; adabiyotshunoslik va ritorikaga yaqin bo‘lgan, badiiy borliqni hosil qiluvchi vositalar va uning strukturasini o‘rganuvchi ilmiy predmet (2)¹. Qadimgi sanskrit poetikasi sifatida *visheshana* (badiiy so‘zning alohida xususiyatlarini qayd qiluvchi, uni og‘zaki va yozma odatiy ifodadan farqlovchi), *alankara-shastra* — bezak nazariyasi; arab-fors-turk poetikasida *balog ‘at ilmi* (hozirgi istilohda — badiiy san’atlar) istilohlari qo‘llanilgan.

Shuningdek, poetikaga “badiiy asar qurilishi va unda qo‘llanilgan estetik vositalarining tizimi haqidagi fandir” (KLE) degan ta’rif bilan tavsifyi (opisatelnaya) va tarixiy poetika navlari tavsiya etiladi. Ingliz olimi S.Baldik (C.Baldick) yuqoridagi xususiyatlar qatoriga “poeziyaning til, shakl, janr, kompozitsiya vositalari kabi aspektlari bilan aloqadorlikda” tushunadi. Boshqa bir xorijiy olim H.Shaw [H. Shaw] Arastu “Poetika”si XX asrdan beri munaqqid va adiblarning “Bibliya”si bo‘lganini ta’kidlaydi.

R.Yakobson poetikaning vazifadorligiga ko‘ra “u (poetika — H.B.) tufayli nutqiy ma’lumot san’at asariga aylanadi... Xabar berishning so‘z strukturasi, birinchi navbatda, ustuvor vazifa sanaladi. Diqqat-e’tiborni bunday xabarga yo‘naltirish — bu tilning poetik vazifasidir” deb yozgan. B.V. Tomashevskiy: “poetika o‘z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o‘rganishda

¹ Борев Ю.Б. Энциклопедический словарь эстетики и теории литературы. Москва, 2008. Эл. версия - П. С. 90-92.

ko‘radi. Poetikaning o‘rganilish obekti — badiiy adabiyot. O‘rganish usuli esa — hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat” deb yozadi.

Poetika V.Jirmunskiy so‘zlar bilan aytganda, uslubni yaratish vositasi va badiiy dunyonining qurilmasini o‘rganishni o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan, poetika adabiyotni san’at sifatida o‘rganuvchi fan, poeziya haqidagi ilmdir” deb xulosalaydi.

Ayrim ulug‘ ijodkorlarga nisbatan: Navoiy poetikasi (Yo.Ichoqov), Pushkin poetikasi (S.G.Bocharov), Dostoevskiy poetikasi (M.Baxtin) singari ham qo‘llaniladi.

Poetika turlari: tarixiy poetika (A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnya), antik poetika (S.S.Averinsev), dinamik poetika (Z.S.Paperniy), struktural poetika (R.Bart, Yu.Lotman) kabi.

Bundan tashqari ayrim badiiy komponentlarga nisbatan: syujet poetikasi (A.N.Veselovskiy), mif poetikasi (E.M.Meletinskiy), bayon (повествование) poetikasi (N.K.Gey), kompozitsiya poetikasi (B.A.Uspenskiy) kabi.

O‘zbek olimlari bunday atamalararo sarson kezinishda davom etishi bilan birga o‘tgan asrning 90-yillarida yaratgan bir necha tadqiqotlarini birvarakayiga “poetika” sifatlashi bilan qo‘sib ilmiy muomalaga kiritdi: *Fitrat dramalari poetikasi, Cho‘lpon nasri poetikasi, Jadid she’riyati poetikasi* kabi. Poetika so‘zi tez orada adabiy turlardan janrlarga qarab o‘z sayohatini davom ettirdi: Romanlar poetikasi, qissalar, hikoyalar poetikasi hatto mumtoz she’riyatda bir vaqtlar qo‘llanilgan va sho‘ro‘ tizimida og‘zi yopib qo‘yilgan munojotlarga nisbatan ham (Navoiy munojotlari poetikasi) dadil qo‘llanildi. Nihoyat biz kecha modernizm deb atagan hodisani bugun postmodernizm deb atash urf bo‘ldi, kecha chala eshitganimiz va hali qabul qilib ulgurmaganimiz struktural poetikadan tezlikda *poststrukturalizm*ga qarab jadalladik. Biz jadallik bilan biridan ikkinchisiga sakrab ketayotganimiz “...izm”lar badiiy adabiyotga nima berdi, biz yangi tahlil tamoyillari deb urf qilishga uringanimiz adabiy qarashlar milliy adabiyotimizga bag‘riga kira oldimi, kirganda ham uning eng go‘zal, nozik va nafis namunalarini hech bo‘lmasa shu millat vakillariga ko‘z ko‘z qila oladigan darajada g‘avvoslik vazifasini o‘tadimi kabi savollar barobarida milliy adabiyotshunoslikdagi nazariy tamoyillarni ham bir tahlildan o‘tkazish vaqt kelmadimi degan andishaga duch kelamiz.

Adabiyotshunoslik professional istilohga ko‘ra, XIX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqaladi.

Adabiyotshunoslik fan sifatida ilmiy faoliyat sohiblari bilan ijodkorlar olamini o‘zaro bog‘lab, ijodiy yutuqlardan ilm taraqqiyoti uchun foydalanar ekan, u ish ko‘rayotgan tushuncha va istilohlarda har xillik kuzatilishi mumkin. Adabiyotshunoslikdagi terminologik chalkashliklarning oldini olish, tushuncha va istilohlarni identifikasiya qilish (muayyanlashtirish), adabiy tahlil va jarayondagi ijtimoiy ahamiyatli hodisalarga tayanib ish ko‘rish bugungi adabiyot ilmining vazifalaridan.

Adabiyotshunoslik bugungi kunda mafkuraviy tazyiq, sotsialistik realizm kabi metodologik siquv va yuqoridan boshqarilishga mo‘ljallangan jihatlardan holi bo‘lish bilan birga, estetika, lingvistika, falsafa, tarix, ruhshunoslikdan tashqari, kibernetika, semiologiya, sinergetika va boshqa zamonaviy fanlar bilan erkin aloqaga kirishadi.

Adabiyotshunoslikning vujudga kelishi, shakllanish manbalari, tarixiy taraqqiyot tamoyillarini o‘rganuvchi fan sifatida uning maqsadi jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o‘rganish; adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlarning mohiyatini aniqlash; Sharq va G‘arb tafakkurlararo mushtarak va farqli jihatlarga tipologik yondashish; qadimgi davr, o‘rta asrlar, uyg‘onish hamda XVI asrdan keyin yaratilgan adabiy-nazariy manbalarni o‘rganish, adabiy yo‘nalish va oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o‘rnini belgilash; XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil bo‘lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilashdan iborat. Adabiyotshunoslik tarixi tarkibiga, shuningdek, adabiyotshunoslikning ilmiy tizim sifatida shakllanish tarixi, mavjud akademik maktablar, ilmiy tizimlar va nazariy konsepsiyalarni ham o‘rganish kiradi.

Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya).

Adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish. Davr (стадия, эпоха, период) tushunchasining istlohiy mohiyatini anglash. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot va adabiy matnga nisbatan ikkilamchi tahliliy tizim ekan, badiiy adabiyot tarixini davrlashtirishdagi asosiy tushuncha va tamoyillar uning uchun ham asos hisoblanadi.

“Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh tarix faniga nisbatan ishlatilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham ko‘proq qo‘llaniladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda uning predikati sifatida (nimani?)

adabiyotshunoslik tarixini (umuman, badiiy adabiyotni emas) *davrlashtirish* tarzida qabul qilinadi.

Adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, so‘ngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. “Davrlashtirish” tushunchasi asosida *davr* istilohi yotadi. Biz “davr” deb atagan kalima “zamon”, “vaqt”, “muddat”, “fursat”, “davomlilik” kabi ma’nolarni anglatadi. Biroq adabiyotshunoslар davrlashtirishga munosabatda birgina “davr” atamasini faol qo‘llaydilar, go‘yoki boshqa so‘zlar atama bo‘lishga huquqli emasday. Xorijdan o‘zlashgan so‘zlar asosida rus tilida *davr* tushunchasi “период”, “эпоха”, “стадия” so‘zлari orqali ifodalanibgina qolmay, har bir so‘z muayyan ma’no qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Masalan, “период” nisbatan “kichikroq davrlar”ga nisbatan qo‘llanilib, u ko‘proq yillar, o‘n yilliklar va asrlarga nisbatan ishlatiladi. “Эпоха” undan kengroq tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibiga bir necha asrlarni (masalan, эпоха средних веков — o‘rta asrlar (yani bir necha asr ma’nosida) birlashtirgan. O‘zbek tilida esa bu tushunchani, ya’ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi “эпоха”ni ham “davr” so‘zi orqali anglatamiz.

Adabiyotshunoslikda “stadiya” (ayrim ilmiy asarlarda “стадиальная общность”— “стадиальная общность”) tushunchasi bor (uni o‘zbek tiliga *davriy umumlashma* tarzida tarjima qilish mumkin. Bu istiloh umumjahon adabiyoti tarixining muayyan “davri”ga nisbatan ishlatilib, uning doirasiga античност (qadimgi *davr*), средневекове (o‘rta asrlar), Renesans — Возрождение — Uyg‘onish (ayrim tarixiy manbalarda intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Biz o‘zbek tilida uni ham “davr” deb ataymiz: *antik davr, o‘rta asrlar, Uyg‘onish (yoki intiboh) davri* kabi. Demak, o‘zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda har uch tushunchani bir so‘z, ya’ni “davr” so‘zi orqali anglatishimiz va yuqoridagi kabi yillarga nisbatan ham (20-yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr adabiyoti) hamda “davriy umumlashma”ga nisbatan ham birgina “davr” so‘zidan foydalanamiz.

Adabiyot tarixi davrlashtirilayotganda “davr” so‘zi zimmasidagi ana shu istilohiy “yuk”larning ayirmasini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki kamida chalkashliklarga duch kelaveramiz. Albatta, o‘zbek (kengroq ma’noda turk tili) boy til, har bir tushunchani aniq ifodalay oladigan o‘z so‘zlarimiz bor. Payti kelib, yuqoridagi uch ma’nodan biri “zamon” orqali, boshqasi “muddat” (yoki fursat, on va boshqalar) orqali o‘z yechimini

topishi mumkindir. Biroq jahon adabiyotshunosligi tarixining davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilayotganda yuqoridagi uch jihat hisobga olinishi lozim.

XX-XXI-asrlardagi ijodiy metod va konsepsiyalarga umumiyligi obzori.

Adabiyotshunoslik tarixida yirik tarixiy davrlar (yoki davriy umumlashmalar): mifik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya. Adabiyotshunoslik tarixining dastlabki davri sifatida u “arxaik zamon” tarzida mumtoz adabiyot shakllangunga qadar kechgan adabiy hodisalar alohida o‘rganilishi kerak. Bu ayirma ham nazariy jihatdan, ham manbalarning yaratilishi va tarqalishi, ya’ni amaliy jihatdan o‘z asoslariga ega. Masalaga nazariy jihatdan yondashganda, postsoviet (sho‘ro‘dan keyingi) hududlarida markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasidan uzoqlashishni ko‘zda tutgan “Adabiy davrlar o‘zgarishida poetika kategoriyalari”² jamoa tadqiqotida “Yevropa hududiga kirmagan adabiy maydonlar”ni ham hisobga olish lozimligi haqida muhim fikr bor: “Birinchi davriy umumlashma (“arxaik zamon”)da yozma adabiyotda folklor an’analarining kuchli ta’siri kuzatiladi. Bunda mifopoetik badiiy tafakkur yetakchi xususiyat kasb etadi, u so‘z san’ati ustidan “refleksiya” mavjud emas, chunki hali na adabiy tanqid, na adabiyot nazariyasi, na badiiy-ijodiy dasturlar shakllanib ulgurmagan edi. Bularning hammasi esa ikkinchi bosqichda, ya’ni Yunonistonda miloddan avvalgi I mingyllik o‘rtalarida shakllanib, XVIII asrning o‘rtalariga qadar davom etgan. Va nihoyat, uchinchi bosqichda marifatchilik va romantizm adabiy sahnaga “individual-ijodiy badiiy tafakkur”ni olib chiqdi. Bunda “muallif poetikasi” “janr-uslubiy ko‘rsatmalar”dan ozod bo‘lib ustunlikka erishdi. Shunga ko‘ra, ilk davriy umumlashmani “mumtoz adabiyot shakllangunga qadar” kechgan vaqt, ya’ni “arxaik zamon” deb atash maqsadga yaqin keladi. Unga ko‘ra, folklor ananalarini hukmron bo‘lgan, badiiy ijod namunalari mifopoetik tafakkur asosiga qurilgan, adabiy asarlar diniy va tarixiy asarlarga qorishiq holda yaratilgan, adabiy “kanon”lar esa hali yaratilmagan davrlarni alohida o‘rganish lozim. Agar adabiy hodisalar nisbatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, dastlabki adabiy ibtido sifatida “Bilgamish” deb belgilanadimi yoki G‘arbdagi Arastu hakimning asarlari yaratilgunga qadar kechgan falsafiy-estetik qarashlar nazarda tutiladimi, Sharq mumtoz poetikasiga asos bo‘lgan adabiy manbalar asos qilib olinadimi — bulardan qat’iy nazar hali sof adabiyotshunoslik manbalarini shakllanmagan, adabiy-nazariy qarashlar mifik, diniy, tarixiy, siyosiy va boshqa yo‘nalishdagi asarlar

² Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994. С. 33

tarkibida kelgan “arxaik zamon” nazarda tutilgan. Bu o‘rinda adabiy davr chegarasini qandaydir tarixiy voqealar yoki siyosiy hodisalar asosiga emas, adabiy hodisaga aylangan *asarlar yoki adabiy siymolar* ijodi asosida belgilash mumkin. *Adabiyotshunoslikda mifik tafakkur manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar* ham *adabiyot tarixining ilk bosqichi* sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ilk adabiy ta’lim o‘choqlari bo‘lmish Misr, Shumer, Hindiston va Xitoydagi yodgorliklar tarkibidagi nazariy qarashlar, “Bilgamish”(shumer), “Rigveda”, “Mahobhorat”, “Ramayana” (hind) asarlarida bayon qilingan fikrlarga ham adabiyotshunoslik manbalari sifatida qaraladi. Xitoya Konfutsiy ta’limoti, Osiyo mamlakatlarida Budda, moniylik va boshqalar diniy inonchlar tarkibida ham muayyan ma’noda estetik-axloqiy qarashlar mujassamlangani ma’lum.

Yevropa adabiyotshunosligi antik adabiyot manbalariga tayangan holda shakllangani uchun qadimgi yunon olimlarining estetik qarashlari, xususan, Suqrot, Aflatun asarlari adabiyotshunoslik tarixi uchun muhim manbadir. Chunki ular zamirida ilk adabiy asarlar, Homer, Ezop, Esxil, Evripid, Aristofan, Pindar kabi ijodkorlarning asarlariga munosabat yotibdi. Jahon mumtoz adabiyotshunosligi tarixiga asos bo‘lgan manba sifatida Arastu ta’limotiga yondashish zarur.

Ikkinci davriy umumlashma sifatida *mumtoz adabiyotshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti* olinadi, bu yunon adabiyotida Arastu hakimning “Poetika” va “Ritorika” asarlarining yaratilish davridan XVIII asr o‘rtalarigacha, to‘g‘rirogi, marifatparvarlik adabiyoti tufayli yuzaga chiqqan nazariy manifestlar Fransiyada Didro, Germaniyada Gerder nazariy ta’limotlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq holda qaraladi. Bu holat Sharq islom mamlakatlarida “ilmi adab” va uning tarkibiga kirgan fanlarning shakllanish davridan XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari adabiyotlarida kechgan modernlashuv jarayoniga qadar davom etadi.

Uchinchi davriy umumlashma adabiyotshunoslik tamoyillarini belgilashda bir milliy yoki hududiy birlik doirasida emas, balki umumjahon adabiyoti durdonalarini belgilash, ya’ni “dunyo adabiyoti” istilohi (Gyote)ning asosiy mezonga aylanishi, shuningdek, keyinroq *yangi, modern, jadid* kabi tushunchalarni tashigan hamda XIX-XX-XXI-asrlarda shakllangan adabiy tizim va konsepsiylar mohiyatiga ham mana shu davriy umumlashmadan kelib chiqib qaraladi. Bu *Yangi davr* umumiyligi istilohi bilan o‘rganilayotgan mumtoz adabiy

meyor va qoidalarning barham topishi, “adabiy sahnaga individual-ijodiy tafakkur”ning chiqishi bilan xarakterlanadi.

Har bir davriy umumlashma haqida so‘z yuritilganda, uning adabiy-tarixiy davrlarga bo‘linishi mumkin va lozimligi ekanligini unutmaslik kerak. Yevropa nazariyotchilari “yangi adabiyot” istilohini XIX asrdan keyingi davrga nisbatan qo‘llashadi. Chunki nazariyotchilar fikricha, ma’rifatchilik yo‘nalishidan keyin yangi adabiyot xususiyatlarini belgilashda har bir milliy adabiyotshunoslik bu jarayonga turlicha yo‘llar bilan kirib kelganiga qaramay, “muallif poetikasi”ni nazariyaning asosi deb qaralishida ikki muhim omil, birinchidan, o‘zgarayotgan adabiy jarayon masalalari qat’iy, kanonlar asosiga qurilishi mumkin emasligi va ikkinchidan, muhimi, badiiy asar tahlili orqali muallif avvaldan belgilab qo‘yilgan poetik qonuniyatlarga qay darajada amal qiliganini emas, balki muallif ilgari surgan poetik tizim (XX asrning o‘rtalaridan — modullar) adabiy jarayonning yangilanishiga, shu jumladan, jahon adabiyotining boyishiga xizmat qilganini aniqlashdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur darslikda jahon adabiy-nazariy tafakkuri sifatida tan olingan estetik qarashlar tadriji o‘rganildi. Muayyan davr, millat yoki alohida buyuk shaxslar tomonidan yaratilgan nazariy-estetik hodisalar umumbashariy tafakkur hosilasi sifatida talqin etildi. Adabiy-nazariy konsepsiyalaro mushtaraklikning xronologik, tarixiy-madaniy, geografik, genetik va psixologik va asosan, filologik omillari tadqiq etildi. Sharqu Garb adabiy-estetik tafakkuridagi aloqadorlik va farqli jihatlar, buning sabab va oqibatlari tahlilga tortildi. Hozirgi globallashuv jarayonida yaxlit dunyonı Sharq va Garb singari ikki yirik hududga bo‘lish va uning ijtimoiy omillaridan tortib, san’atga doxil tushunchalariga qadar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib tadqiq etish usuli mutlaqo eskirgan. Bunday yevropatsentristik metodologiya dunyo tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan ayrim millatlar zakovatiga nisbatan kamsitish hamdir. Qolaversa, asrlar davomida shakllangan qiyosiy-tarixiy metodni istifoda etish jarayonida birining ikkinchisiga ta’siri nuqtai nazaridangina emas, balki o‘zaro mavjudlik qonuniyatları asosida komparativistik va struktural metodlardan foydalanib ish ko‘rish kutilgan samara berishi mumkin.

Estetik tafakkur rivoji sobiq ittifoq doirasidagi ilmiy asarlarda, asosan, Yevropa va G‘arb dunyosiga xos hodisa sifatida baholanar edi. Antik madaniyat ildizlari qadimgi yunon falsafiy-estetik manbalari bilan aloqada bo‘lgani kabi bu ilmiy-nazariy tafakkur durdonalari qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy

Osiyoda yaratilgan tafakkur durdonalari bilan ham bog‘liq. Bashariyat tamadduni tarixini nafaqat Suqrot, Aflatun, Arastu, Goratsiy, Plutarx, Seneka, Plotin, Avgustin kabi Garb faylasuflari merosi va ularning Sharqqa ta’siri masalalarigina emas, balki “Bilgamish”, “Avesto”, “Mahobxorat”, Orxun obidalari singari muhtasham manbalar, Buddha va Konfutsiy ta’limoti, moniylik va nasroniylikka oid muqaddas yozuvlar, keyinroq islom Renesansi sifatida tan olingan buyuk manaviy o‘zgarishlar ham tashkil etishini ko‘zda tutib, bu kabi yuzlab madaniy manbalar ham ilmiy tahlilga tortildi. Zero, o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab sobiq sho‘ro‘lar ittifoqida yangilanish tamoyillari urf bo‘layotgan bir paytda “Umumjahon adabiyoti tarixi” nomli fundamental tadqiqotlar majmuyi (9 jild) yaratildiki³, bu adabiy-nazariy-tarixiy tajriba natijalaridan ushbu darslikni yaratishda foydalanildi. Sababi “Umumjahon adabiyoti tarixi” sifatida qat’iy xronologik tartibda butun dunyo adabiyotlarining mushtarak tarixi yaratilib, ularning sinxron jadvali tuzilgani bo‘ldi. Jadvalga ko‘ra, milloddan avvalgi uch ming yillikda yuzaga chiqqan adabiy manbalar sifatida Misrdagi ieroglifik adabiyot, Mesopotamiyadagi Shumer madaniyati, Akkad va Bobilda yaratilgan manaviy meros qayd etilgan. So‘ngra qadimgi Hindiston, Xitoy, Eron, Markaziy va Kichik Osiyo madaniyati tasnif etilgan. Ana shu ma’lumotlarga asoslangan holda jahon madaniyatining “oltin beshigi” sifatida antik (ko‘hna) Yunon va Rim madaniyati hamda tamadduni emas, undan qariyb uch ming yil avval bunyod etilgan yuqorida tilga olingan adabiyotlar tartiblashtirilgan. Tasnif jarayonida qadimgi sulolalar bo‘yicha davlatchilik tarixi, arxeologik qazishmalar jarayonida qo‘lga kiritilgan moddiy va manaviy meros manbalari asos qilib olingan. Mana shu tarixiylik tamoyillariga imkon qadar amal qilingan holda eng qadimgi davrlardan tortib o‘rta asrlargacha kechgan adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti yaxlit bir ilmiy-ijodiy jarayon sifatida tushunildi.

Akademik N.I.Konrad “Osiyo va Afrikaning eng qadimgi adabiyotlariga kirish” deb nomlangan “Umumjahon adabiyoti tarixi” kitobi muqaddimasida qadimgi dunyo adabiyotlari manzarasini shunday tasavvur qiladi: “Qadimgi davrda shumer va misrliklar, assiriylar, bobilliklar, xurrit va xetlar, finikiy va axiy yunonlari — bular bir “sahna maydoni”ni tashkil qilsa, Hindistondagi Moxendj-Daro va Xarrappa, Hayan — xitoyliklar uchinchi maydonni tashkil qiladilar. Bu “maydonlar” — uch tarixiy-madaniy hududni anglatadi; Yevro-Afro-Osiyo hududi uch markaz Nil vodiysi, Tigr va Evfrat daryolari oralig‘i hamda Krit va

Peloponnesni; Janubiy Osiyo hududi Hind sohillari; Sharqiy Osiyo hududi esa, Xuanxe o'rta oqimi sohillarini tashkil qiladi. Hammadan avval milloddan avvalgi IV minginchi yillikda madaniy-tarixiy hayot birinchi hududda vujudga kela boshlagan; so'ngra keyinroq IV—III-ming yillikda ikkinchi va nihoyat, II mingyillikda uchinchi hududda shakllangan". Garchi ushbu qarashni mazkur adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi asosiy omil deb bilmasak ham, bu kabi ilmdagi mavjud qarashlar ushbu tadqiqotdagi manbalar va boblar ketma-ketligini belgilashga yordam berdi. Natijada eng qadimgi davrlardan tortib G'arbda jaholat va inkvizatsiya davri deb baholangan o'rta asrlar (VII—VIII)gacha jahon xalqlari manaviyatining tamal mohiyatini to'g'ri aks ettirgan manbalarni alohida tahlilga tortishga to'g'ri keldi. Chunki adabiyotshunoslikka badiiy adabiyotga nisbatan uni o'rganuvchi, tahlil tamoyillarini belgilovchi fanlar tizimi sifatida yondashilar ekan, adabiyotlar taraqqiyotidagi har bir hodisa adabiyotshunoslik tarixiga ham o'z ta'sirini korsatishi tabiiy.

Adabiyotshunoslik tarixini o'rganishdagi mavjud zamonaviy konsepsiylar. Har qanday nazariyadan maqsad, amaliyotni yengillashtirishdir. Agar nazariy qarashlar amaliyot jarayonini yengillatishga xizmat qilmas ekan, u uzoq yashay olmaydi. Shunday ekan, adabiyotshunoslik tarixiy takomilidan maqsad ham oxir-o'qibat amaliy tahlil jarayonini yengillatishdan iborat. Ana shu ma'noda o'rta asrlarda va Uyg'onish davrida yaratilgan adabiyotshunoslik manbalari nafaqat o'sha davr adabiy mahsuli, balki undan keyin ham yaratilgan adabiy asarlarning tahlili jarayonida asqotishi mumkin. Shuningdek, XVI—XVII-asrlarda mavjud bo'lgan klassitsizm natijalari, XVIII-asrdan adabiy jarayonga kirib kelgan Yevropa ma'rifatchiligi erishgan yutuqlar adabiyotshunoslik tarixida muhim sahifalarni tashkil qiladi. XIX asrda hali yangi tipdagi adabiyot nazariyasi shakllanmay turib, *tarixiy poetika* (A.N.Veselovskiy)⁴ qonuniyatları ishlab chiqildi, oradan hech qancha vaqt o'tmay yangilanayotgan adabiy jarayon natijalari (asarlari)ni tahlil qilishda tarixiylik prinsipi bilan yondashish zamonaviylik nuqtai nazaridan to'g'ri kelmasligi ilmda aniqlangandan keyin *nazariy poetikaga* (A.A.Potebnya)⁵ ehtiyoj tugildi. O'z davri olimlari bu "ehtiyoj farzandi"ni yetarli baholay olmagan bo'lsalar ham, nazariy poetika masalalari adabiyot nazariyasining asosi bo'lishi kerak degan taomilga yana yuz yilcha

⁴ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. М.: Высшая школа, 1989.

⁵ Потебня А.А. Теоретическая поэтика. М.: Высшая школа, 1990.

muddatdan keyin (N.D.Tamarchenko)⁶ qaytildi. Biroq adabiyotning asosiy tahlil obekti matn va uning strukturasi degan qat’iy qarorga yaqinlanishi bilan (R.Bart⁷, M.Y.Lotman⁸) struktural poetika ehtiyoji kun tartibiga chiqdi. Bu navbatdagi ehtiyojlar mafkuraviy talqin asosiga qurilgan adabiyot nazariyalariga singishi mumkin emasligi o‘z davridayoq ayon bo‘ldi va nihoyat, ittifoq tarqalib, milliy adabiyot namunalarini o‘z tili va ehtiyojlari doirasida o‘rganilishi zarurati tugilganda struktural poetika adabiyot nazariyasining asosiga qo‘yilishiga faolroq intilish kuzatildi. Buning sababi I.Vinogradovdan (1928-y.) tortib, L.Timofeev⁹, G.Pospelov¹⁰ va nihoyat, har qancha zamonaviylashtirilgani bilan V.Xalizhev¹¹ nazariyalari mana shu asosga qurilgan edi. Bularning barchasi uchun san’at ijtimoiy ong shakllaridan bo‘lib, so‘z san’ati deb ataluvchi badiiy adabiyot ham, ijtimoiy ong shakli sifatida borliqni o‘rganuvchi vosita (adabiyot borliqni o‘rganish vositasi) deb qaralgan. Shu nuqtai nazardan adabiyotshunoslik nazariyasi uch qismdan: badiiy adabiyot mohiyati, adabiy asar va adabiy jarayon masalalaridan kelib chiqib qaralgan. N.D.Tamarchenko rahbarligidagi mualliflar guruhi tomonidan tavsiya etilgan so‘nggi adabiyot nazariyasi yuqoridagi andozadan butunlay voz kechib, nazariy qarashlar tahlil jarayoniga ko‘mak beruvchi tarixiy va nazariy poetika asosiga qurildi¹². Bizningcha, garchi kech bo‘lsa-da, adabiyotshunoslik tarixi ozining muqaddas vazifasi — badiiyliek qonuniyatlarini o‘rganishga kirishar ekan, u poetika nazariyasidan uzoqlashib ketmasligi kerak. Shuning uchun ham, endi san’atga ijtimoiy ong shakligina emas, kishilar o‘rtasidagi kommunikativ jarayon (muomala ehtiyoji) sifatida qaralar ekan, san’atning o‘ziga xos kommunikativ “tili” (“metatil”)¹³ mavjudligi isbot etilgan ekan, endi obekt, umuman, ong shakli emas, balki o‘sha ongning matndagi ifodasiga ko‘chdi. Tabiiyki, badiiy matn adabiyotshunoslik ilmining birlamchi obektiga aylandi. Endi mana shu matn tahlilini o‘rganuvchi fanlar — tarixiy va nazariy poetika adabiyot nazariyasining asosiga qo‘yilishiga zarurat tug‘ildi. Biroq san’at asarini, ayniqsa, zamonaviy modern uslubidagi asarlarni faqat tarixiy poetika qoliplari doirasida o‘rganish, uning harakatlanayotgan, tirik hujayrasiga noto‘g‘ri yondashuv ekani ham ma’lum bo‘lmoqda. Shunday ekan, badiiy matnga

⁶ Теория литературы. В двух томах. Т. 1—2. Под редакцией Н.Д.Тамарченко. М.: Academia, 2004.

⁷ Barthes R. Essais critiques. Paris: Seuil, 1964.

⁸ Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. Л.: Просвещение, 1972.

⁹ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. М.: Просвещение, 1971.

¹⁰ Пospelов Г.Н. Теория литературы. М.: Высшая школа, 1978.

¹¹ Хализев В.Е. Теория литературы. М.: Высшая школа, 2005.

¹² Теория литературы. В двух томах. Т. 1. Под редакцией Н.Д.Тамарченко. М.: Academia, 2004. С.7.

¹³ Barthes R. Literature et meta-langage / Essais critiques. Paris: Seuil, 1964. p. 106—107.

tirik organizm sifatida yondashadigan, uning tiriklik belgilariga xiyonat qilmagan holda tahlilga tortadigan metodologik qarashlarga ehtiyoj tug'ilmoqda. Shuning uchun ham, badiiy matn va uning tahlili adabiyotshunoslikning doimiy muddaosi ekan, poetikaga asoslangan, uning tarixiy taraqqiyotini o'rghanuvchi adabiyotshunoslik tarixining fundamental tadqiqi bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylandi.

Adabiyotshunoslik nisbatan kengroq fan sohasi bo'lgani uchun uning bag'rida bir vaqtning o'zidan qator tahlil metodlari ham yashashi mumkin. Nazariy adabiyotshunoslik va metodologiyaning so'nggi yutuqlariga tayanilgan struktural metod, tarixiy poetika, nazariy poetika va qiyosiy adabiyotshunoslikdagi mavjud tahlil usullaridan imkon qadar foydalangan holda ish yuritish ushbu jarayonda kutilgan natijaga erishishga yordam berishi mumkin. Biroq XX asr adabiyotshunosligida jahon miqyosida o'ta xilma-xil va zarur konsepsiylar tug'ildiki, ularning manzarasini umumlashtirgan holda mavjud poetik tizim va ilmiy konsepsiyalarni tasniflash lozim.

Adabiyotshunoslik tarixining o'z tadqiqi predmeti, dasturi va o'qitish metodikasi bo'lgani kabi uning asosiy mavzusi hisoblangan badiiy adabiyotga qaysi jihatdan yondashilishiga qarab uning obekti va predmeti belgilanadi. XX asr poyonida badiiy adabiyotga qaysi nuqtai nazardan yoki nazariy yo'nalishdan kelib chiqib yondashilishga ko'ra mavjud tizim va konsepsiyalarni olimlar quyidagicha tasnif qiladilar:

- 1. Matnga** asoslangan nazariyalar (*formal-struktural yondashuv, yangi tanqid, narratologiya*) uchun badiiy matn nazariy fanning birlamchi obekti bo'lgani uchun matn mohiyati (*nazariyasi*), tarkibi (*strukturasi*), talqini (*germenevtikasi*), ifodaviyligi kabi ilmiy muammolar bu yo'nalishdagi adabiyotshunoslik asarlarining predmetini tashkil qiladi.

- 2. Muallifni** o'rganishga qaratilgan nazariyalar, biografik va psixoanalitik yondashuv, shu bilan birga feministik adabiyotshunoslik, *fenomenologik* tadqiqotlar uchun obekt badiiy ijod yoki muayyan ijodkorning asarlari bo'lgani uchun ham uning predmetini muallif uslubi, uslubni royobga chiqaruvchi tashqi (metod, janr va boshqalar) va ichki xususiy hollar (dunyoqarash, yozish qoidalari, mahorat) kabilar ushbu yo'nalishdagi nazariy qarashlarning predmetini tashkil qiladi.

- 3. Kitobxonga** qaratilgan nazariyalar (*retseptiv estetika*, asarni idrok etish tarixi; tarixiy-funksional tadqiqotlar) uchun kitobxon asosiy obekt sifatida yuzaga

chiqadi va bu bo‘limning predmetini — badiiy matn idroki, uni qabul qilish usullari, badiiy muloqot (kommunikatsiya) qonuniyatlari tashkil qiladi.

4. Adabiy va madaniy-tarixiy *kontekstga* oid nazariyalar (*reminissensiya, intertekstual*), tadqiqotlar, sotsiologik va tarixiy-materialistik yondashuv, “yangi istorizm” va kulturologik metodologiya kabilar uchun tadqiqot obekti adabiy jarayon masalalari bo‘lgani uchun ham bu yo‘nalish uchun adabiyotshunoslik fani predmeti sifatida adabiy jarayon masalalari, an’anaviylik-izdoshlik va vorislik, terminologiya va ularning identifikasiyasi kabi masalalarni belgilash mumkin¹⁴.

Bu nazariya va konsepsiyalarda yondashuv turlicha bo‘lishidan qat’iy nazar, adabiyotshunoslik obektini yuqorida qarashlarni umumlashtirgan holda *matn* → *ijodkor* → *idrok etuvchi (adresat)* → *adabiy jarayon* sifatida yoki *ijodkor* → *matn* → *idrok etuvchi (adresat)* → *adabiy jarayon* kabi belgihanishlar dunyo adabiyotshunosligida faol harakatda bo‘lganini ham unutmaslik lozim¹⁵. Bu munosabatlar tizimi adabiyotshunoslik predmetini uning nazariy yo‘nalishlaridan kelib chiqib belgihanishi maqsadga muvofiq ekanligini eslatmoqda.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Adabiyotshunoslikda qanday turdagи manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar ham adabiyot tarixining ilk bosqichi sifatida qaraladi?
2. Adabiyotshunoslik professional istilohga ko‘ra, vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqalishi qanday manbaalar orqali izohlash mumkin?
3. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga oid nazariyalar adabiyotshunoslik tarixi taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega sanaladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-2 jiddlar. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2016, 2019.

¹⁴ Цурганова Е.А. Литературное произведение как предмет современной зарубежной науки о литературе / Введение в литературоведение. Хрестоматия. М.: Высшая школа, 2006.

¹⁵ Qarang: Boltaboyev H. Badiiy matnga asoslangan konsepsiylarning adabiyot nazariyasidagi o‘rni / Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining yangilanish tamoyillari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. T., 2016. B. 17—18.

2. Boltaboev H. Jahon adabiyotshunosligi tarixi. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2020.
3. Xolbekov M. XX asr jahon adabiyoti manzaralari. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2020.
4. Теория литературы: Теоретическая поэтика. Учебное пособие для студ. филол. фак.: в 2 т. / Под ред. Н.Д. Тамарченко. Т. И. М.: Академия, 2004.
5. Теория литературы: т. ИИИ. Роды и жанры; т. ИВ. Художественный протесс / Под ред. Ю.Борева. М.: ИМЛИ РАН, 2003, 2011.
6. Борев Ю.Б. Теоретические итоги XX века. — Минск, 2010.

2-MAVZU:**ILMIY AKADEMIK MAKTABLAR TOMONIDAN ILGARI
SURILAYOTGAN PEDAGOGIK QARASHLAR****REJA:**

1. *Formal muktab vakillari tomonidan poetika masalalarining o‘rganilishi*
2. *V.Shklovskiy, Eyxenbaum, V. Jirmunskiy qarashlari*
3. *Matnga yondashuv tamoyillari. R.Bart nazariyasi va uning Yu.Lotman tomonidan amalgal oshirilishi*
4. *“Yangi tanqid” nazariyasi va namoyandalari*
5. *Narratologiya va uning istiqbollari*

Tayanch tushunchalar: *formal muktab, poetika masalalari, struktural yondashuv, R.Bart nazariyasi, “yangi tanqid”, narratologiya.*

Formal muktab vakillari tomonidan poetika masalalarining o‘rganilishi.

XX-asrning 10-yillarida “formal muktab” nomi ostida birlashgan adib va olimlar jamiyati paydo bo‘ldi. Ular aslida Peterburg va Moskvadagi ikki adabiy-ilmiy to‘garakning jamlanishidan hosil bo‘lgan edi. Peterburgdagi “Poetik tilni o‘rganish jamiyati” (OPoYaz — Общество поэтического языка) o‘z tarkibiga Ye.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, O.M.Krik, B.M.Eyxenbaum, Yu.N.Tinyanov kabi tilshunos va adabiyotshunoslarni birlashtirgan. Moskvada esa shu yillari tilshunoslik to‘garagi faoliyat yuritib, o‘zini MLK — Moskva tilshunoslik to‘garagi (Московский лингвистический кружок) deb tanitgan olimlar S.I.Bernshteyn, P.G.Bogatiryov, G.O.Vinokur kabilar o‘z atrofiga B.I.Yarxo, V.M.Jirmunskiy, R.O.Yakobson singari olimlarni ham jamlangan edilar.

Bu muktab filologiya sohasini jahon miqyosidagi ilmiy tizimlar asosida rivojlantirib, Praga struktur tilshunosligi, Tartu struktural poetika muktabi va umuman, Yevropada struktural poetikaning vujudga kelishi va taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Uning tashkilotchisi va g‘oyalarining asosiy tashviqotchisi Viktor Borisovich Shklovskiy (1893-1984)dir¹⁶. Formal muktab tarixi ham shu olimning “So‘zning tirilishi” (“Воскрешение слова”, 1914) maqolasidan boshlangan va yana shu muallifning “Bir ilmiy xatoga haykal” (1930) maqolasi bilan tugatilgan. Dastlab u taniqli adabiyotshunos Vengerov seminariysiga kirar ekan, unga taqdim etilgan anketaga maqsadini “Adabiyotning umumiyy nazariyasini yaratish va Vengerov seminariysining foydasizligini isbot etishdan iborat” deb yozib bergen.

Keskin arizadan ko‘rinadiki, formal muktab vakillari adabiyotshunoslikdagi

¹⁶ В.Б.Шкловскийнинг асосий асарлари: Шкловский В.Б. [Воскрешение слова](#). М., 1914; [Искусство как приём](#), 1917; [О теории прозы](#), 1925, 2-е изд. 1929; [О Маяковском](#), 1940; Мемуары. Повести о прозе. Размышления и разборы. М., 1966; [Тетива. О несходстве сходного](#), 1970; Собрание сочинений в 3 тт. М., 1973-74; [Энергия заблуждения](#), 1981; Избранное, в 2-х тт. М., 1983.

eski qarashlarni yangilashni va tizimli suratda rivojlantirilib borilishi lozim bo‘lgan adabiyot nazariyasini yaratmoqchi bo‘lganlar. Bu harakat formal maktab vakillari tomonidan shior sifatida o‘rtaga qoyilgan bo‘lsa-da, uning tugatilishi arafasida u haqda B.V.Tomashevskiy¹⁷, V.M.Jirmunskiy¹⁸ va P.Medvedev imzosi bilan M.M.Baxtin¹⁹ qarashlarida tanqidga ham uchragan. Mas., B.V.Tomashevskiyning yozishicha, “Formalizm qaydan kelib chiqdi? Beliyning maqolalaridan, Vengerov seminariysidan, Boduen de Kurtene raisligida futuristlar ovoza qilgan Tenishev zalistanmi? Buni dunyodan o‘tgan (formalizm)ning biografi hal qiladi. Lekin shubha yo‘qli, bu shovqin hamma tomondan eshitilar edi”²⁰. Keyinroq yana shu muallif: “Ha formalistlar shu ma’noda “mutaxassis” edilarki, chunki adabiyot haqida maxsus, insoniyat fan olamini adabiyotga bog‘laydigan fan yaratmoqlikni orzu qilganlar. Ilmiy muammolarni xoslashtirish, tarixiy-adabiy masalalarni tasniflash, bu masalalarning hech bo‘lmasa, sotsiologik jihatlarini yoritish formalistlarning vazifasi bo‘lgan. Lekin ilmiy doirada qabul qilinish uchun o‘zini mustaqil predmet (fan) sifatida tan olishi lozim edi”. Shu vazifadan kelib chiqib, ular syujet nazariyasini yaratmoqchi, roman va novellaning spesifikasini o‘rganmoqchi, matematik metodlarni qabul qilgan holda she’rshunoslik bilan jiddiy shug‘ullanib, ritm va sintaksis, tovush takrori kabi jihatlarni o‘rganib, Pushkin va Lermontov asarlari vazni uchun qo‘llanma yaratmoqchi, parodiya, folklor, adabiy evolyusiya masalalarini tadqiq qilmoqchi bo‘lganlar. Shuningdek, formal maktab poetik til nazariyasini ham qurmoqchi bo‘ldi. Yu.K.Tinyanovning “She’riy til muammosi” (“Проблема стихотворного языка”) asarida “she’riy qator (misra)ning birligi va torligi” (теснота) tushunchasi ishlab chiqildi. Poeziya va prozada tovushning o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

V.Shklovskiy, Eyxenbaum, V. Jirmunskiy qarashlari.

Formal maktab vakillarining qismati turlicha kechdi. V.Shklovskiy 92 yil umr ko‘rdi, Yu.Tinyanov yozuvchilikka o‘tib ketib, 1943-yilda vafot etdi. V.Propp

¹⁷ Б.В.Томашевскийнинг соҳага доир ишлари: *Томашевский Б.В. Теория литературы (Поэтика)*. Л., 1926; Стих и ритм. М., 1928. О стихе. М., 1929; Строфика Пушкина. М., 1958; Стих и язык. М., 1959.

¹⁸ Жирмунский В.М. О формальном методе / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977; ва унинг асосий ишлари: Композиция лирических стихотворений. СПб.: Опояз: 1921; Рифма, её история и теория. Пб, Академия, 1923; Введение в метрику. Теория стиха. Л., Academia. 1925; Узбекский народный героический эпос. (в соавт. с Х. Т. Зарифовым) М., Гослитиздат. 1947; Турецкий героический эпос. Избр. труды. Л., Наука. 1974; Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр. пр. Л., Наука. 1977; Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. Избр.тр. Л.: Наука, 1979; Введение в литературоведение: Курс лекций. СПб, Изд-во СПбГУ. 1996 / М., 2004 (изд. 2); Поэтика русской поэзии. СПб, "Азбука-классика", 2001.

¹⁹ Медведев П.Н., Формализм и формалисты. Л., 1934.

²⁰ Томашевский Б.В. Формальный метод. Вместо некролога. М., 1925; Против современного абстракционизма и формализма. Сб. переводов, М., 1964; Шор Р., Формальный метод на Западе, в кн.: Arspoetica, в. 1, М., 1927.

hayotligida jahonshumul shuhrat topdi. Uning fransuz strukturalizmiga yetarli ta'sir ko'rsatganini Klod Levi-Strosning maxsus maqola bag'ishlaganidan ham bilsa bo'ladi. R.Yakobson²¹ N.Trubeskoy bilan birgalikda Praga tilshunoslari maktabiga asos soldi, keyinroq har ikkisi ham AQShga kochishga majbur bo'ldi. Bu maktab XX asrning 30-yillarida tarqatilib yuborilgan bo'lsa ham keyinchalik struktural poetika nomi bilan tarixga kirgan ilmiy-akademik maktabga asos vazifasini o'tadi.

V.B.Shklovskiy A.A.Potebnya (1835-1891) va A.N.Veselovskiy (1838-1906) qarashlarini jiddiy o'rgandi va ularga tanqidiy yondashdi. Ular istilohidagi "ko'rish" va "tushunish" tushunchalarini davom ettirib, "yashash" (badiiy asar bilan) fikrini ilgari surdi, "avtomatizatsiya"ni oddiy holat deb bilib, uning qarshisiga "остранение" ta'limotini olib chiqdi. "Poetik til nazariyasi haqida to'plam" (1916, 1917) e'lon etilishida o'zining ikki "Poeziya va aqldan tashqaridagi til haqida", "San'at usul sifatida" maqolalari bilan qatnashdi. So'nggi maqolada V.Shklovskiy til, nutq va poetik til nisbatlarida so'zlar, jumlalar, hatto san'at asarlarida ham ongsiz-avtomatik tarzda qo'llanilayotgani, bu "avtomatizm" esa o'ziga xoslik deb atalgan uslubiy hodisani yuvib ketayotgani, uning o'rniqa chiqib olib, "poetik", "estetik" hodisa sifatida tan olinishiga davo qilayotganini yozdi. Bu oddiy so'zlar kitobxon qalbiga kirib, zabit etishi uchun uni "g'alati, ajabtovur" ("странный") holga solish kerak edi. Shuning uchun matndagi so'z favqulodda, noan'anaviy tarzda kutilmagan kontekstda qatnashib, yangi ma'no yaratishga xizmat qilishi lozim. "San'atning maqsadi shundan iboratki, narsalarni boriday tushunishni emas, balki narsa va hodisalarni ko'rgandagi his qilinishni bera olishi kerak. Shuning uchun ham san'atning bu usuli "остранение" ("favqulodda yangilik", "o'z an'anaviy mazmunidan uzoqlashish") tushunchasi bilan izohlangan. Garchi so'z va narsani qabul qilishda qiyinchilik tug'ilishi, murakkab shakllar kasb etishi kuzatilsa ham, buning davomiyligini taminlash lozimki, o'sha ko'rigan va his qilingan narsaga o'quvchi qayta-qayta murojaat etsin. Har bir murojaatida yangi-yangi ma'nolarni kashf etib, o'sha badiiy asar umrzoqligini, poetik obraz davomiyligini ta'minlasin. Buning uchun adiblar, birinchi navbatda, yuksak iste'dod sohiblari bo'lishlari bilan bir qatorda tilni his qilishi, uning milliy go'zalliklarini namoyish qila olish barobarida tildagi

²¹ Р.Якобсоннинг соҳага доир асосий асарлари: Лингвистика и поэтика // Структурализм: за и против. М., 1975. С.193-230; Избранные работы. М.: Прогресс, 1985; Работы по поэтике. М.: Прогресс, 1987; Два аспекта языка и два типа афатических нарушений / Теория метафоры. М., 1990. С.110-132; Тексты, документы, исследования. М., 1999.

ifodalarga yangi ma'nolar yuklay olish iste'dodini ham namoyish etishlari lozim. Ana o'shanda "ostranenie" faqatgina poetil til hodisasini ifodalovchi unsur emas, balki badiiy asarning nisbatan to'la va tugal idrok etilishini taminlashga xizmat qilishi lozim. Bu haqda V.Shklovskiy "So'zning tirilishi" (1914) maqolasidayoq fikr bildirib, shoirlar eski shakllarni to'g'ri baholab, undan yangilik chiqara olishlari haqida so'z yuritgan edi.

Adabiyotshunoslik tarixida har bir olim va nazariyotchi estetikaning bosh masalasi "San'at nima?" degan savolga javob izlagani ma'lum. Agar Arastu hakim bu savolga mimesis nazariyasi orqali "san'at — tabiatga taqlid" deb javob bergen bo'lsa, Leonardo da Vinci "san'at — nusxakashlik emas, jonli timsol yaratish" ekanini eslatgan edi. Nemis mumtoz falsafasi vakili I.Kant san'atning xususiyatini "hissiy yuksaklik"da ko'rghan bo'lsa, V.Belinskiy esa "San'at obrazli tafakkurdir" degan qoidani asos qilib oladi. Formal maktab vakillaridan V.Shklovskiy san'atni "poetik usullar majmuyi" sifatida asoslagan ediki, biz uning mohiyatini anglashga harakat qilamiz.

"San'at usul sifatida" (1917) maqolasida olim hamma tomonidan yaxshi bilingan va har bir savodli o'quvchi takrorlab yurgan, "san'at bu obrazli tafakkur" qoidasiga qarshi chiqib, san'at asari fikr mahsuli emas, balki fikr va tuyg'u qorishigida yangi ruhiyat hosil qiluvchi mavo ekaniga ishora qiladi. O'z ta'limotini L.Tolstoyning "Холстомер" hikoyasi, "Urush va tinchlik" epopeyasi va "Tirilish" romanidan keltirgan misollar bilan asoslaydi. Aslida bu usul birgina Tolstoyga tegishli emas, faqat Tolstoy asarlari mashhur bo'lib, uni o'qigan kitobxon oson tasavvur qilishi uchun san'at asarining bu yuksak qoidasini tushuntirmoqchi bo'lgan edi. 1919 -yildagi yozuvlarida "San'at har doim hayotdan erkin yashaydi, uning rangida hech qachon shahar qo'rg'oni ustida hilpirab turgan bayroq rangi aks etmaydi" deb yozgan. Bu kabi fikrlar yangi tuzum tarafdarlarining "san'atning sotsiologik mohiyati"ni belgilashga, "hayotni o'z shaklida ko'rsatish" aqidasiga mos kelmagani tabiiy. Shuning uchun ham formal maktab tarafdarlari o'z qarashlarini asosan, 1914-29-yillar davomida e'lon qilib ulgurdilar xolos. Ular badiiy asarning sotsial va psixologik jihatlarini o'rganishga vaqt ajratmagan, chunki san'at asarini san'at darajasida namoyon etadigan jihatlar: obraz va uning tabiat, syujet va uning tuzilishi, kompozitsiya va uning qonuniyati; poetik nutq, jumladan, ritm, vazn, qofiya kabi poetik hodisalar bilan mashg'ul bo'lgan, bu jihat esa ko'proq asarning sotsial mazmuni emas, balki shakliy jihatiga tegishli bo'lgani uchun ham o'zlarini "formalist" — "shaklshunos" deb

atashgan. V.Shklovskiyning o‘zi shunday izoh beradi: “Formal metodning asosi oddiy — mahorat (masalalari)ga qaytishdir. Unda eng e’tiborli jihat — asarning g‘oyaviy mundarijasini rad qilmaydi, balki mundarija deb atalgan narsa shaklning muayyan ko‘rinishlaridan biridir”. Bu o‘rinda I.Kantning “musiqaning mazmuni — sof shakl”dan iborat degan qarashlariga tayanilgan. Asar mazmunini “ma’no shakli” va uning ma’no materiali bilan badiiy shakllantirilganligida deb tushunilgan.

Matnga yondashuv tamoyillari. R.Bart nazariyasi va uning Yu.Lotman tomonidan amalga oshirilishi.

Shaklshunoslar qarashlarining e’tiborli jihatlaridan biri shuki, ularning yozishchicha, she’rning mazmunini qofiya va vaznsiz gapirib berish mumkin, lekin bu holatda uning shakli buziladi, poetik kechinma esa yo‘qotiladi. Assosiysi — poeziya yo‘qoladi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham poetik shakl va poetik tilga alohida e’tibor qaratib, badiiy shaklning mazmundan tashqarida taraqqiy etishi mumkinligini ham tasdiq qilganlar. Yuqorida tilga olingan “usul” (priyom) tushunchasi badiiy asar yaratilishidan assosiy qurol hisoblangan. Chunki turli poetik usullar orqali hayot fakti san’at hodisasiga aylanishi mumkin. “Usul”lar esa an’anaviy va yangicha bo‘lishi mumkin. Shaklshunoslarning maqsadi o’sha an’anaviy usullardan imkon qadar yangi, novatorona usullarga ko‘chishni targ‘ib etishdir.

Badiiy asarda tanish narsalar favqulodda yangicha mohiyat kasb etib, o‘zgacha “ajabtovur” (“странный”) tarzda tasvirlangandagina kitobxonning “avtomatik” idrokini yangilab, e’tiborini qozonishi mumkin. Kitobxonda odatdagи “avtomatik” idrokni ironiya, paradoks, favqulodda ohorli so‘zlarni ishlatish orqali ozgartirish mumkin. Shuning uchun ham “остранение” muhim va universal badiiy “usul” sifatida tavsiya etilgan. Avvalda tadqiq etilmagan masalalarni shaklshunoslар go‘yo taqsimlab olishganday izchillik bilan tadqiq etishga kirishganlar. Masalan, til va nutq shakllarining uslubi V.V.Vinogradov tomonidan, ritm, metrika (vaznshunoslik) va she’r kompozitsiyasi — V.M.Jirmunskiy, semantika va she’r konstruksiyasi munosabati Yu.Tinyanov, poeziya va prozada sintaksis hamda poetik intonatsiya munosabati — B.M.Eyxenbaum, she’r ritmi va metrikasi — B.V.Tomashevskiy, futuristlar tomonidan tilning yangilanishi — G.O.Vinokur, ritm va sintaksis — O.M.Brik, badiiy nutq tovushlari interpretatsiyasi — S.I.Bernshteyn, sehrli ertaklarning tizimli tadqiqoti V.Ya.Propp, poetik fonetika Ye.D.Polivanov, she’r fonologiyasi va stilistik semantikasi — R.O.Yakobson

tomonidan ishlangan. Tabiiyki, poetika masalalarining bunday ko‘lamli tadqiq etilishi xorij olimlarini befarq qoldirmagan. Ular o‘zlarining eng zamonaviy yo‘nalishdagi ishlarida ham formal maktab vakillariga munosabat bildirganlar. Shu bilan birga formal maktab ayrim vakillarining xorijga (mas., R.Yakobsonning Chexiya va AQShga ketishi) ko‘chishi ham ular ta’limotining keng targ‘ib etilishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

“Yangi tanqid” nazariyasi va namoyandalari.

Shaklshunoslardan qarashlarining e’tiborli jihatlaridan biri shuki, ularning yozishicha, she’rning mazmunini qofiya va vaznsiz gapirib berish mumkin, lekin bu holatda uning shakli buziladi, poetik kechinma esa yo‘qotiladi, asosiysi — poeziya yoqoladi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham poetik shakl va poetik tilga alohida e’tibor qaratib, badiiy shaklning mazmundan tashqarida taraqqiy etishi mumkinligini isbot qilganlar. Yuqorida tilga olingan “usul” (приём) tushunchasi badiiy matn yaratilishida asosiy qurol hisoblangan. Chunki turli poetik usullar orqali hayot fakti san’at hodisasiga aylanishi mumkin. “Usul”lar esa an’anaviy va yangicha bo‘lishi mumkin. Shaklshunoslarning maqsadi o’sha an’anaviy usullardan imkon qadar yangi, novatorona usullarga ko‘chishni targ‘ib etishdir.

Badiiy matnda tanish narsalar favqulodda yangicha mohiyat kasb etib, o‘zgacha “ajabtovur” (“странный”) tarzda tasvirlangandagina kitobxonning “avtomatik” idrokini yangilab, e’tiborini qozonishi mumkin. Kitobxonda odatdagи “avtomatik” idrokni ironiya, paradoks, favqulodda ohorli so‘zlarni ishlatish orqali o‘zgartirish mumkin. Shuning uchun ham “остранение” muhim va universal badiiy “usul” sifatida tavsiya etilgan. Avvalda yetarli tadqiq etilmagan badiiy shakl muammolarini shaklshunoslardan go‘yo taqsimlab olishganday izchillik bilan tadqiq etishga kirishganlar. Masalan, til va nutq shakllarining uslubi V.V.Vinogradov tomonidan, ritm, metrika (vaznshunoslilik) va she’r kompozitsiyasi — V.M.Jirmunskiy, semantika va she’r konstruksiyasi munosabati Yu.Tinyanov, poeziya va prozada sintaksis hamda poetik intonatsiya munosabati — B.M.Eyxenbaum, she’r ritmi va metrikasi — B.V.Tomashevskiy, futuristlar tomonidan tilning yangilanishi — G.O.Vinokur, ritm va sintaksis — O.M.Brik, badiiy nutq tovushlari interpretatsiyasi — S.I.Bernshteyn, sehrli ertaklarning tizimli tadqiqtasi V.Ya.Propp, poetik fonetika — Ye.D.Polivanov, she’r fonologiyasi va stilistik semantikasi — R.O.Yakobson tomonidan ishlangan.

Bu ilmiy harakat formal maktabning tugatilishi arafasida B.V.Tomashevskiy,

V.M.Jirmunskiy va P.Medvedev imzosi bilan M.M.Baxtin va boshqalarning ishlarida tanqidga ham uchragan.²² V.M.Jirmunskiy formal mакtabning asosiga qoyilgan “san’at badiiy usul sifatida” ekanini “ichdan tanqid etib”, uning asosiga poetika va uslub masalasini qo‘ydi. Garchi formal mакtab vakillari qarashlaridan keskin uzoqlashib ketmagan bo‘lsa-da, “formalizm”ni ilmiy tizim sifatida qabul qila olmadi. San’atning mohiyatini aniqlashda “usul” (“прием”) istilohi V.Jirmunskiy nazarida aniq va to‘liq emas, shuning uchun ham o‘z qarashlari asosiga “usullar majmui” sifatida ijodkor yoki badiiy matn *uslubini* qo‘ydiki, tadqiqotchi fikricha, ayni uslub turli xil usullarni bir qonuniyat asosida birlashtiradi va kitobxon ko‘z o‘ngida badiiy asarning yaxlitligini ta’minlaydi. Uslub, V.Jirmunskiyning belgilashicha, muallifning dunyoqarashi va borliqni idrok etish xususiyatlarini badiiy asarga ko‘chiradi. Badiiy asar esa ijtimoiy talablar asosida emas, balki estetik qonuniyatlar nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Demak, tadqiqotching asosiy vazifasi badiiy matnning poetik jihatlarini o‘rganishdan iborat. Shunday ekan, matnning badiiy jihatlari poetika ilmida tahlilga tortiladi²³.

M.Baxtin “Adabiyotshunoslikda formal metod” (1934) asarida shunday yozadi: “Formalistlarda material tushunchasining qurilishida rahbariy tendensiya — nimaiki g‘oyaviy ahamiyatga ega bo‘lsa va nimaiki avval xuddi mazmun kabi adabiyotning joni sanalsa, uning hammasini *material* deb hisoblash. Bu — faqat material, usulning to‘liq almashtirilishi mumkin bo‘lgan va hammasini yoqqa chiqaruvchi motivirovkadir. Shunday qilib, material formalistik tushunchaning asosiy tendensiyasiga ko‘ra mazmunning quyi ko‘rinishidir...” Ular, umuman, poetik mazmunga material deb qaraganlar va bu jihatdan keskin xulosaga kelishdan qo‘rmaganlar. Shuningdek, *material elementlarining konstruktiv mohiyati* (M.Baxtin) xususida so‘z yuritilganda, unga formal mакtab tarafdorlari “usullar yig“indisi” (V.Shklovskiy) deb qarashgan. “Har qanday usullardan maqsad bir — kechinmaviy qabul qilinadigan qurilma yasash. Har bir usul o‘z holicha bu yagona vazifani bajaradi”. Ular “asardagi nima eng ta’sirli sanaladi?” degan savolga “qurilmaning o‘zi ta’sirli. Axir qurilmadan maqsad — uni ta’sirchan qilish” deb javob berishgan²⁴. Holbuki, badiiy asarda usulning o‘zigina

²² Томашевский Б.В. Формальный метод. Вместо некролога. М., 1925; Против современного абстракционизма и формализма. Сб. переводов, М., 1964; Шор Р., Формальный метод на Западе, в кн.: Ars poetica, в. 1, М., 1927.

²³ Жирмунский В.М. О формальном методе / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977.

²⁴ Медведев П.Н. (Бахтин М.М.) Формализм и формалисты (1934) / Введение в

ta'sirli emas, uni ta'sirli qiladigan poetik mazmunga daxldor jihatlar ham borki, bu poetik komponentlardan ular ko'z yumib, unga material sifatida qarash bilan cheklanganlar.

Narratologiya va uning istiqbollari.

XX asr boshida Rossiyada sotsial tanqidning sosrealizm asosiga qo'yishi munosabati bilan 20-yillarning o'zidayoq formal maktab vakillarining qarashlari keskin tanqidga uchradi. Lekin ulardan ayrimlarining poetika xususidagi qarashlari hamon ahamiyatli. B.V.Tomashevskiy: "poetika o'z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o'rganishda ko'radi. Poetikaning o'rganilish obekti — badiiy adabiyot. O'rganish usuli esa — hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat" deb yozadi. Poetika V.Jirmunskiy so'zlari bilan aytganda, "uslubni yaratish vositasi va badiiy dunyonining qurilmasini o'rganishni o'z zimmasiga oladi. Shunday ekan, poetika adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fan, poeziya haqidagi ilmdir" deb xulosalaydi²⁵.

Poetika — adabiyotni san'at sifatida o'rganuvchi fandir. Agar azaldan mavjud bo'lgan bunday so'z qo'llanilishini qabul qilsak, shuni dadil tasdiqlab aytish mumkinki, keyingi yillarda adabiyot haqidagi fan *poetika* belgisi ostida rivojlanmoqda.

Shuning uchun shakl va mazmun (*nima* va *qanday*)ning shartli ziddiyati ilmiy tadqiqotlarda har doim estetik obetda birlashgan holatni tasdiqlashga olib keldi. San'at asarida har qanday yangi mazmun shakl orqali ko'rindi: shaklda aks etmagan mazmun, ya'ni o'z ifodasini topmagan mazmun san'at asarida mavjud emas. Xuddi shu kabi shaklning har qanday o'zgarishi yangi mazmunning ochilishidir, yoki shakl qaysidir mazmunga nisbatan ifodaviy usul deb qaralayotgan joyda mazmundan xoli shakl bo'lishi mukin emas. Shunday qilib, bu nisbatdagi shartliligi san'at asarining badiiy strukturasida sof formal (shakliy) momentning maxsus xususiyatlarini aniqlashda kam samar berishi mumkin.

Adabiy yodgorlikka badiiy asar sifatida yondashaturib, biz badiiy butunlikning har bir elementini uning poetik harakatda ekani nuqtai nazaridan baholaymiz: badiiy san'at haqidagi fan — poetika doirasida ifodalanuvchi bilan ifodalovchi, estetik fakt bilan estetik faktning tashqarisidagi (hodisa) ikki hodisa bir xil tushunilishi mumkin emas. Bu degani, albatta, adabiy yodgorlikka estetik qarashdan boshqa nuqtai nazardan yondashish mumkin emas: san'at haqidagi

литературоведение. Хрестоматия. М.: Высшая школа, 2006. С. 179-180.

²⁵ Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. С.

masala sotsial fakt haqida yoki san'atkoring hissiy faoliyati mahsuloti bo'lishi mumkin emas, san'at asarini diniy, axloqiy, ta'limiyl jihatdan san'at asarini o'rganish imkoniyat darjasida bo'lishi mumkin; metodologiyaning vazifasi — amalga oshirish yollarini va bunday o'rganish usullarini amalga oshirishning zaru chegaralarini ko'rsatishdir. Lekin shoir kechinmalarini ongsiz ravishda uning zamondoshlari g'oyalari bilan badiiy asarning san'at usullari bilan ifodalangan mazmuni sifatida aralashtirish yuborib, uni badiiy shakl sifatida qabul qilish poetika masalalarini o'rganuvchi ilmiy ishda o'rinci emas.

Shakl va mazmunning an'anaviy bo'linishi, san'at asarida estetik bilan noestetikni ajratish boshqa san'at asarining muhim xususiyatlarini estetik obekt sifatida qarashga zid bo'lishi mumkin: material va usulga bo'linish²⁶. Bu ziddiyat poeziyaning "formal" unsurlarini nazariy o'rganish yo'lini korsatadi. Lekin keyinroq usullar birligi bo'lgan uslubning teleologik tushunchasining rivojlanishi va chuqurlashuvini ham bildirishi mumkin.

Poetikani qurishda bizning vazifamiz — to'liq munozarasiz materialdan kelib chiqish va badiiy kechinmaning mohiyati haqidagi masaladan qat'iy nazar, estetik obekt strukturasini, bu orinda esa — so'z san'ati asarini o'rganishdir.

Turli teleologik harakatlarning birlashuvi birga mavjud bo'lgan "so'zlashuv tili" deb nomlangan o'zaro harakatga kirishadi, faqatgina til tarixiy hayotining aniq realligi sharoitida amalga oshishi mumkin. Amaliy nutq tili bunday belgilanishga ko'ra, mumkin qadar fikrning to'g'ri va aniq berilishi vazifasiga bo'ysunadi: maqsadga erishishda vositalarni iqtisod qilish — mana shunday tilning asosiy prinsipidir. Amaliy til o'z "usul"lariga ega: hozirgi qisqartirishga, ayniqsa, muhim misol bo'lgan ish telegrammalari uslubi. Amaliy tilga qarindosh — ilmiy til maxsus vazifaga bo'ysunadi: mantiqiy fikrni qisqa va aniq ifodalash. Boshqa qonunlar tinglovchina qaratilgan emotsiyal va erkin harakat emotsiyal-erkin ishontiruvchi vazifaga bo'ysunuvchi notiqning nutqini boshqaradi. Bunday so'nggi guruhga badiiy vazifaga boysungan poetik nutq yaqinlashadi: ritorika va poetika azaldan so'z qurilishining bunday usullari kategoriylarini qayd etgan. Oddiy so'zlashuv tilida bu hamma tendensiyalar bir paytda yuz beradi; til tarixida ular bir-biri bilan kurashadilar, ularning birikmalari sintaktik qurilmalarning o'zgarishida so'z semantik hayotining turli faktlari bilan tushuntiriladi. Biz ramziy suratda ilmiy nutq va poetik nutq deb chegaraviy va izchilllik bilan belgilashimizga ko'ra, amaliy misollarda so'z qollanilishining turli usullarini qayd etadi va bir

²⁶ Қаранг: Шкловский В. Искусство как прием. В кн.: Поэтика. Пг., 1919. С.102.

so‘zni boshqalari bilan boglaydi.

Badiiy asarning tiliga nisbatan hozir aytilgan fikr butunisicha mazmunga ham yo‘naltirilgan, ya’ni uning poetik mavzuga. Aniqrog‘i — badiiy asarda uning mavzusi til ifoda vositasiga bog‘liq bo‘lmagan holda mavhum holda mavjud emas, balki so‘zda amalga oshiriladi va xuddi poetik so‘z kabi u amal qilgan badiiy qurilma qonuniyatlariga bo‘ysunadi²⁷.

Poetik matnning ichki harorati, zichligi (напряжение) masalasida amerikalik “yangi tanqid” tarafdorlari, masalan, J.Renson, A.Teyt, K.Bruks, A.Uinters, R.Blekmur kabilar turli davrlarda rus shaklshunoslarining ishlariga ijobiy munosabatda bo‘lgan va ular ta’limotidagi ayrim jihatlarni o‘z milliy materiali asosida tadqiq qilishgan. Bu ta’limot nafaqat adabiyotshunoslikda, balki san’atning boshqa sohalarida, jumladan, rangtasvirda (G.Vyolflin), san’at turlarining o‘zaro munosabatida (O.Valsel), “roman morfologiyasi”da (V.Dibelius), til stilistikasi (L.Shpitser) va boshqalarda ham o‘z aksini topgan.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. “Shaklshunoslar qarashlarining e’tiborli jihatlaridan biri shuki, ularning yozishicha, she’rning mazmunini qofiya va vaznsiz gapirib berish mumkin, lekin bu holatda uning shakli buziladi, poetik kechinma esa yo‘qotiladi” bu fikirni izohlab bering.
2. Oddiy so‘zlashuv tilida bir paytda yuz beradigan tendensiyalar haqida fikr bildiring.
3. Nima sababdan Rossiyada 20-yillarning o‘zidayoq formal maktab vakillarining qarashlari keskin tanqidga uchradi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. — T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2016.
2. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at. 1-2-jildlar. Mas’ul muharrir. — T.: Sharq, 2016.
3. Turdimov Sh. Hikmat xazinasi. — T.: “O‘zbekiston”, 2016.
4. O‘zbek xalk og‘zaki ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. I-VIII jildlar. — T.:

²⁷ Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. С.

- “G‘afur G‘ulom”, 2016.
5. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. — T.: “Tafakkur”, 2020. — 120 b.
 6. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-2 jildlar. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2016, 2019.
 7. Boltaboev H. Jahon adabiyotshunosligi tarixi. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2020.

3-MAVZU:**BADIIY ASARDAGI MUHIM VA NOMUHIM ADABIY
UNSURLAR VA ULARNING MOHIYATI****REJA:**

- 1. Matn, badiiy matn va uning mohiyati**
- 2. Matn filologik fanlar tizimida**
- 3. Nofilologik fanlar tarkibida matnning orni**
- 4. Matn semiotika va madaniyatshunoslik tushunchasi sifatida**
- 5. Matn turlari va matn transformatsiyasi**

Tayanch tushunchalar: matn, badiiy matn, filologik fanlar,nofilologik fanlar tarkibi, semiotika, madaniyatshunoslik, matn turlari, matn transformatsiyasi.

Matn, badiiy matn va uning mohiyati.

Matn (arabcha: mustahkamlamoq ko‘pligi — *mutun*²⁸) so‘zining xalqaro miqyosda qabul etilgan muqobili “tekst” (lotincha: *textus* — to‘qima, birikma)dir. Matn istilohiga ta’rif berilganda unga qaysi fan nuqtayi nazaridan qarashga bog‘liq. *Matnga* munosabatda eng oddiy va keng tarqalgan qarash unga yozuvdagি nutq sifatida yondoshuvdir. Biroq matnning og‘zaki va yozma shakllarining mavjudligi bu birlamchi munosabatni inkor qiladi. Unga yozma (harflar) va og‘zaki (tovushlar) belgilar vositasida nutqiy asar degan ta’rif yuzaga keladiki,²⁹ bunday ta’rif bilan an’anaviy matnshunoslik ish ko‘radi. Matnga nisbiy butunlik va yaxlitlik kasb etgan nutqiy muloqot birligi degan qarash ham bor: bunday munosabat vositasida ko‘proq formal tilshunoslik matn bilan aloqaga kirishadi. Adabiyotshunoslik matnga munosabatda uning badiiy va nobadiiyligiga e’tibor qaratadi va ozining tahlil obekti sifatida *badiiy matnni* belgilaydi.

Filologiyadan tashqaridagi fanlar ham shu kabi matnga munosabatda o‘z yo‘nalish va imkoniyatlaridan kelib chiqib ish ko‘radi. Bu jihatdan matnga “o‘zarо aloqadorlikdagi belgilar majmuyi” sifatida yondoshuv (semiotika), “nobadiiy aloqa vositasi” (madaniyatshunoslik — kulturologiya) hamda “idrok etilgan tushuncha yoki ta’limot” (falsafa) deb qarash hollari faolroq uchraydi.

Ko‘rinadiki, *matn* istiloh sifatida tilshunoslik, adabiyotshunoslik, estetika, semiotika, madaniyatshunoslik va falsafada faol qo‘llaniladi. Chunki “matn birlamchi berilganlik, barcha filologik va gumanitar fanlarning chiqish nuqtasidir”³⁰.

Matn turli gumanitar fanlarda qo‘llanilgani tufayli uning bu sohalardagi

²⁸ Баранов Н.К. Арсабско-русский словарь. М.: Русский язык, 1977. С. 741.

²⁹ Qur'onov va b. Adabiyotshunoslik dugati. Т., 2013.

³⁰ Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и в других гуманитарных науках / Эстетика словесного творчества. М., 1984.

ma'nosi va qo'llanilish darajasi ham farqlidir.

Matn filologik fanlar tizimida.

Filologiyaning yo'nalishlari orasida dastlab *tilshunoslikda* faol iste'molda bo'lgan "matn tilshunos uchun muayyan xususiyatlar majmuiga ega bo'lgan, tabiiy (milliy) tilni qo'llash aktidir". Lingvistik ta'limotda matnning mantiqiy aloqadorligi va shakliy tugallanganligi asosiy xususiyat sanaladi. Shuning uchun ham unga "ma'no aloqadorligi asosida birlashgan verbal (so'z) belgi birliklarining tizimi, uning asosiy xususiyati bog'liqlik va yaxlitlikdir" deb ta'rif beradilar³¹. *Matn tilshunosligi* deb nomlanuvchi til ilmi matnni shakllantirilgan nutq sifatida qabul qilib, uning ma'noviy va shakliy qurilishiga ahamiyat qaratadi. S. Valerning yozishicha, matn lingvistik namuna sifatida uch ma'noviy jihatni qamraydi: chiziqli (sintaktik ma'no); referension (semantik ma'no); utilitar (pragmatik ma'no). Shu jihatdan matn vositasida uch savolga javob olinadi: matn nima haqda gapiradi (matn mazmunidagi xabar); matn nima bilan gapiradi — til (aloqa vositasi); nimani gapiradi (tavsiya etayotgan reallik konsepsiysi). Tilshunos matndagi fikrlash tarzi, mantiqdagi "sillologizm"dan ko'ra unga grammatik ko'rinishdagi gaplar, konstruksiyalangan leksik va stilistik birliklar jihatidan qaraydi. Sof lisoniy munosabat — bu belgining belgiga va til tizimi doirasidagi belgilarga yoki matnga munosabatidir.

Matnning og'zaki va yozma turlaridan qati nazar adabiyotshunos uchun dastlab badiiy va nobadiiy matn farqlanishi zarur. Badiiy matnda obraz (timsol) asosiy faoliyat vositasi va harakat quroli hisoblanadi, nobadiiy matnda esa konsept — tushuncha, masala, muammo va boshqa jihatlar bu vazifani bajarishi mumkin. Har qanday verbal (so'z yordamida hosil qilingan) matn o'zining *kommunikativ* — xabar berish, *evristik* — ma'lumot toplash, *konseptual* — matn yuboruvchining nuqtai nazari va *emotsional* — his ko'chirish belgilariga ega, badiiy matn esa bulardan tashqari *estetik*, *ijitimoiy*, *axloqiy* vazifalarini ham o'z zimmasiga oladi. Badiiy matnda nutq birliklari xabar berish, ma'lumot (axborot) tarqatish, fikr qo'zg'otish bilan cheklanmaydi, balki uning zimmasiga badiiy "yuk" ortilishi va estetik vazifani bajarishga safarbar etilishi lozim. So'zlar asosida shakllantirilgan matnda so'zning o'rni qat'iy, ma'noli va ifodaviy bo'lmogi lozim. Adabiyotshunos uchun matnning ifodaviyligi, ya'ni san'at asari sifatida muayyan fikr va tuyg'ularni ifodalovchi vosita, o'z o'rnida tadqiqot obyekti bo'lishi mumkin.

³¹ Большой энциклопедический словарь: Языкоznание / Под ред. В.Н.Ярцевой. М.: БРЭ (Большая Российская энциклопедия), 1998. С. 507.

Badiiy matn uni o‘rab turgan nutq faoliyati va nutqdan tashqaridagi jarayondan chegaralangan. Matnning muayyan mazmundorlik (ma’no qatori)ning nutqda (og‘zaki va yozma) ifodalanishi adabiyotshunos (folklorshunos) uchun muhim sanaladi. “Hozirgi olimlar, adabiy-badiiy matn (nutqdan tashqari) “makon”i tarkibiga yozuvchi tomonidan ifoda qilingan g‘oya, konsepsiya, ma’no va boshqa badiiy mazmun jihatlarini ham kiritadilar”³². Bu jihatdan “matn” va “asar” so‘zlari sinonim bo‘lishi, badiiy matn esa badiiy asarga tenglashtirilishi mumkin. Matn va asarning umumiy jihat shundaki, har ikkisi ham muallif fikr va tuyg‘ularini tilda moddiylashtirib, muhrlab ko‘rsatadi. “Asar matnning muloqot tizimiga kiruvchi sotsial vazifadorligi, muallif — kitobxon ikki tomonlama muloqotining natijasidir. Shuning uchun ham badiiy asar tahlili ko‘p tomonlama yondoshuv (sotsiologik, biografik, ijodiy-genetik)ni talab qiladi”³³. Yu.Lotmanning yozishicha, “matn va badiiy asarning bir tushuncha ekanini qat’iy rad etish lozim. Matn badiiy asarning komponentlaridan biri xolos”³⁴. Bu holda badiiy asar matnga nisbatan kengroq tushuncha ekani ma’lum bo‘ladi. Biroq har qanday badiiy asarda estetik maqsad matn orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, adabiyotshunoslik ilmida matn haqida nutq birliklarining qat’iy tashkillangan izchilligi degan qarash ham borki, badiiy asar tahlilida mana shu jihatga ko‘proq e’tibor qaratiladi.

“Matn” so‘zi asosida yasalgan “matnshunoslik” filologiyaning alohida sohasini bildirib, ilm turi sifatida adabiyotshunoslik tizimiga kiradi. Matn bu soha uchun adabiy-badiiy yoki publisistik nutqning yozma belgilar asosida va hujjat shaklida yozib olinishidir. Shuningdek, matnshunoslik predmeti sifatida u “asarning yozuvdagi qiyofasi, kitobxon tomonidan bu asarni idrok etilishiga mo‘ljallangan grafik, shartli strukturasidir”³⁵. Matnshunoslik nazariyasida matn tarixi va talqini muayyan o‘rin egallaydi. Bu filologik (nafaqat adabiyotshunoslikka daxldor, balki tilshunoslik va folklorshunoslikka ham doxil) fan doirasida badiiy matn yaratilish tarixi, kochirilishi (avtograf, qo‘lyozma, toshbosma, nashr), matn atributsiyasi, yozilgan yoki ko‘chirilgan sananing aniqlanishi, nashr tamoyillari, matniy variantlar orasidan tayanch matnning belgilanishi, yigma, ilmiy-tanqidiy matnning yaratilishi kabilar matn bilan ishslash amaliyotida yuzga chiqadi.

Nofilologik fanlar tarkibida matnning o‘rni.

³² См.: Долинин К.А. Интерпретация текста (Французский язык). М., 1983.

³³ Борев Ю. Словарь терминов текстологии и генетической критики. М., 2011. С.140.

³⁴ Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Л., 1970. С.24-25.

³⁵ Борев Ю. Словарь терминов текстологии и генетической критики. М., 2011. С.141.

Matn semiotika va madaniyatshunoslik tushunchasi sifatida so‘nggi davrda nofilologik sohalarda ham uchraydi. Matnga semiotik (belgi nazariyasi) hodisa sifatidagi qarash natijasida “o‘zaro bog‘langan belgilar majmui”³⁶ tabiiy tillar vositasidagina emas, balki so‘zsiz (so‘z ishlatilmagan holda boshqa belgilar majmui) matnlar, masalan, ko‘rishga mo‘ljallangan jug‘rofiy xaritalar, tasviriy san’at asarlari, yo‘l belgilari yoki tinglashga mo‘ljallangan ovoz signali, musiqiy asarlar hamda bir vaqtning o‘zida eshitish va ko‘rishga mo‘ljallangan audiovizual hodisalarda ham bu istiloh qo‘llanilmoqda.

Madaniyatshunoslik (kulturologiya) va qadriyatshunoslik (aksiologiya) hamda muloqot nazariyasida (teoriya kommunikatsii) ham matnning istilohiy birlik sifatidagi qo‘llanilishi kengaymoqda. Oddiy turmush hodisalarida matnning nobadiiy aloqa vositasi sifatidagi xat (zapiska), murojaat yoki eslatma tarzidagi shakllari qo‘llaniladi. Bu kichik matn turlari agar badiiy matn tarkibida kelsa, adabiyotshunos e’tiboridan chetda qolmasligi lozim, agar shunday turmushdagi hodisaning o‘zi bo‘lib qolsa ham tilshunos uchun tadqiqot obekti bo‘lishga arziydi. Bu muayyan nutqiy muloqot natijasi, predmeti bo‘lishi mumkin. Chunki turmushdagi har qanday odatdagি hodisalar bunday matn turi sifatida yozilib qoldirilmaydi, balki hayotdagи eng zarur eslatmalar, telefon orqali yetkazilish imkonи bo‘lmagan va adresant tomonidan adresatga yetkazilishi lozim bo‘lgan xabar yoki eslatmadir.

Struktural poetikada matn madaniyat fenomeni sifatida masul nutqiy harakat bo‘lib,u vujudga kelgan makon va zamondan tashqarida «ishlashga» moslashtirilgan, chunki u muallifi tomonidan jiddiy qayta ishlanadi va ohor beriladi.

Madaniyatshunoslik aspektida matn izchil jumla tarzida qurilgan bo‘lishi shart emas. U o‘ta qisqa bo‘lishi mumkin: maqollar, hikmatlar, shiorlar kabi. Matnning bunday ko‘rinishlari jonli amaldagi nutqqa nisbatan zid mohiyatda bo‘lib, ular biror vaziyat taqozosiga ko‘ra qo‘llaniladi.

Matnni semiotik va madaniyatshunoslik aspektida o‘rganish nafaqat bu soha mutaxassislari, balki filologlar uchun ham asqotarli usuldir. Bu jihat yordamida mualliflik tabiatiga doir xususiyatlar aniqlanadi, adabiyotning insonlararo qiyosiy muloqot vositasi ekani chuqurroq asoslanadi.

Matn yordamida bir avlod o‘zidan avvalgilari qoldirgan merosdan xabardor

³⁶ Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках / Эстетика словесного творчества. М., 1979. С.297.

bo‘ladi va unga egalik qiladi. Bunday vorisiylik tufayli u umummadaniy qadriyatga aylanadi va insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Muqaddas kitoblarining matnlari, yuksak falsafiylikka asoslangan va san’at namunalariga aylanigan matnlarni bunga misol qilish mumkin.

Falsafiy munosabatda matn javondagi kitob yoki tizimli syujet chizigi, yana ham torroq ma’noda aytsak, kitobxon talqiniga havola qilingan “substrat” emas. U fikrni tinglovchi (o‘quvchi) ga verbal (so‘z bilan) yoki noverbal (so‘z ishtirokisiz) yetkazish vositasidir. Har bir matn (falsafiy risola, badiiy asar, musiqa) o‘z muhokama predmetiga egaki, uning yordamida kitobxon muallifga munosabatini bildiradi.

Matn turlari va matn transformatsiyasi.

Matn turlari u qo‘llayotgan fanning mundarijaviy yo‘nalishidan kelib chiqib belgilanadi. Tilshunoslikdagi matn turlari bilan matnshunoslikdagi matn turlari bir xil nuqtai nazardan tasniflanmaydi. Biz matnga adabiyot nazariyasining obekti sifatida yondoshganda farqlanishi lozim bo‘lgan asosiy matn turlari xususida so‘z yuritamiz. Matn adabiyotshunos uchun qo‘lyozma yoki nashr shaklidagi til orqali ifodalangan ma’noviy butunlik ekan, yozilish tarixi nuqtai nazaridan uni D.Greymbs quyidagicha tasniflaydi: muallif matni, tarjima matn, qayta bayon qilingan (tabdiliy) matn, qayta yaratilgan (ishlab chiqilgan) matn³⁷.

Muallif matni ma’no jihatdan o‘ziga zid bo‘lgan anonim (muallifi unutilgan yoki jamoaviy) matnga nisbatan ustuvor xususiyatga ega, badiiy matnning eng keng tarqalgan turidir. Odatda badiiy asar haqida umuman so‘z yuritilganda, asosan, muallif matni nazarda tutiladi (matn muallifligi, matnda muallif ishtiroki masalalariga tegishli mavzular doirasida yana tahliliy munosabat bildiriladi).

Tarjima matni o‘quvchiga begona tilda bitilgan matn bo‘lib, u bevosita asliyatdan tarjima etilishi yoki vositachi til orqali yetkazilishi mumkin. Asliyatdan qilingan tarjimalar adekvat (birlamchi matnga yaqin)lik xususiyatiga ega bo‘lgani uchun amaliyotda ko‘proq qadrlanadi. Tarjima amaliyotida vositachi til sifatida nisbatan keng tarqalgan yoki tarjimasi faqat o‘sha tildagina mavjud bo‘lgan asarlar yuzaga chiqadi. Taassufki, buyuk Amir Temurning “Temur tuzuklari” asari asliyatda bizgacha yetib kelmagan, shuning uchun ham u vositachi — fors tilidagi matndan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Yoki jahonga mashhur Boburning “Vaqoe” (“Boburnoma”) asari ko‘pgina xorijiy tillarga fors tilidagi matnidan tarjima qilingan. Xuddi shu kabi yunon manbalari bizga dastlab arab tili orqali Forobiy

³⁷ Grambs David. Literary Companion Dictionary. London 1985.

tarjimasida kirib kelgan. Keyinchalik rus tili vositasida Arastu asarlari o'zbek tiliga tarjima etilgan. Zamonida sharqda arab va xitoy tillari shunday vositachilik vazifasini bajargan bo'lsa³⁸, - arbda lotin, ingliz va rus tillari ham tarjima matnlari uchun vositachi til vazifasini bajarib kelgan. Tarjima amaliyotidan maqsad matn qaysi til orqali kirib kelishi muhim emas, balki qaysi tilda asliyatga yaqin ma'nolar berilgan bo'lsa, o'sha tarjima matni muhim adabiy manba sanalgan. Amaliyotda she'riy asarlarni nasriy yo'l bilan tarjima qilish joriyligi singari nasriy asarlarni she'rga solish jihatlari ham kuzatiladi. Masalan, Frididdin Attorning "Mantiqu-t-tayr" asarining Jamol Kamol tomonidan amalga oshirilgan she'riy tarjimasi hamda N.Komilov va M.Mahmudov tomonidan bajarilgan nasriy tarjimasi ham mavjud. Bu kabi masalalar bilan filologiyaning muhim sohasi *tarjimashunoslik* shug'ullanadi, biroq tarjima vositasida o'rganilayotgan matn xususiyatlari bilan mashg'ul bo'lish faqat tarjima nazariyasining vazifasi emas, balki adabiyot nazariyasi ham o'z navbatida tarjima matnlari bilan ish ko'radi, uni tahlil va tadqiq qiladi.

Qayta bayon qilingan (tabdiliy) matn yoki ayrim she'riy asarlarning nasriy bayoni va ayrim nasriy asarlarning she'riy variantlari adabiyot tarixida muayyan o'ringa ega. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari hozirgi adabiy matnlardan yozuv va til jihatidan farqli bo'lgani uchun ular zamonaviy kitobxonlarga shunday tabdiliy matn orqali yetkaziladi. XX asr o'rtalarida Navoiy asarlarining tabdili bilan nafaqat olim-tadqiqotchilar, balki adiblar ham mashg'ul bo'lishgan. "Farhod va Shirin" dostonining Gafur Gulom, "Dada Qorqut kitobi"ning Anor tomonidan, "Qutadg'u bilig"ning B.Toxliev tomonidan e'lon qilingan tabdiliy matnlari amaliyotda ham faol qo'llaniladi. Keyingi yillarda Navoiy va Bobur asarlarining tabdiliga yalpi kirishilgani bu turdag'i matnlarga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Nasriy asarlarning she'riy tabdillari nisbatan kam bo'lsa-da, mavjudligi bu soha tadqiqotchilariga ham ilmiy yumush yuklaydi. Masalan, biz original asar deb qarayotgan hazrat Navoiyning "Nazm-ul-javohir" asari aslida hazrat Alining "Nasr-ul-luoli" nomli hikmatlarining she'riy yo'l bilan bayon qilinganidir. Lekin bu tabdiliy matn ruboiy janri xususiyatlaridan kelib chiqib shunchalik yuksak mahorat bilan amalga oshirilganki, u adabiyot tarixidan buyuk original asar sifatida o'rin olgan. Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibatu-l-haqoyiq" nomli asari ham Payg'ambar hadislaridan ayrimlarining turkiy tildagi she'riy bayonidir. Biroq muallif ularni yaxlit bir matn sifatida shunday ustalik bilan bog'lab asar yarata

³⁸ Азизова Ф. Литературное посредничество как система в арабском халифате. Баку: ЭЛМ, 2009.

olganki, uni hech bir ikkilanishsiz mumtoz ta’limiy dostonlarning yuksak namunasi sifatida qabul qilamiz. Shuning uchun ham Navoiy va Yugnakiy asarlariga tabdiliy matn deb emas, qayta yaratilgan original matn sifatida yondoshish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu adabiy hodisalarni ba’zi olimlar matn transformatsiyasi orqali tushuntiradilar.

Nazariy manbalarda *matn transformatsiyasi* deb nomlanadigan hodisa mumtoz adabiyot shakllangunga qadar bo‘lgan davrda ham, mumtoz adabiyot va bugungi adabiy jarayonda ham faol kuzatiladi. Transformatsiya (o‘zgartirish) istilohi fizika orqali qabul qilingan bo‘lib, u doimiy kuchlanishli elektr tokini muvaqqatga (yoki aksincha) o‘zgartirilishi uchun qo‘llanilgan³⁹. Matn transformatsiyasi bir mavzu doirasidagi matnlarni janr va syujetiga ko‘ra o‘zgarishidir. Bu poetik hodisaga ayrim adabiyotshunoslar (A.N.Veselovskiy) syujet poetikasi nuqtai nazaridan, ayrimlari (V.B.Shklovskiy) yangi janrlarning vujudga kelish omili deb qarashgan. Odatda muallif matni anonim matnga nisbatan o‘zgarishsiz deb olinadi, biroq bu matn tarkibida boshqa matnga xos, lekin o‘zgarish bilan qabul etilgan epizod, fragmentlarni kuzatamiz. I.V.Stebleva qadimgi toshbitiklar poetikasini o‘rganar ekan, matn kompozitsiyasi va ritmik strukturasidagi o‘zgarishlar asosida O‘rxun-Enasoy obidalarining badiiyatidagi poetik tajribaning bir matndan ikkinchisiga o‘tishi natijasida mumtoz adabiyotning ilk kurtaklari shakllangan davr (VII-X asrlar)ni aniqlagan⁴⁰.

Matn transformatsiyacini V.E.Xalizev obrazli qilib, “adabiyot ichidagi adabiyot” deb tushuntiradi va matn transformatsiyasiga olib keladigan omillar stilizatsiya, parodiya, bayon shakli, reminissensiya hodisalarini tahlil etadi⁴¹. Stilizatsiya muallif nutqiga kirmagan (“begona nutq”, M.Baxtin) presonajlar nutqining tasvirdagi zamon va makonga ko‘ra o‘zgartirilib, o‘sha muhitga mos etib shakllantirilishidir. Bu jarayonda nutq shakli o‘zgarishsiz hisoblansa-da, uning uslubi, manerasi, ifoda yo‘sini tasvirdagi muhitga moslashtirib beriladi. Bu usul, ko‘pincha, tarixiy asarlarda qo‘l keladi. Mas., Oybekning “Navoiy”, O.Yoqubovning “Ulug“bek xazinasi”, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlarida mualliflar stilizatsiya usuli orqali matn transformatsiyasiga yo‘l bergenlar. Yoki tushunilishi qiyin bo‘lgan matnlarning idrok etilishini osonlashtirish maqsadi bilan ham stilizatsiyaga murojaat qiladilar. Mas., Shekspir

³⁹ Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А. Энциклопедический словарь / Современная версия. М.: ЭКСМО, 2007. С.705.

⁴⁰ Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. М.: Наука, 1976. С.6.

⁴¹ Хализев В.Е. Теория литературы. С.261-272.

“Hamlet”ining ayrim sahna talqinlarida Daniya shahzodasi o‘z davri “tili”da emas, balki bugungi zamonaviy til, hatto ko‘rinish (kostyum)da ham tomoshabinlar qarshisida namoyon bo‘lishi mumkin. Matn transformatsiyasiga parodiya vositasida murojaat Servantesning “Don Kixot” asarida shunday yuksak shaklda erishiladiki, natijada zamonaviy kitobxon ushbu asar matni ilk Yevropa uyg‘onish davri ritsarlik romanlariga parodiya sifatida yozilganini unutib, uning voqealarini aslida bo‘lishi mumkinday qabul qiladilar.

Muallif reminissensiyaga murojaat qilar ekan, o‘quvchiga oldindan tanish voqeа bayoni yoki matn parchasini so‘nggi tugallangan muallif matnini tushunarli va ta’sirli chiqishiga erishishi mumkin. Rauf Parfi “Muhabbat” she’rida *Men kimni suybman... Yolborib toldim — O‘zgarar tabiat, dunyo o‘zgarar. Balki men o‘zga baxt yo‘lida qoldim, Lekin olib ketdi seni o‘zgalar* bandining ilk jumlesi (“Men kimni suybman”) Cho‘lponning “Go‘zal” she’riga taalluqli. Lekin bu birikma she’r qatiga shunchalar ustalik bilan singdirilib, yangi matn yaratilishiga xizmat qildirilganki, uning bu she’r uchun “begona” ekanligini oddiy she’rxon his qilmasligi mumkin. Reminissensianing mumtoz namunasini bizga *irsolu masal, talmeh* san’atlari beradi. Lekin asosiy matnga kiritilayotgan bu tayyor matn va ismlar asl voqeа-hodisalarga ishora qilish yoli bilan yangi original matn yaratilishga xizmat qiladi, uning ta’sir kuchi va badiiylik quvvatini oshiradi.

Matnning yuqorida ko‘rilgan filologik va nofilologik jihatlariga xos umumiyligini xususiyat — uning turgunligi, o‘zgarmasligidadir. Ayniqsa, muayyan va o‘sha iste’dodlarga tegishli matnlar garchi turli davrlarda turlicha talqin qilinsalar ham asl matni o‘zgarishsiz qoladi. Mana shu o‘zgarmas matn turli avlod vakillariga turli darajada xizmat qilgani uchun ular umuminsoniyat qadriyatlarini hisoblanadi. Shu o‘rinda matn o‘zgarishi yoki ilmiy til bilan aytganda, *transformatsiyasi* yuz berishi mumkin-ku, degan fikr tug‘ilishi ham mumkin. Avvalo, yuksak iste’dodlar tomonidan yaratilgan matnlar o‘zgarishlarga kam uchraydi, agar ular ongli ravishda transformatsiya qilinsa, u holda transformatsiyalangan “hosila” matn doimo birlamchi matnning natijasi (sabab va oqibat aloqadorligi asosida) bo‘lib qolaveradi. Yangilangan “hosila” matn birlamchi matndan ham ko‘proq muvaffaqiyat qozinishi ham mumkin. Biroq uning mohiyatini to‘la anglab yetish uchun birlamchi matn o‘z mohiyatini yo‘qotmagani holda kalit vazifasini bajarishi ham mumkin. Masalan, XX asrning eng muhtasham romanlaridan bir J.Joysning “Uliss”i o‘zidan ikki ming yildan avvalroq yaratilgan Odissey haqidagi mifga asoslanadi (Uliss — Odisseyning lotincha ismi). Bu yangilangan matn yangi

zamonga, yangi vazifalarga bo‘ysungani bilan uni badiiy matn sifatida tadqiq qilish uchun birlamchi matn yordamga keladi, uning yordamisiz “Uliss” zimmasidagi zamoniy “yuk”ni tushunish mumkindir, biroq asarning estetik quvvati avvalgi birlamchi matn bilan munosabatdagina ochiladi.

Matnda muallif va “begona” nutqi (muallifga tegishli bo‘lmagan — M.Baxtin) farqlanadi va ayni zamonda, bayonchi-qahramonga munosabatda “ikki ovozli so‘z” paydo bo‘ladi. Chunki bayonchi va qahramon (roviy va personaj) alohida-alohida subekt sanaladiki, ular turlicha idrok etiladi va his qilinadi. Yana shunday asarlar borki, unda “begona” nutq stilizatsiyaga uchraydi, ya’ni qahramon nutqi zamonga, muhitga va uning kasbiga moslashtiriladi. Stilizatsiyaga yaqinroq taqlid va parodiya kabi tushunchalar bu o‘rinda muallif tasvir obektidan yoki personajdan uzoqlashib, unga nisbatan kinoyaviy munosabatda bo‘ladi.

Matn tarkibida muallif so‘zi bo‘lmagan, stilizatsiya va parodiyadan farqlanuvchi “begona” nutq turi — bayon (сказ) mavjud. Bayonchi nutqi orqali biz uning “shaxsi’ni aniqlab, ko‘pincha, personaj yoki muallifga tegishli deb bilamiz. “Bayonning tamoyili shundayki, bayonchining nutqiga faqat intonatsion-sintaktik jihatdan emas, balki leksik (so‘z — H.B.) ma’nolar bilan ham rang berilishi mumkin”⁴². “Begona” nutq xususiyatlaridan yana biri shuki, uning so‘zлari *reminissensiya*, ya’ni yozuvchi matnida avvalgi adabiy hodisa yoki faktlarga havola tarzida kuzatiladi. Buni ayrim mutaxassislar “adabiyotning adabiyotdagi obrazi” deb aytishadi. Reminissensiya matnda bir o‘rinda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirma tarzida (O.Yoqubovning “Kohna dunyo” asari — H.B.) kelishi mumkin yoki u nutqda qayta ishlanib, ishoraga aylanishi ham mumkin.

Matn transformatsiyasi keng ko‘lamli va sertarmoq hodisa sanalgani uchun struktural poetika va semiotika vakillari unga intertekstuallik nuqtai nazaridan yondoshadilar.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda matnning “hududsizligi” xususida ham qarashlar tarqalmoqda. Masalan, dekonstruktivizm (ayrim manbalarda poststrukturalizm) ning yetakchilaridan J.Derridaning yozishicha: “Men uchun matn hududsiz, cheksiz. Bu mutlaqbutunlikdir (totalnost). Matndan tashqarida matn yoq. Bundan anglashiladiki, matn oddiy nutqiy muloqot turi emas. Masalan, biror stol — bu matn. Men uchun uning mavjudligi yoki lingvistik hodisa ekani emas, balki men uni qanday qabul qilsam, men uchun u shunday matndir”⁴³.

⁴² Эйхенбаум Б.М. О литературе: Работы разных лет. М., 1987. С.419.

⁴³ Интервью с Жаком Деррида // Мировое дерево. М., 1992. С.74.

Seziladiki, bu o'rinda matnning mavjudligi emas, uning inson tomonidan idrok etilishi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Yana unga munosabatda, mumtoz va zamonaviy matnni ilgashda shunday chegara tavsiya qilinmoqdaki, mumtoz matnlar muallif tomonidan "aytib beriladi", ularda muallif pozitsiyasi aniq ko'zga tashlanadi, aniq va maqsadli. Zamonaviy (postmodern) "matnlarda esa tilning o'zi gapiradi". Bu o'rinda muallif va personajlar ovozlari o'rniga faqat yozish jarayonidagina mavjud bo'lgan matn mutolaasida sezilmaydigan *skriptor* (yozuvchi) ovozi bor. Bunday qiyofasiz muallifgina hozirgi kitobxonga zavq bera olishi mumkin. Lekin matnni bu singari tushunish avlodlar o'sha bizgacha yetib kelgan mumtoz merosga nisbatan hurmatsizlikdir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Matn transformatsiyasi keng ko'lamli va sertarmoq hodisa sanalgani uchun unga qanday tamoyillar asosida yondashiladi?
2. Matnda muallif va "begona" nutqi (muallifga tegishli bo'lman) M.Baxtinning qarashlarini boshqa adabiyotshunoslar fikri bilan solishtirib izohlang.
3. Matn transformatsiyasini V.E.Xalizev obrazli qilib, "adabiyot ichidagi adabiyot" deb tushuntiradi" buning sababini izohlang, nega aynan shu yo'nalishda tushuntirilgan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Эйхенбаум Б.М. О литературе: Работы разных лет. М., 1987. С.419.
2. Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А. Энциклопедический словарь / Современная версия. М.: ЭКСМО, 2007. С.705.
3. Стеблева И.В. Поэтика древнетюркской литературы и ее трансформация в раннеклассический период. М.: Наука, 1976. С.6.
4. Хализев В.Е. Теория литературы. С.261-272.
5. Азизова Ф. Литературное посредничество как система в арабском халифате. Баку: Элм, 2009.
6. Грамбс Давид. Литерарий Сомпанион Дистионарий. Лондон 1985.
7. Бахтин М.М. Проблема текста в лингвистике, филологии и других гуманитарных науках / Эстетика словесного творчества. М., 1979. С.297.
8. См.: Долинин К.А. Интерпретация текста (Французский язык). М., 1983.

9. Борев Ю. Словар терминов текстологии и генетической критики. М., 2011. С.140.
10. Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Л., 1970. С.24-25.
11. Борев Ю. Словар терминов текстологии и генетической критики. М., 2011. С.141.



IV. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-AMALIY MASHG'ULOT. UMUMIY POETIKA MASALARIGA E'TIBOR REJA:

1. Umumiy poetika masalariga e'tibor qay darajada deb o'ylaysiz, fikrlaringizni misollar bilan izohlang
2. Adabiy ta'lindi o'r ganilish obyektlariga nisbatan asosiy konsepsiylar

Tayanch tushunchalar: umumiy poetika, adabiy tafakkur, tarixiy bosqich,

arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya) konsepsiylar, ijodiy metod, adabiy ta'lim

Amaliy mashg'ulotdan maqsad: Umumiy poetika masalalarini o‘rganishda Verli kitobiga tayanish mumkinligi. Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya) va bu jihatdan rus olimlarining qarashlari. “История Всемирной литературы” misolida. XX-XXI-asrlardagi ijodiy metod va konsepsiylar. Postmodernizm va uning ko‘rinishlari.

Vazifalarning bajarilishi.

- san’atning estetik, semiotik va kommunikativ tabiat;
- badiiy adabiyot san’atning turi sifatida so‘z (nutq) uning materiali va ifoda quroli ekani;
- badiiy asar strukturasi;
- shakl va mazmun, vaqt va makon kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi;
- badiiy matn tarkibida qahramon-muallif-kitobxon munosabati;
- “bayon hodisasi” (ifoda tarzi) va roviylik masalalari;
- badiiy olam chegaralari;
- adabiy tur va janrlar nazariyasiga munosabat;
- uslub nazariy poetika obekti sifatida.

Shu jihatdan “Poetika nima”, “U ilmmi yoki san’at”, “Agar ilm bo‘lsa, qaysi tamoyillar asosida ish ko‘radi” degan savollarga javob izlaymiz.

“Poetika” istilohi Arastu hakim davrida ilmiy muomalada bo‘lib, quyidagi ma’nolarda qo‘llanilgan: badiiy borliq hosil qiluvchi, badiiy makon va zamonda mavjud bo‘lib, dunyo va shaxs haqidagi muayyan konsepsiylar tashuvchi vositalar yig‘indisidir (1); adabiyotshunoslik va ritorikaga yaqin bo‘lgan, badiiy borliqni hosil qiluvchi vositalar va uning strukturasini o‘rganuvchi ilmiy predmet (2)⁴⁴. Qadimgi sanskrit poetikasi sifatida *visheshana* (badiiy so‘zning alohida xususiyatlarini qayd qiluvchi, uni og‘zaki va yozma odatiy ifodadan farqlovchi), *alankara-shastra* — bezak nazariysi; arab-fors-turk poetikasida *balog‘at ilmi* (hozirgi istilohda — badiiy san’atlar) istilohlari qo‘llanilgan.

Shuningdek, poetikaga “badiiy asar qurilishi va va unda qo‘llanilgan estetik vositalarining tizimi haqidagi fandir” (KLE) degan ta’rif bilan tavsifiy (описательная) va tarixiy poetika navlari tavsiya etiladi. Ingliz olimi S.Baldik

⁴⁴ Борев Ю.Б. Энциклопедический словарь эстетики и теории литературы. Москва, 2008. Эл. версия - П. С. 90-92.

(C.Baldick) yuqoridagi xususiyatlar qatoriga “poeziyaning til, shakl, janr, kompozitsiya vositalari kabi aspektlari bilan aloqadorlikda” tushunadi. Boshqa bir xorijiy olim H.Shav [H. Shaw] Arastu “Poetika”si XX asrdan beri munaqqid va adiblarning “Bibliya”si bo‘lganini ta’kidlaydi.

R.Yakobson poetikaning vazifadorligiga ko‘ra “u (poetika — H.B.) tufayli nutqiy ma’lumot san’at asariga aylanadi... Xabar berishning so‘z strukturasi, birinchi navbatda, ustuvor vazifa sanaladi. Diqqat-e’tiborni bunday xabarga yo‘naltirish — bu tilning poetik vazifasidir” deb yozgan. B.V. Tomashevskiy: “poetika o‘z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o‘rganishda ko‘radi. Poetikaning o‘rganilish obekti — badiiy adabiyot. O‘rganish usuli esa — hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat” deb yozadi.

Poetika V.Jirmunskiy so‘zlari bilan aytganda, uslubni yaratish vositasi va badiiy dunyonining qurilmasini o‘rganishni o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan, poetika adabiyotni san’at sifatida o‘rganuvchi fan, poeziya haqidagi ilmdir” deb xulosalaydi.

Ayrim ulug ijodkorlarga nisbatan: Navoiy poetikasi (Yo.Ichoqov), Pushkin poetikasi (S.G.Bocharov), Dostoevskiy poetikasi (M.Baxtin) singari ham qo‘llaniladi.

Poetika turlari: tarixiy poetika (A.N.Veselovskiy), nazariy poetika (A.A.Potebnya), antik poetika (S.S.Averinsev), dinamik poetika (Z.S.Paperniy), struktural poetika (R.Bart, Yu.Lotman) kabi.

Bundan tashqari ayrim badiiy komponentlarga nisbatan: syujet poetikasi (A.N.Veselovskiy), mif poetikasi (E.M.Meletinskiy), bayon (повествование) poetikasi (N.K.Gey), kompozitsiya poetikasi (B.A.Uspenskiy) kabi.

O‘zbek olimlari bunday atamalararo sarson kezinishda davom etishi bilan birga o‘tgan asrning 90-yillarida yaratgan bir necha tadqiqotlarini birvarakayiga “poetika” sifatlashi bilan qo‘shib ilmiy muomalaga kiritdi: *Fitrat dramalari poetikasi, Cho‘lpon nasri poetikasi, Jadid she’riyati poetikasi* kabi. Poetika so‘zi tez orada adabiy turlardan janrlarga qarab o‘z sayohatini davom ettirdi: Romanlar poetikasi, qissalar, hikoyalar poetikasi hatto mumtoz she’riyatda bir vaqtlar qo‘llanilgan va sho‘ro‘ tizimida og‘zi yopib qo‘yilgan munojotlarga nisbatan ham (Navoiy munojotlari poetikasi) dadil qo‘llanildi. Nihoyat biz kecha modernizm deb atagan hodisani bugun postmodernizm deb atash urf bo‘ldi, kecha chala eshitganimiz va hali qabul qilib ulgurmaganimiz struktural poetikadan tezlikda *poststrukturalizmga* qarab jadalladik. Biz jadallik bilan biridan ikkinchisiga sakrab

ketayotganimiz “...izm”lar badiiy adabiyotga nima berdi, biz yangi tahlil tamoyillari deb urf qilishga uringanimiz adabiy qarashlar milliy adabiyotimizga bag‘riga kira oldimi, kirganda ham uning eng go‘zal, nozik va nafis namunalarini hech bo‘lmasa shu millat vakillariga ko‘z ko‘z qila oladigan darajada g‘avvoslik vazifasini o‘tadimi kabi savollar barobarida milliy adabiyotshunoslikdagi nazariy tamoyillarni ham bir tahlildan o‘tkazish vaqtি kelmadimi degan andishaga duch kelamiz.

Adabiyotshunoslik professional istilohga ko‘ra, XIX asr boshlarida vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqaladi. Adabiyotshunoslik fan sifatida ilmiy faoliyat sohiblari bilan ijodkorlar olamini o‘zaro bog‘lab, ijodiy yutuqlardan ilm taraqqiyoti uchun foydalanar ekan, u ish ko‘rayotgan tushuncha va istilohlarda har xillik kuzatilishi mumkin. Adabiyotshunoslikdagi terminologik chalkashliklarning oldini olish, tushuncha va istilohlarni identifikasiya qilish (muayyanlashtirish), adabiy tahlil va jarayondagi ijtimoiy ahamiyatli hodisalarga tayanib ish ko‘rish bugungi adabiyot ilmining vazifalaridan.

Adabiyotshunoslik bugungi kunda mafkuraviy tazyiq, sotsialistik realizm kabi metodologik siquv va yuqorida boshqarilishga mo‘ljallangan jihatlardan holi bo‘lish bilan birga, estetika, lingvistika, falsafa, tarix, ruhshunoslikdan tashqari, kibernetika, semiologiya, sinergetika va boshqa zamonaviy fanlar bilan erkin aloqaga kirishadi.

Adabiyotshunoslikning vujudga kelishi, shakllanish manbalari, tarixiy taraqqiyot tamoyillarini o‘rganuvchi fan sifatida uning maqsadi jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o‘rganish; adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlarning mohiyatini aniqlash; Sharq va G‘arb tafakkurlararo mushtarak va farqli jihatlarga tipologik yondashish; qadimgi davr, o‘rta asrlar, uyg‘onish hamda XVI asrdan keyin yaratilgan adabiy-nazariy manbalarni o‘rganish, adabiy yo‘nalish va oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o‘rnini belgilash; XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil bo‘lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilashdan iborat. Adabiyotshunoslik tarixi tarkibiga, shuningdek, adabiyotshunoslikning ilmiy tizim sifatida shakllanish tarixi, mavjud akademik maktablar, ilmiy tizimlar va nazariy konsepsiyalarni ham o‘rganish kiradi.

Adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish. Davr (stadiya, epoxa, period)

tushunchasining istilohiy mohiyatini anglash. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyot va adabiy matnga nisbatan ikkilamchi tahliliy tizim ekan, badiiy adabiyot tarixini davrlashtirishdagi asosiy tushuncha va tamoyillar uning uchun ham asos hisoblanadi.

“Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh tarix faniga nisbatan ishlatilgani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham ko‘proq qo‘llaniladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda uning predikati sifatida (nimani?) adabiyotshunoslik tarixini (umuman, badiiy adabiyotni emas) *davrlashtirish* tarzida qabul qilinadi.

Adabiyot va adabiyotshunoslik tarixini davrlashtirish uchun dastlab adabiy istilohlarni belgilab olish, so‘ngra esa davrlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. “Davrlashtirish” tushunchasi asosida *davr* istilohi yotadi. Biz “davr” deb atagan kalima “zamon”, “vaqt”, “muddat”, “fursat”, “davomlilik” kabi ma’nolarni anglatadi. Biroq adabiyotshunoslar davrlashtirishga munosabatda birgina “davr” atamasini faol qo‘llaydilar, go‘yoki boshqa so‘zlar atama bo‘lishga huquqli emasday. Xorijdan o‘zlashgan so‘zlar asosida rus tilida davr tushunchasi “period”, “epoxa”, “stadiya” so‘zları orqali ifodalanibgina qolmay, har bir so‘z muayyan ma’no qamrovidan kelib chiqib, alohida atamaga aylangan. Masalan, “period” nisbatan “kichikroq davrlar”ga nisbatan qo‘llanilib, u ko‘proq yillar, o‘n yilliklar va asrlarga nisbatan ishlatiladi. “Epoxa” undan kengroq tushuncha bo‘lib, o‘z tarkibiga bir necha asrlarni (masalan, epoxa srednix vekov — o‘rta asrlar (yani bir necha asr ma’nosida) birlashtirgan. O‘zbek tilida esa bu tushunchani, ya’ni bir necha asrlarni qamrab oluvchi “epoxa”ni ham “davr” so‘zi orqali anglatamiz.

Adabiyotshunoslikda “stadiya” (ayrim ilmiy asarlarda “стадиальная общность” “стадиальная общност”) tushunchasi bor (uni o‘zbek tiliga davriy umumlashma tarzida tarjima qilish mumkin. Bu istiloh umumjahon adabiyoti tarixining muayyan “davri”ga nisbatan ishlatilib, uning doirasiga античност (qadimgi davr), средневекове (o‘rta asrlar), Renesans — Возрождение — Uyg‘onish (ayrim tarixiy manbalarda intiboh) va boshqa tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab oladi. Biz o‘zbek tilida uni ham “davr” deb ataymiz: *antik davr*, *o‘rta asrlar*, *Uyg‘onish (yoki intiboh) davri* kabi. Demak, o‘zbek tilidagi adabiyotshunoslik masalalariga munosabatda har uch tushunchani bir so‘z, ya’ni “davr” so‘zi orqali anglatishimiz va yuqoridaq kabi yillarga nisbatan ham (20-yillar adabiyoti), asrlarga nisbatan ham (XX asr adabiyoti) hamda “davriy umumlashma”ga nisbatan ham birgina “davr” so‘zidan foydalanamiz.

Adabiyot tarixi davrlashtirilayotganda “davr” so‘zi zimmasidagi ana shu istilohiy “yuk”larning ayirmasini belgilab olmay turib, davrlashtirish tamoyillarini izlaganda xatoliklarga yoki kamida chalkashliklarga duch kelaveramiz. Albatta, o‘zbek (kengroq ma’noda turk tili) boy til, har bir tushunchani aniq ifodalay oladigan o‘z so‘zlarimiz bor. Payti kelib, yuqoridagi uch ma’nodan biri “zamon” orqali, boshqasi “muddat” (yoki fursat, on va boshqalar) orqali o‘z yechimini topishi mumkindir. Biroq jahon adabiyotshunosligi tarixining davrlashtirish tamoyillari ishlab chiqilayotganda yuqoridagi uch jihat hisobga olinishi lozim.

Adabiyotshunoslik tarixida yirik tarixiy davrlar (yoki davriy umumlashmalar): mifik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya. Adabiyotshunoslik tarixining dastlabki davri sifatida u “arxaik zamon” tarzida mumtoz adabiyot shakllangunga qadar kechgan adabiy hodisalar alohida o‘rganilishi kerak. Bu ayirma ham nazariy jihatdan, ham manbalarning yaratilishi va tarqalishi, ya’ni amaliy jihatdan o‘z asoslariga ega. Masalaga nazariy jihatdan yondashganda, postsoviet (sho‘rodan keyingi) hududlarida markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasidan uzoqlashishni ko‘zda tutgan “Adabiy davrlar o‘zgarishida poetika kategoriyalari”⁴⁵ jamoa tadqiqotida “Yevropa hududiga kirmagan adabiy maydonlar”ni ham hisobga olish lozimligi haqida muhim fikr bor: “Birinchi davriy umumlashma (“arxaik zamon”)da yozma adabiyotda folklor an’analaring kuchli ta’siri kuzatiladi. Bunda mifopoetik badiiy tafakkur yetakchi xususiyat kasb etadi, u so‘z san’ati ustidan “refleksiya” mavjud emas, chunki hali na adabiy tanqid, na adabiyot nazariysi, na badiiy-ijodiy dasturlar shakllanib ulgurmagan edi. Bularning hammasi esa ikkinchi bosqichda, ya’ni Yunonistonda miloddan avvalgi I mingyillik o‘rtalarida shakllanib, XVIII-asrning o‘rtalariga qadar davom etgan. Va nihoyat, uchinchi bosqichda marifatchilik va romantizm adabiy sahnaga “individual-ijodiy badiiy tafakkur”ni olib chiqdi. Bunda “muallif poetikasi” “janr-uslubiy ko‘rsatmalar”dan ozod bo‘lib ustunlikka erishdi”. Shunga ko‘ra, ilk davriy umumlashmani “mumtoz adabiyot shakllangunga qadar” kechgan vaqt, ya’ni “arxaik zamon” deb atash maqsadga yaqin keladi. Unga ko‘ra, folklor ananalari hukmron bo‘lgan, badiiy ijod namunalari mifopoetik tafakkur asosiga qurilgan, adabiy asarlar diniy va tarixiy asarlarga qorishiq holda yaratilgan, adabiy “kanon”lar esa hali yaratilmagan davrlarni alohida o‘rganish lozim. Agar adabiy hodisalar nisbatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, dastlabki adabiy ibtido

⁴⁵ Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994. С. 33

sifatida “Bilgamish”⁴⁶ deb belgilanadimi yoki Garbdagi Arastu hakimning asarlari yaratilgunga qadar kechgan falsafiy-estetik qarashlar nazarda tutiladimi, Sharq mumtoz poetikasiga asos bo‘lgan adabiy manbalar asos qilib olinadimi — bulardan qat’iy nazar hali sof adabiyotshunoslik manbalari shakllanmagan, adabiy-nazariy qarashlar mifik, diniy, tarixiy, siyosiy va boshqa yo‘nalishdagi asarlar tarkibida kelgan “arxaik zamon” nazarda tutilgan. Bu o‘rinda adabiy davr chegarasini qandaydir tarixiy voqealar yoki siyosiy hodisalar asosiga emas, adabiy hodisaga aylangan *asarlar yoki adabiy siymolar* ijodi asosida belgilash mumkin. *Adabiyotshunoslikda mifik tafakkur manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar* ham adabiyot tarixining ilk bosqichi sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ilk adabiy ta’lim o‘choqlari bo‘lmish Misr, Shumer, Hindiston va Xitoydagи yodgorliklar tarkibidagi nazariy qarashlar, “Bilgamish” (shumer), “Rigveda”, “Mahobhorat”, “Ramayana” (hind) asarlarida bayon qilingan fikrlarga ham adabiyotshunoslik manbalari sifatida qaraladi. Xitoyda Konfutsiy ta’limoti, Osiyo mamlakatlarida Budda, moniylik va boshqalar diniy inonchlar tarkibida ham muayyan ma’noda estetik-axloqiy qarashlar mujassamlangani ma’lum.

Yevropa adabiyotshunosligi antik adabiyot manbalariga tayangan holda shakllangani uchun qadimgi yunon olimlarining estetik qarashlari, xususan, Suqrot, Aflatun asarlari adabiyotshunoslik tarixi uchun muhim manbadir. Chunki ular zamirida ilk adabiy asarlar, Homer, Ezop, Esxil, Evripid, Aristofan, Pindar kabi ijodkorlarning asarlariga munosabat yotibdi. Jahon mumtoz adabiyotshunosligi tarixiga asos bo‘lgan manba sifatida Arastu ta’limotiga yondashish zarur.

Ikkinci davriy umumlashma sifatida *mumtoz adabiyotshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti* olinadi, bu yunon adabiyotida Arastu hakimning “Poetika” va “Ritorika” asarlarining yaratilish davridan XVIII asr o‘rtalarigacha, to‘g‘irogi, marifatparvarlik adabiyoti tufayli yuzaga chiqqan nazariy manifestlar Fransiyada Didro, Germaniyada Gerder nazariy ta’limotlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq holda qaraladi. Bu holat Sharq islom mamlakatlarida “ilmi adab” va uning tarkibiga kirgan fanlarning shakllanish davridan XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari adabiyotlarida kechgan modernlashuv jarayoniga qadar davom etadi.

⁴⁶ Крамер С. Шумеры. Первая цивилизация на Земле. М.: Центрполиграф, 2010.

Uchinchi davriy umumlashma adabiyotshunoslik tamoyillarini belgilashda bir milliy yoki hududiy birlik doirasida emas, balki umumjahon adabiyoti durdonalarini belgilash, ya’ni “dunyo adabiyoti” istilohi (Gyote)ning asosiy mezonga aylanishi, shuningdek, keyinroq *yangi, modern, jadid* kabi tushunchalarni tashigan hamda XIX-XX-XXI-asrlarda shakllangan adabiy tizim va konsepsiylar mohiyatiga ham mana shu davriy umumlashmadan kelib chiqib qaraladi. Bu *Yangi davr* umumiyligi istilohi bilan o‘rganilayotgan mumtoz adabiy meyor va qoidalarning barham topishi, “adabiy sahnaga individual-ijodiy tafakkur”ning chiqishi bilan xarakterlanadi.

Har bir davriy umumlashma haqida so‘z yuritilganda, uning adabiy-tarixiy davrlarga bo‘linishi mumkin va lozimligi ekanligini unutmaslik kerak. Yevropa nazariyotchilar “yangi adabiyot” istilohini XIX asrdan keyingi davrga nisbatan qo‘llashadi. Chunki nazariyotchilar fikricha, ma’rifatchilik yo‘nalishidan keyin yangi adabiyot xususiyatlarini belgilashda har bir milliy adabiyotshunoslik bu jarayonga turlicha yo‘llar bilan kirib kelganiga qaramay, “muallif poetikasi”ni nazariyaning asosi deb qaralishida ikki muhim omil, birinchidan, o‘zgarayotgan adabiy jarayon masalalari qat’iy, kanonlar asosiga qurilishi mumkin emasligi va ikkinchidan, muhimi, badiiy asar tahlili orqali muallif avvaldan belgilab qo‘yilgan poetik qonuniyatlarga qay darajada amal qiliganini emas, balki muallif ilgari surgan poetik tizim (XX-asrning o‘rtalaridan — modullar) adabiy jarayonning yangilanishiga, shu jumladan, jahon adabiyotining boyishiga xizmat qilganini aniqlashdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur darslikda jahon adabiy-nazariy tafakkuri sifatida tan olingan estetik qarashlar tadriji o‘rganildi. Muayyan davr, millat yoki alohida buyuk shaxslar tomonidan yaratilgan nazariy-estetik hodisalar umumbashariy tafakkur hosilasi sifatida talqin etildi. Adabiy-nazariy konsepsiylararo mushtaraklikning xronologik, tarixiy-madaniy, geografik, genetik va psixologik va asosan, filologik omillari tadqiq etildi. Sharqu Garb adabiy-estetik tafakkuridagi aloqadorlik va farqli jihatlar, buning sabab va oqibatlari tahlilga tortildi. Hozirgi globallashuv jarayonida yaxlit dunyonı Sharq va Garb singari ikki yirik hududga bo‘lish va uning ijtimoiy omillaridan tortib, san’atga doxil tushunchalariga qadar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib tadqiq etish usuli mutlaqo eskirgan. Bunday yevropatsentristik metodologiya dunyo tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan ayrim millatlar zakovatiga nisbatan kamsitish hamdir. Qolaversa, asrlar davomida shakllangan qiyosiy-tarixiy metodni istifoda

etish jarayonida birining ikkinchisiga ta’siri nuqtai nazaridangina emas, balki o‘zaro mavjudlik qonuniyatlari asosida komparativistik va struktural metodlardan foydalanib ish ko‘rish kutilgan samara berishi mumkin.

Estetik tafakkur rivoji sobiq ittifoq doirasidagi ilmiy asarlarda, asosan, Yevropa va G‘arb dunyosiga xos hodisa sifatida baholanar edi. Antik madaniyat ildizlari qadimgi yunon falsafiy-estetik manbalari bilan aloqada bo‘lgani kabi bu ilmiy-nazariy tafakkur durdonalari qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda yaratilgan tafakkur durdonalari bilan ham bog‘liq. Bashariyat tamadduni tarixini nafaqat Suqrot, Aflotun, Arastu, Goratsiy, Plutarx, Seneka, Plotin, Avgustin kabi Garb faylasuflari merosi va ularning Sharqqa ta’siri masalalarigina emas, balki “Bilgamish”, “Avesto”, “Mahobxorat”, Orxun obidalari singari muhtasham manbalar, Buddha va Konfutsiy ta’limoti, moniylik va nasroniylikka oid muqaddas yozuvlar, keyinroq islom Renesansi sifatida tan olingan buyuk manaviy o‘zgarishlar ham tashkil etishini ko‘zda tutib, bu kabi yuzlab madaniy manbalar ham ilmiy tahlilga tortildi. Zero, o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab sobiq sho‘ro‘lar ittifoqida yangilanish tamoyillari urf bo‘layotgan bir paytda “Umumjahon adabiyoti tarixi” nomli fundamental tadqiqotlar majmuyi (9 jild) yaratildiki⁴⁷, bu adabiy-nazariy-tajriby natijalaridan ushbu darslikni yaratishda foydalanildi. Sababi “Umumjahon adabiyoti tarixi” sifatida qat’iy xronologik tartibda butun dunyo adabiyotlarining mushtarak tarixi yaratilib, ularning sinxron jadvali tuzilgani bo‘ldi. Jadvalga ko‘ra, milloddan avvalgi uch ming yillikda yuzaga chiqqan adabiy manbalar sifatida Misrdagi ieroglifik adabiyot, Mesopotamiyadagi Shumer madaniyati, Akkad va Bobilda yaratilgan manaviy meroq qayd etilgan. So‘ngra qadimgi Hindiston, Xitoy, Eron, Markaziy va Kichik Osiyo madaniyati tasnif etilgan. Ana shu ma’lumotlarga asoslangan holda jahon madaniyatining “oltin beshigi” sifatida antik (ko‘hna) Yunon va Rim madaniyati hamda tamadduni emas, undan qariyb uch ming yil avval bunyod etilgan yuqorida tilga olingan adabiyotlar tartiblashtirilgan. Tasnif jarayonida qadimgi sulolalar bo‘yicha davlatchilik tarixi, arxeologik qazishmalar jarayonida qo‘lga kiritilgan moddiy va manaviy meroq manbalari asos qilib olingan. Mana shu tarixiylik tamoyillariga imkon qadar amal qilingan holda eng qadimgi davrlardan tortib o‘rtta asrlargacha kechgan adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti yaxlit bir ilmiy-ijodiy jarayon sifatida tushunildi.

Akademik N.I.Konrad “Osiyo va Afrikaning eng qadimgi “adabiyotlariga kirish” deb nomlangan “Umumjahon adabiyoti tarixi” kitobi muqaddimasida qadimgi dunyo adabiyotlari manzarasini shunday tasavvur qiladi: “Qadimgi davrda shumer va misrliklar, assiriylar, bobilliklar, xurrit va xetlar, finikiylar va axiy yunonlari — bular bir “sahna maydoni”ni tashkil qilsa, Hindistondagi Moxendjodaro va Xarrappa, Hayan — xitoyliklar uchinchi maydonni tashkil qiladilar. Bu “maydonlar” — uch tarixiy-madaniy hududni anglatadi; Yevro-Afro-Osiyo hududi uch markaz Nil vodiysi, Tigr va Evfrat daryolari oralig‘i hamda Krit va Peloponnesni; Janubiy Osiyo hududi Hind sohillari; Sharqiy Osiyo hududi esa, Xuanxe o‘rtal oqimi sohillarini tashkil qiladi. Hammadan avval milloddan avvalgi IV minginchi yillikda madaniy-tarixiy hayot birinchi hududda vujudga kela boshlagan; so‘ngra keyinroq IV—III-ming yillikda ikkinchi va nihoyat, II-mingyillikda uchinchi hududda shakllangan”⁴⁸. Garchi ushbu qarashni mazkur adabiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi asosiy omil deb bilmasak ham, bu kabi ilmdagi mavjud qarashlar ushbu tadqiqotdagi manbalar va boblar ketma-ketligini belgilashga yordam berdi. Natijada eng qadimgi davrlardan tortib G‘arbda jaholat va inkvizatsiya davri deb baholangan o‘rtal asrlar (VII—VIII)gacha jahon xalqlari manaviyatining tamal mohiyatini to‘g‘ri aks ettirgan manbalarni alohida tahlilga tortishga to‘g‘ri keldi. Chunki adabiyotshunoslikka badiiy adabiyotga nisbatan uni o‘rganuvchi, tahlil tamoyillarini belgilovchi fanlar tizimi sifatida yondashilar ekan, adabiyotlar taraqqiyotidagi har bir hodisa adabiyotshunoslik tarixiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatishi tabiiy.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Adabiyotshunoslikda qanday turdagি manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar ham adabiyot tarixinining ilk bosqichi sifatida qaraladi?
2. Adabiyotshunoslik professional istilohga ko‘ra, vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqalishi qanday manbaalar orqali izohlash mumkin?
3. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga oid nazariyalar adabiyotshunoslik tarixi taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega sanaladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

⁴⁸ Конрад Н.И. Древнейшие литературы Азии и Африки. Введение / История всемирной литературы. Т.1. М.: Наука, 1983. С.53.

1. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 1-2 jildlar. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2016, 2019.
2. Xolbekov M. XX asr jahon adabiyoti manzaralari. T.:MUMTOZ SO‘Z, 2020.
3. Теория литературы: Теоретическая поэтика. Учебное пособие для студ. филол. фак.: в 2 т. / Под ред. Н.Д. Тамарченко. Т. И. М.: Академия, 2004.
4. Теория литературы: т. ИИИ. Роды и жанры; т. ИВ. Художественный протсесс / Под ред. Ю.Борева. М.: ИМЛИ РАН, 2003, 2011.
5. Борев Ю.Б. Теоретические итоги XX века. — Минск, 2010.
6. Античная поэтика. Риторическая теория и литературная практика. М., 1991;
7. Бройтман С.Н. Историческая поэтика // Тамарченко Н.Д. Теория литературы: В 2 тт. — Т.2. — М.: АКАДЕМА. 2004.
8. Хализев В.Е. Теория литературы. М., 2002.
9. Borev Yu. Estetika. T.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.
10. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. T.: MUMTOZ SO‘Z, 1-jild. 2013; 2-jild. 2016.
11. Boltaboev H., Normatov U. Bugungi adabiyotda estetik ideal va qahramon muammosi (U.Normatov bilan suhbat) // Jahon adabiyoti. 2012. 4—сон. B.134-148.

2-AMALIY MASHG‘ULOT.

ADABIY TAFAKKUR TARIXIDAGI TARIXIY BOSQICHLAR: ARXAIK; MUMTOZ(KANONIZATSIIYA) VA ZAMONAVIY (DEKANONIZATSIIYA)

REJA:

- 1. *Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya)***
- 2. *XX-XXI-asrlardagi ijodiy metod va konsepsiyalarga umumiy obzor***
- 3. *Adabiy talimdagи o‘rganilish obektlariga nisbatan asosiy konsepsiylar***

Tayanch tushunchalar: umumiy poetika, adabiy tafakkur, tarixiy bosqich, arxaik, mumtoz (kanonizatsiya va zamonaviy (dekanonizatsiya) konsepsiylar, ijodiy metod, adabiy ta'lim

Amaliy mashg'ulotdan maqsad: Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar: arxaik, mumtoz (kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya) va bu jihatdan rus olimlarining qarashlari. “История Всемирной литературы” misoldida. XX-XXI-asrlardagi ijodiy metod va konsepsiylar. Postmodernizm va uning korinishlari.

Vazifalarning bajarilishi.

- san'atning estetik, semiotik va kommunikativ tabiat;
- badiiy adabiyot san'atning turi sifatida so‘z (nutq) uning materiali va ifoda quroli ekani;
- badiiy asar strukturasi;
- shakl va mazmun, vaqt va makon kategoriyalarining o‘zaro aloqadorligi;
- badiiy matn tarkibida qahramon-muallif-kitobxon munosabati;
- “bayon hodisasi” (ifoda tarzi) va roviylik masalalari;
- badiiy olam chegaralari;
- adabiy tur va janrlar nazariyasiga munosabat;
- uslub nazariy poetika obekti sifatida.

Adabiyotshunoslikning vujudga kelishi, shakllanish manbalari, tarixiy taraqqiyot tamoyillarini o‘rganuvchi fan sifatida uning maqsadi jahon estetik tafakkuri va adabiyotshunosligi erishgan yutuqlarni zamon talablari nuqtai nazaridan o‘rganish; adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyotidagi davriy bosqichlarning mohiyatini aniqlash; Sharq va G‘arb tafakkurlararo mushtarak va farqli jihatlarga tipologik yondashish; qadimgi davr, o‘rta asrlar, uyg‘onish hamda XVI asrdan keyin yaratilgan adabiy-nazariy manbalarni o‘rganish, adabiy yo‘nalish va oqimlarning adabiy tafakkur tarixidagi o‘rnini belgilash; XX asr yangi davr adabiyotshunosligining vujudga kelishida omil bo‘lgan nazariya va konsepsiyalarning adabiyot tarixidagi o‘rnini belgilashdan iborat. Adabiyotshunoslik tarixi tarkibiga, shuningdek, adabiyotshunoslikning ilmiy tizim sifatida shakllanish tarixi, mavjud akademik maktablar, ilmiy tizimlar va nazariy konsepsiyalarni ham o‘rganish kiradi.

Adabiyotshunoslik tarixida yirik tarixiy davrlar (yoki davriy

umumlashmalar): mifik tafakkur, kanonizatsiya va dekanonizatsiya. Adabiyotshunoslik tarixining dastlabki davri sifatida u “arxaik zamon” tarzida mumtoz adabiyot shakllangunga qadar kechgan adabiy hodisalar alohida o‘rganishi kerak. Bu ayirma ham nazariy jihatdan, ham manbalarning yaratilishi va tarqalishi, ya’ni amaliy jihatdan o‘z asoslariga ega. Masalaga nazariy jihatdan yondashganda, postsoviet (sho‘ro‘dan keyingi) hududlarida markscha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar nazariyasidan uzoqlashishni ko‘zda tutgan “Adabiy davrlar o‘zgarishida poetika kategoriyalari”⁴⁹ jamoa tadqiqotida “Yevropa hududiga kirmagan adabiy maydonlar”ni ham hisobga olish lozimligi haqida muhim fikr bor: “*Birinchi davriy umumlashma* (“arxaik zamon”)da yozma adabiyotda folklor an’analarining kuchli ta’siri kuzatiladi. Bunda mifopoetik badiiy tafakkur yetakchi xususiyat kasb etadi, u so‘z san’ati ustidan “refleksiya” mavjud emas, chunki hali na adabiy tanqid, na adabiyot nazariyasi, na badiiy-ijodiy dasturlar shakllanib ulgurmagan edi. Bularning hammasi esa *ikkinch bosqichda*, ya’ni Yunonistonda miloddan avvalgi I mingyillik o‘rtalarida shakllanib, XVIII asrning o‘rtalariga qadar davom etgan. Va nihoyat, *uchinch bosqichda* marifatchilik va romantizm adabiy sahnaga “individual-ijodiy badiiy tafakkur”ni olib chiqdi. Bunda “muallif poetikasi”, “janr-uslubiy ko‘rsatmalar”dan ozod bo‘lib ustunlikka erishdi. Shunga ko‘ra, ilk davriy umumlashmani “mumtoz adabiyot shakllangunga qadar” kechgan vaqt, ya’ni “arxaik zamon” deb atash maqsadga yaqin keladi. Unga ko‘ra, folklor ananalar hukmron bo‘lgan, badiiy ijod namunalari mifopoetik tafakkur asosiga qurilgan, adabiy asarlar diniy va tarixiy asarlarga qorishiq holda yaratilgan, adabiy “kanon”lar esa hali yaratilmagan davrlarni alohida o‘rganish lozim. Agar adabiy hodisalar nisbatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, dastlabki adabiy ibtido sifatida “Bilgamish” deb belgilanadimi yoki Garbdagi Arastu hakimning asarlari yaratilgunga qadar kechgan falsafiy-estetik qarashlar nazarda tutiladimi, Sharq mumtoz poetikasiga asos bo‘lgan adabiy manbalar asos qilib olinadimi — bulardan qat’iy nazar hali sof adabiyotshunoslik manbalar shakllanmagan, adabiy-nazariy qarashlar mifik, diniy, tarixiy, siyosiy va boshqa yo‘nalishdagi asarlar tarkibida kelgan “arxaik zamon” nazarda tutilgan. Bu o‘rinda adabiy davr chegarasini qandaydir tarixiy voqealar yoki siyosiy hodisalar asosiga emas, adabiy hodisaga aylangan *asarlar yoki adabiy siymolar* ijodi asosida belgilash mumkin. *Adabiyotshunoslikda mifik tafakkur manbalar, tarixiy va diniy yodgorliklar*

⁴⁹ Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994. С. 33

tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar ham *adabiyot tarixining ilk bosqichi* sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ilk adabiy ta'lim o‘choqlari bo‘lmish Misr, Shumer, Hindiston va Xitoydagi yodgorliklar tarkibidagi nazariy qarashlar, “Bilgamis” (shumer), “Rigveda”, “Mahobhorat”, “Ramayana” (hind) asarlarida bayon qilingan fikrlarga ham adabiyotshunoslik manbalarini sifatida qaraladi. Xitoyda Konfutsiy ta’limoti, Osiyo mamlakatlarida Buddha, moniylik va boshqalar diniy inonchlar tarkibida ham muayyan ma’noda estetik-axloqiy qarashlar mujassamlangani ma’lum.

Yevropa adabiyotshunosligi antik adabiyot manbalariga tayangan holda shakllangani uchun qadimgi yunon olimlarining estetik qarashlari, xususan, Suqrot, Aflatun asarlari adabiyotshunoslik tarixi uchun muhim manbadir. Chunki ular zamirida ilk adabiy asarlar, Homer, Ezop, Esxil, Evripid, Aristofan, Pindar kabi ijodkorlarning asarlariga munosabat yotibdi. Jahon mumtoz adabiyotshunosligi tarixiga asos bo‘lgan manba sifatida Arastu ta’limotiga yondashish zarur.

Ikkinci davriy umumlashma sifatida *mumtoz adabiyotshunoslikning shakllanishi va taraqqiyoti* olinadi, bu yunon adabiyotida Arastu hakimning “Poetika” va “Ritorika” asarlarining yaratilish davridan XVIII asr o‘rtalarigacha, to‘g‘irogi, marifatparvarlik adabiyoti tufayli yuzaga chiqqan nazariy manifestlar Fransiyada Didro, Germaniyada Gerder nazariy ta’limotlarining vujudga kelishi bilan bog‘liq holda qaraladi. Bu holat Sharq islom mamlakatlarida “ilmi adab” va uning tarkibiga kirgan fanlarning shakllanish davridan XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Sharq mamlakatlari adabiyotlarida kechgan modernlashuv jarayoniga qadar davom etadi.

Uchinchi davriy umumlashma adabiyotshunoslik tamoyillarini belgilashda bir milliy yoki hududiy birlik doirasida emas, balki umumjahon adabiyoti durdonalarini belgilash, ya’ni “dunyo adabiyoti” istilohi (Gyote)ning asosiy mezonga aylanishi, shuningdek, keyinroq *yangi, modern, jadid* kabi tushunchalarni tashigan hamda XIX-XX-XXI - asrlarda shakllangan adabiy tizim va konsepsiylar mohiyatiga ham mana shu davriy umumlashmadan kelib chiqib qaraladi. Bu *Yangi davr* umumiyligi istilohi bilan o‘rganilayotgan mumtoz adabiy meyor va qoidalarning barham topishi, “adabiy sahnaga individual-ijodiy tafakkur”ning chiqishi bilan xarakterlanadi.

Har bir davriy umumlashma haqida so‘z yuritilganda, uning adabiy-tarixiy davrlarga bo‘linishi mumkin va lozimligi ekanligini unutmaslik kerak. Yevropa

nazariyotchilari “yangi adabiyot” istilohini XIX asrdan keyingi davrga nisbatan qo’llashadi. Chunki nazariyotchilar fikricha, ma’rifatchilik yo‘nalishidan keyin yangi adabiyot xususiyatlarini belgilashda har bir milliy adabiyotshunoslik bu jarayonga turlicha yo‘llar bilan kirib kelganiga qaramay, “muallif poetikasi”ni nazariyaning asosi deb qaralishida ikki muhim omil, birinchidan, o‘zgarayotgan adabiy jarayon masalalari qat’iy, kanonlar asosiga qurilishi mumkin emasligi va ikkinchidan, muhimi, badiiy asar tahlili orqali muallif avvaldan belgilab qo‘yilgan poetik qonuniyatlarga qay darajada amal qiliganini emas, balki muallif ilgari surgan poetik tizim (XX asrning o‘rtalaridan — modullar) adabiy jarayonning yangilanishiga, shu jumladan, jahon adabiyotining boyishiga xizmat qilganini aniqlashdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur darslikda jahon adabiy-nazariy tafakkuri sifatida tan olingan estetik qarashlar tadriji o‘rganildi. Muayyan davr, millat yoki alohida buyuk shaxslar tomonidan yaratilgan nazariy-estetik hodisalar umumbashariy tafakkur hosilasi sifatida talqin etildi. Adabiy-nazariy konsepsiyalararo mushtaraklikning xronologik, tarixiy-madaniy, geografik, genetik va psixologik va asosan, filologik omillari tadqiq etildi. Sharqu-Garb adabiy-estetik tafakkuridagi aloqadorlik va farqli jihatlar, buning sabab va oqibatlari tahlilga tortildi. Hozirgi globallashuv jarayonida yaxlit dunyoni Sharq va G‘arb singari ikki yirik hududga bo‘lish va uning ijtimoiy omillaridan tortib, san’atga doxil tushunchalariga qadar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib tadqiq etish usuli mutlaqo eskirgan. Bunday yevropatsentristik metodologiya dunyo tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan ayrim millatlar zakovatiga nisbatan kamsitish hamdir.

Antik madaniyat ildizlari qadimgi yunon falsafiy-estetik manbalari bilan aloqada bo‘lgani kabi bu ilmiy-nazariy tafakkur durdonalari qadimgi Misr, Xitoy, Hindiston va Markaziy Osiyoda yaratilgan tafakkur durdonalari bilan ham bog‘liq. Bashariyat tamadduni tarixini nafaqat Suqrot, Aflatun, Arastu, Goratsiy, Plutarx, Seneka, Plotin, Avgustin kabi Garb faylasuflari merosi va ularning Sharqqa ta’siri masalalarigina emas, balki “Gilgamish”, “Avesto”, “Mahobxorat”, O’rxun obidalari singari muhtasham manbalar, Buddha va Konfutsiy ta’limoti, moniylik va nasroniylikka oid muqaddas yozuvlar, keyinroq islom Renesansi sifatida tan olingan buyuk manaviy o‘zgarishlar ham tashkil etishini ko‘zda tutib, bu kabi yuzlab madaniy manbalar ham ilmiy tahlilga tortildi. Jadvalga ko‘ra, milloddan avvalgi uch ming yillikda yuzaga chiqqan adabiy manbalar sifatida Misrdagi

ieroglifik adabiyot, Mesopotamiyadagi Shumer madaniyati, Akkad va Bobilda yaratilgan manaviy meros qayd etilgan. So‘ngra qadimgi Hindiston, Xitoy, Eron, Markaziy va Kichik Osiyo madaniyati tasnif etilgan. Ana shu ma’lumotlarga asoslangan holda jahon madaniyatining “oltin beshigi” sifatida antik (ko‘hna) Yunon va Rim madaniyati hamda tamadduni emas, undan qariyb uch ming yil avval bunyod etilgan yuqorida tilga olingan adabiyotlar tartiblashtirilgan. Tasnif jarayonida qadimgi sulolalar bo‘yicha davlatchilik tarixi, arxeologik qazishmalar jarayonida qo‘lga kiritilgan moddiy va manaviy meros manbalari asos qilib olingan. Mana shu tarixiylik tamoyillariga imkon qadar amal qilingan holda eng qadimgi davrlardan tortib o‘rta asrlargacha kechgan adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti yaxlit bir ilmiy-ijodiy jarayon sifatida tushunildi.

Adabiyotshunoslik nisbatan kengroq fan sohasi bo‘lgani uchun uning bag‘rida bir vaqtning o‘zidan qator tahlil metodlari ham yashashi mumkin. Nazariy adabiyotshunoslik va metodologiyaning so‘nggi yutuqlariga tayanilgan struktural metod, tarixiy poetika, nazariy poetika va qiyosiy adabiyotshunoslikdagi mavjud tahlil usullaridan imkon qadar foydalangan holda ish yuritish ushbu jarayonda kutilgan natijaga erishishga yordam berishi mumkin. Biroq XX asr adabiyotshunoslida jahon miqyosida o‘ta xilma-xil va zarur konsepsiylar tug‘ildiki, ularning manzarasini umumlashtirgan holda mavjud poetik tizim va ilmiy konsepsiyalarni tasniflash lozim.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Adabiyotshunoslikda qanday turdagи manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar ham adabiyot tarixining ilk bosqichi sifatida qaraladi?
2. Adabiyotshunoslik professional istilohga ko‘ra, vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqalishi qanday manbaalar orqali izohlash mumkin?
3. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga oid nazariyalar adabiyotshunoslik tarixi taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega sanaladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Античная поэтика. Риторическая теория и литературная практика. М., 1991;

2. Бройтман С.Н. Историческая поэтика // Тамарченко Н.Д. Теория литературы: В 2 тт. — Т.2. — М.: АКАДЕМА. 2004.
3. Тамарченко Н.Д. Теоретическая поэтика / Теория литературы. В двух томах. Т.1. Теория художественного дискурса. М.: Академия, 2004.
4. Хализев В.Е. Теория литературы. М., 2002. С. 8.
5. Борев Ю. Эстетика. Т.: МУМТОЗ СЎЗ, 2016.
6. Boltaboev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. Т.: MUMTOZ SO‘Z, 1-jild. 2013; 2-jild. 2016.

3-AMALIY MASHG‘ULOT.

NARRATOLOGIYA VA UNING ISTIQBOLLARI: FEMINISTIK QARASHLAR, FENOMENOLOGIK TADQIQOTLAR

REJA:

1. Formal mакtab vakillari tomonidan poetika masalalarining o‘рганилishi
2. V.Shklovskiy, Eyxenbaum, V. Jirmunskiy qarashlari.
3. Matnga yondoshuv tamoyillari. R.Bart nazariyasi va uning Yu.Lotman tomonidan amalga oshirilishi

Tayanch tushunchalar: *formal mакtab, poetika masalalari, struktural yondoshuv, R.Bart nazariyasi, “yangi tanqid”, narratologiya.*

Amaliy mashg‘ulotdan maqsad: Formal mакtab vakillari tomonidan

poetika masalalarining o‘rganilishi. V.Shklovskiy, Eyxenbaum, V. Jirmunskiy qarashlari. Matnga yondoshuv tamoyillari. R.Bart nazariyasi va uning Yu.Lotman tomonidan amalga oshirilishi. “Yangi tanqid” nazariyasi va namoyandalari. Narratologiya va uning istiqbollari.

XX asrning 10-yillarida “formal mакtab” nomi ostida birlashgan adib va olimlar jamiyati paydo bo‘ldi. Ular aslida Peterburg va Moskvadagi ikki adabiy-ilmiy to‘garakning jamlanishidan hosil bo‘lgan edi. Peterburgdagi “Poetik tilni o‘rganish jamiyati” (ОПоЙз — Общество поэтического языка) o‘z tarkibiga Ye.D.Polivanov, L.P.Yakubinskiy, O.M.Krik, B.M.Eyxenbaum, Yu.N.Tinyanov kabi tilshunos va adabiyotshunoslarni birlashtirgan. Moskvada esa shu yillari tilshunoslik to‘garagi faoliyat yuritib, o‘zini MLK — Moskva tilshunoslik to‘garagi (Московский лингвистический кружок) deb tanitgan olimlar S.I.Bernshteyn, P.G.Bogatiryov, G.O.Vinokur kabilar o‘z atrofiga B.I.Yarxo, V.M.Jirmunskiy, R.O.Yakobson singari olimlarni ham jamlangan edilar.

Bu maktab filologiya sohasini jahon miqyosidagi ilmiy tizimlar asosida rivojlantirib, Praga struktur tilshunosligi, umuman, Yevropada struktural poetikaning vujudga kelishi va taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Uning tashkilotchisi va g‘oyalarining asosiy tashviqotchisi Viktor Borisovich Shklovskiy (1893-1984)dir⁵⁰. Formal maktab tarixi ham shu olimning “So‘zning tirilishi” (“Воскрешение слова”, 1914) maqolasidan boshlangan va yana shu muallifning “Bir ilmiy xatoga haykal” (1930) maqolasi bilan tugatilgan. Dastlab u taniqli adabiyotshunos Vengerov seminariysiga kirar ekan, unga taqdim etilgan anketaga maqsadini “Adabiyotning umumiyligi nazariyasini yaratish va Vengerov seminariysining foydasizligini isbot etishdan iborat” deb yozib bergan.

Keskin arizadan ko‘rinadiki, formal maktab vakillari adabiyotshunoslikdagi eski qarashlarni yangilashni va tizimli suratda rivojlantirilib borilishi lozim bo‘lgan adabiyot nazariyasini yaratmoqchi bo‘lganlar. Bu harakat formal maktab vakillari tomonidan shior sifatida o‘rtaga qoyilgan bo‘lsa-da, uning tugatilishi arafasida u haqda B.V.Tomashevskiy⁵¹, V.M.Jirmunskiy⁵² va P.Medvedev imzosi

⁵⁰ В.Б.Шкловскийнинг асосий асарлари: Шкловский В.Б. Воскрешение слова. М., 1914; Искусство как приём, 1917; О теории прозы, 1925, 2-е изд. 1929; О Маяковском, 1940; Мемуары. Повести о прозе. Размышления и разборы. М., 1966; Тетива. О несходстве сходного, 1970; Собрание сочинений в 3 тт. М., 1973-74; Энергия заблуждения, 1981; Избранное, в 2-х тт. М., 1983.

⁵¹ Б.В.Томашевскийнинг соҳага доир ишлари: Томашевский Б.В. Теория литературы (Поэтика). Л., 1926; Стих и ритм. М., 1928. О стихе. М., 1929; Строфика Пушкина. М., 1958; Стих и язык. М., 1959.

⁵² Жирмунский В.М. О формальном методе / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977; ва унинг асосий ишлари: Композиция лирических стихотворений. СПб.: Опояз: 1921; Рифма, её история и теория. Пб, Академия, 1923; Введение в метрику. Теория стиха. Л., Academia. 1925; Узбекский народный героический эпос. (в соавт. с Х. Т. Зарифовым) М., Гослитиздат. 1947; Туркский героический

bilan M.M.Baxtin⁵³ qarashlarida tanqidga ham uchragan. Mas., B.V.Tomashevskiyning yozishicha, “Formalizm qaydan kelib chiqdi? Beliyning maqolalaridan, Vengerov seminariysidan, Boduen de Kurtene raisligida futuristlar ovoza qilgan Tenishev zalistanmi? Buni dunyodan o‘tgan (formalizm)ning biografi hal qiladi. Lekin shubha yo‘qli, bu shovqin hamma tomondan eshitilar edi”⁵⁴. Keyinroq yana shu muallif: Ha formalistlar shu ma’noda “mutaxassis” edilarki, chunki adabiyot haqida maxsus, insoniyat fan olamini adabiyotga bog‘laydigan fan yaratmoqlikni orzu qilganlar. Ilmiy muammolarni xoslashtirish, tarixiy-adabiy masalalarni tasniflash, bu masalalarning hech bo‘lmasa, sotsiologik jihatlarini yoritish formalistlarning vazifasi bo‘lgan. Lekin ilmiy doirada qabul qilinish uchun o‘zini mustaqil predmet (fan) sifatida tan olishi lozim edi”. Shu vazifadan kelib chiqib, ular syujet nazariyasini yaratmoqchi, roman va novellaning spesifikasini o‘rganmoqchi, matematik metodlarni qabul qilgan holda she’rshunoslik bilan jiddiy shug‘ullanib, ritm va sintaksis, tovush takrori kabi jihatlarni o‘rganib, Pushkin va Lermontov asarlari vazni uchun qo‘llanma yaratmoqchi, parodiya, folklor, adabiy evolyutsiya masalalarini tadqiq qilmoqchi bo‘lganlar. Shuningdek, formal mакtab poetik til nazariyasini ham qurmoqchi bo‘ldi. Yu.K.Tinyanovning “She’riy til muammosi” (“Проблема стихотворного языка”) asarida “she’riy qator (misra)ning birligi va torligi” (теснота) tushunchasi ishlab chiqildi. Poeziya va prozada tovushning o‘rniga alohida e’tibor qaratildi.

Formal mакtab vakillarining qismati turlicha kechdi. V.Shklovskiy 92 yil umr ko‘rdi, Yu.Tinyanov yozuvchilikka o‘tib ketib, 1943 yilda vafot etdi. V.Propp hayotligida jahonshumul shuhrat topdi. Uning fransuz strukturalizmiga yetarli ta’sir ko‘rsatganini Klod Levi-Strosning maxsus maqola bag‘ishlaganidan ham bilsa bo‘ladi. R.Yakobson⁵⁵ N.Trubeskoy bilan birgalikda Praga tilshunoslari mакtabiga asos soldi, keyinroq har ikkisi ham AQShga kochishga majbur bo‘ldi. Bu mакtab XX asrning 30-yillarda tarqatilib yuborilgan bo‘lsa ham keyinchalik struktural poetika nomi bilan tarixga kirgan ilmiy-akademik mакtabga asos

эпос. Избр. труды. Л., Наука. 1974; Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр. пр. Л., Наука. 1977; Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. Избр.пр. Л.: Наука, 1979; Введение в литературоведение: Курс лекций. СПб, Изд-во СПбГУ. 1996 / М., 2004 (изд. 2); Поэтика русской поэзии. СПб, "Азбука-классика", 2001.

⁵³ Медведев П.Н., Формализм и формалисты. Л., 1934.

⁵⁴ Томашевский Б.В. Формальный метод. Вместо некролога. М., 1925; Против современного абстракционизма и формализма. Сб. переводов, М., 1964; Шор Р., Формальный метод на Западе, в кн.: Ars poetica, в. I, М., 1927.

⁵⁵ Р.Якобсоннинг соҳага доир асосий асарлари: Лингвистика и поэтика // Структурализм: за и против. М., 1975. С.193-230; Избранные работы. М.: Прогресс, 1985; Работы по поэтике. М.: Прогресс, 1987; Два аспекта языка и два типа афатических нарушений / Теория метафоры. М., 1990. С.110-132; Тексты, документы, исследования. М., 1999.

vazifasini o‘tadi.

V.B.Shklovskiy A.A.Potebnya (1835-1891) va A.N.Veselovskiy (1838-1906) qarashlarini jiddiy o‘rgandi va ularga tanqidiy yondashdi. Ular istilohidagi “ko‘rish” va “tushunish” tushunchalarini davom ettirib, “yashash” (badiiy asar bilan) fikrini ilgari surdi, “avtomatizatsiya”ni oddiy holat deb bilib, uning qarshisiga “остранение” ta’limotini olib chiqdi. ‘Poetik til nazariyasi haqida to‘plam” (1916, 1917) e’lon etilishida o‘zining ikki “Poeziya va aqldan tashqaridagi til haqida”, “San’at usul sifatida” maqolalari bilan qatnashdi. So‘nggi maqolada V.Shklovskiy til, nutq va poetik til nisbatlarida so‘zlar, jumlalar, hatto san’at asarlarida ham ongsiz-avtomatik tarzda qo‘llanilayotgani, bu “avtomatizm” esa o‘ziga xoslik deb atalgan uslubiy hodisani yuvib ketayotgani, uning o‘rniga chiqib olib, “poetik”, “estetik” hodisa sifatida tan olinishiga davo qilayotganini yozdi. Bu oddiy so‘zlar kitobxon qalbiga kirib, zabit etishi uchun uni “g‘alati, ajabtovur” (“странный”) holga solish kerak edi. Shuning uchun, matndagi so‘z favqulodda, noan’anaviy tarzda kutilmagan kontekstda qatnashib, yangi ma’no yaratishga xizmat qilishi lozim. “San’atning maqsadi shundan iboratki, narsalarni boriday tushunishni emas, balki narsa va hodisalarni ko‘rgandagi his qilinishni bera olishi kerak. Shuning uchun ham, san’atning bu usuli “остранение” (“favqulodda yangilik”, “o‘z an’anaviy mazmunidan uzoqlashish”) tushunchasi bilan izohlangan. Garchi so‘z va narsani qabul qilishda qiyinchilik tug‘ilishi, murakkab shakllar kasb etishi kuzatilsa ham, buning davomiyligini taminlash lozimki, o‘sha ko‘rilgan va his qilingan narsaga o‘quvchi qayta-qayta murojaat etsin. Har bir murojaatida yangi-yangi ma’nolarni kashf etib, o‘sha badiiy asar umrzoqligini, poetik obraz davomiyligini ta’minlasin. Buning uchun adiblar, birinchi navbatda, yuksak iste’dod sohiblari bo‘lishlari bilan bir qatorda tilni his qilishi, uning milliy go‘zalliklarini namoyish qila olish barobarida tildagi ifodalarga yangi ma’nolar yuklay olish iste’dodini ham namoyish etishlari lozim. Ana o‘shanda “остранение” faqatgina poetil til hodisasini ifodalovchi unsur emas, balki badiiy asarning nisbatan to‘la va tugal idrok etilishini taminlashga xizmat qilishi lozim. Bu haqda V.Shklovskiy “So‘zning tirilishi” (1914) maqolasidayoq fikr bildirib, shoirlar eski shakllarni to‘g‘ri baholab, undan yangilik chiqara olishlari haqida so‘z yuritgan edi.

Adabiyotshunoslik tarixida har bir olim va nazariyotchi estetikaning bosh masalasi “San’at nima?” degan savolga javob izlagani ma’lum. Agar Arastu hakim bu savolga mimesis nazariyasi orqali “san’at — tabiatga taqlid” deb javob bergan

bo'lsa, Leonardo da Vinci "san'at — nusxakashlik emas, jonli timsol yaratish" ekanini eslatgan edi. Nemis mumtoz falsafasi vakili I.Kant san'atning xususiyatini "hissiy yuksaklik"da ko'rghan bo'lsa, V.Belinskiy esa "San'at obrazli tafakkurdir" degan qoidani asos qilib oladi. Formal maktab vakillaridan V.Shklovskiy san'atni "poetik usullar majmuyi" sifatida asoslagan ediki, biz uning mohiyatini anglashga harakat qilamiz.

"San'at usul sifatida" (1917) maqolasida olim hamma tomonidan yaxshi bilingan va har bir savodli o'quvchi takrorlab yurgan, "san'at bu obrazli tafakkur" qoidasiga qarshi chiqib, san'at asari fikr mahsuli emas, balki fikr va tuyg'u qorishigida yangi ruhiyat hosil qiluvchi mavo ekaniga ishora qiladi. O'z ta'limotini L.Tolstoyning "Xolstomer" hikoyasi, "Urush va tinchlik" epopeyasi va "Tirilish" romanidan keltirgan misollar bilan asoslaydi. Aslida bu usul birgina Tolstoyga tegishli emas, faqat Tolstoy asarlari mashhur bo'lib, uni o'qigan kitobxon oson tasavvur qilishi uchun san'at asarining bu yuksak qoidasini tushuntirmoqchi bo'lgan edi. 1919 yildagi yozuvlarida "San'at har doim hayotdan erkin yashaydi, uning rangida hech qachon shahar qo'rg'oni ustida hilpirab turgan bayroq rangi aks etmaydi" deb yozgan. Bu kabi fikrlar yangi tuzum tarafdarlarining "san'atning sotsiologik mohiyati"ni belgilashga, "hayotni o'z shaklida ko'rsatish" aqidasiga mos kelmagani tabiiy. Shuning uchun ham formal maktab tarafdarlari o'z qarashlarini asosan, 1914-29 yillar davomida e'lon qilib ulgurdilar xolos. Ular badiiy asarning sotsial va psixologik jihatlarini o'rganishga vaqt ajratmagan, chunki san'at asarini san'at darajasida namoyon etadigan jihatlar: obraz va uning tabiat, syujet va uning tuzilishi, kompozitsiya va uning qonuniyati; poetik nutq, jumladan, ritm, vazn, qofiya kabi poetik hodisalar bilan mashg'ul bo'lgan, bu jihat esa ko'proq asarning sotsial mazmuni emas, balki shakliy jihatiga tegishli bo'lgani uchun ham o'zlarini "formalist" — "shaklshunos" deb atashgan. V.Shklovskiyning o'zi shunday izoh beradi: "Formal metodning asosi oddiy — mahorat (masalalari)ga qaytishdir. Unda eng e'tiborli jihat — asarning g'oyaviy mundarijasini rad qilmaydi, balki mundarija deb atalgan narsa shaklning muayyan ko'rinishlaridan biridir". Bu o'rinda I.Kantning "musiqaning mazmuni — sof shakl"dan iborat degan qarashlariga tayanilgan. Asar mazmunini "ma'no shakli" va uning ma'no materiali bilan badiiy shakllantirilganligida deb tushunilgan.

Shaklshunoslar qarashlarining e'tiborli jihatlaridan biri shuki, ularning yozishicha, she'rning mazmunini qofiya va vaznsiz gapirib berish mumkin, lekin

bu holatda uning shakli buziladi, poetik kechinma esa yo‘qotiladi. Asosiysi — poeziya yo‘qoladi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham poetik shakl va poetik tilga alohida e’tibor qaratib, badiiy shaklning mazmundan tashqarida taraqqiy etishi mumkinligini ham tasdiq qilganlar. Yuqorida tilga olingan “usul” (приём) tushunchasi badiiy asar yaratilishidan asosiy qurol hisoblangan. Chunki turli poetik usullar orqali hayot fakti san’at hodisasiga aylanishi mumkin. “Usul”lar esa an’anaviy va yangicha bo‘lishi mumkin. Shaklshunoslarning maqsadi o‘sha an’anaviy usullardan imkon qadar yangi, novatorona usullarga ko‘chishni targ‘ib etishdir.

Badiiy asarda tanish narsalar favqulodda yangicha mohiyat kasb etib, o‘zgacha “ajabtovur” (“странный”) tarzda tasvirlangandagina kitobxonning “avtomatik” idrokini yangilab, e’tiborini qozonishi mumkin. Kitobxonda odatdagи “avtomatik” idrokni ironiya, paradoks, favqulodda ohorli so‘zlarni ishlatish orqali o‘zgartirish mumkin. Shuning uchun ham “остранение” muhim va universal badiiy “usul” sifatida tavsiya etilgan. Avvalda tadqiq etilmagan masalalarni shaklshunoslар go‘yo taqsimlab olishganday izchillik bilan tadqiq etishga kirishganlar. Masalan, til va nutq shakllarining uslubi V.V.Vinogradov tomonidan, ritm, metrika (vaznshunoslik) va she’r kompozitsiyasi — V.M.Jirmunskiy, semantika va she’r konstruksiyasi munosabati Yu.Tinyanov, poeziya va prozada sintaksis hamda poetik intonatsiya munosabati — B.M.Eyzenbaum, she’r ritmi va metrikasi — B.V.Tomashevskiy, futuristlar tomonidan tilning yangilanishi — G.O.Vinokur, ritm va sintaksis — O.M.Brik, badiiy nutq tovushlari interpretatsiyasi — S.I.Bernshteyn, sehrli ertaklarning tizimli tadqiqoti V.Ya.Propp, poetik fonetika — Ye.D.Polivanov, she’r fonologiyasi va stilistik semantikasi — R.O.Yakobson tomonidan ishlangan. Tabiiyki, poetika masalalarining bunday ko‘lamli tadqiq etilishi xorij olimlarini befarq qoldirmagan. Ular o‘zlarining eng zamonaviy yo‘nalishdagi ishlarida ham formal maktab vakillariga munosabat bildirganlar. Shu bilan birga formal maktab ayrim vakillarining xorijga (mas., R.Yakobsonning Chexiya va AQShga ketishi) ko‘chishi ham ular ta’limotining keng targ‘ib etilishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Shaklshunoslар qarashlarining e’tiborli jihatlaridan biri shuki, ularning yozishicha, she’rning mazmunini qofiya va vaznsiz gapirib berish mumkin, lekin bu holatda uning shakli buziladi, poetik kechinma esa yo‘qotiladi, asosiysi — poeziya yoqoladi, deb hisoblashgan. Shuning uchun ham poetik shakl va poetik tilga alohida e’tibor qaratib, badiiy shaklning mazmundan tashqarida taraqqiy

etishi mumkinligini isbot qilganlar. Yuqorida tilga olingan “usul” (приём) tushunchasi badiiy matn yaratilishida asosiy quroq hisoblangan. Chunki turli poetik usullar orqali hayot fakti san’at hodisasiga aylanishi mumkin. “Usul”lar esa an’anaviy va yangicha bo‘lishi mumkin. Shaklshunoslarning maqsadi o’sha an’anaviy usullardan imkon qadar yangi, novatorona usullarga ko‘chishni targ‘ib etishdir.

Badiiy matnda tanish narsalar favqulodda yangicha mohiyat kasb etib, o‘zgacha “ajabtovur” (“странный”) tarzda tasvirlangandagina kitobxonning “avtomatik” idrokini yangilab, e’tiborini qozonishi mumkin. Kitobxonda odatdagi “avtomatik” idrokni ironiya, paradoks, favqulodda ohorli so‘zlarni ishlatish orqali o‘zgartirish mumkin. Shuning uchun ham “остранение” muhim va universal badiiy “usul” sifatida tavsiya etilgan. Avvalda yetarli tadqiq etilmagan badiiy shakl muammolarini shaklshunoslар go‘yo taqsimlab olishganday izchillik bilan tadqiq etishga kirishganlar. Masalan, til va nutq shakllarining uslubi V.V.Vinogradov tomonidan, ritm, metrika (vaznshunoslilik) va she’r kompozitsiyasi — V.M.Jirmunskiy, semantika va she’r konstruksiyasi munosabati Yu.Tinyanov, poeziya va prozada sintaksis hamda poetik intonatsiya munosabati — B.M.Eyxenbaum, she’r ritmi va metrikasi — B.V.Tomashevskiy, futuristlar tomonidan tilning yangilanishi — G.O.Vinokur, ritm va sintaksis — O.M.Brik, badiiy nutq tovushlari interpretatsiyasi — S.I.Bernshteyn, sehrli ertaklarning tizimli tadqiqoti V.Ya.Propp, poetik fonetika — Ye.D.Polivanov, she’r fonologiyasi va stilistik semantikasi — R.O.Yakobson tomonidan ishlangan.

Bu ilmiy harakat formal maktabning tugatilishi arafasida B.V.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy va P.Medvedev imzosi bilan M.M.Baxtin va boshqalarning ishlarida tanqidga ham uchragan.⁵⁶ V.M.Jirmunskiy formal maktabning asosiga qoyilgan “san’at badiiy usul sifatida” ekanini “ichdan tanqid etib”, uning asosiga poetika va uslub masalasini qo‘ydi. Garchi formal maktab vakillari qarashlaridan keskin uzoqlashib ketmagan bo‘lsa-da, “formalizm”ni ilmiy tizim sifatida qabul qila olmadi. San’atning mohiyatini aniqlashda “usul” (“прием”) istilohi V.Jirmunskiy nazarida aniq va to‘liq emas, shuning uchun ham o‘z qarashlari asosiga “usullar majmui” sifatida ijodkor yoki badiiy matn uslubini qo‘ydiki, tadqiqotchi fikricha, ayni uslub turli xil usullarni bir qonuniyat asosida birlashtiradi va kitobxon ko‘z o‘ngida badiiy asarning yaxlitligini ta’minlaydi.

⁵⁶ Томашевский Б.В. Формальный метод. Вместо некролога. М., 1925; Против современного абстракционизма и формализма. Сб. переводов, М., 1964; Шор Р., Формальный метод на Западе, в кн.: Arspoetica, в. 1, М., 1927.

Uslub, V.Jirmunskiyning belgilashicha, muallifning dunyoqarashi va borliqni idrok etish xususiyatlarini badiiy asarga ko‘chiradi. Badiiy asar esa ijtimoiy talablar asosida emas, balki estetik qonuniyatlar nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Demak, tadqiqotchingin asosiy vazifasi badiiy matnning poetik jihatlarini o‘rganishdan iborat. Shunday ekan, matnning badiiy jihatlari poetika ilmida tahlilga tortiladi⁵⁷.

M.Baxtin “Adabiyotshunoslikda formal metod” (1934) asarida shunday yozadi: ‘Formalistlarda material tushunchasining qurilishida rahbariy tendensiya nimaiki g‘oyaviy ahamiyatga ega bo‘lsa va nimaiki avval xuddi mazmun kabi adabiyotning joni sanalsa, uning hammasini *material* deb hisoblash. Bu — faqat material, usulning to‘liq almashtirilishi mumkin bo‘lgan va hammasini yoqqa chiqaruvchi motivirovkadir. Shunday qilib, material formalistik tushunchaning asosiy tendensiyasiga ko‘ra mazmunning quyi ko‘rinishidir...’’ Ular, umuman, poetik mazmunga material deb qaraganlar va bu jihatdan keskin xulosaga kelishdan qo‘rqmaganlar. Shuningdek, *material elementlarining konstruktiv mohiyati* (M.Baxtin) xususida so‘z yuritilganda, unga formal maktab tarafдорлари “usullar yig‘indisi” (V.Shklovskiy) deb qarashgan. “Har qanday usullardan maqsad bir — kechinmaviy qabul qilinadigan qurilma yasash. Har bir usul o‘z holicha bu yagona vazifani bajaradi.” Ular “asardagi nima eng ta’sirli sanaladi?” degan savolga “qurilmaning o‘zi ta’sirli. Axir qurilmadan maqsad — uni ta’sirchan qilish” deb javob berishgan⁵⁸. Holbuki, badiiy asarda usulning o‘ziga ta’sirli emas, uni ta’sirli qiladigan poetik mazmunga daxldor jihatlar ham borki, bu poetik komponentlardan ular ko‘z yumib, unga material sifatida qarash bilan cheklanganlar.

XX-asr boshida Rossiyada sotsial tanqidning sosrealizm asosiga qo‘yishi munosabati bilan 20-yillarning o‘zidayoq formal maktab vakillarining qarashlari keskin tanqidga uchradi. Lekin ulardan ayrimlarining poetika xususidagi qarashlari hamon ahamiyatli. B.V.Tomashevskiy: “poetika o‘z vazifasini adabiy asarning qurilish xususiyatlarini o‘rganishda ko‘radi. Poetikaning o‘rganilish obekti — badiiy adabiyot. O‘rganish usuli esa — hodisa va talqinlarni tasniflash va tavsiflashdan iborat” deb yozadi. Poetika V.Jirmunskiy so‘zlari bilan aytganda, “uslubni yaratish vositasi va badiiy dunyonining qurilmasini o‘rganishni o‘z

⁵⁷ Жирмунский В.М. О формальном методе / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.пр. Л., Наука, 1977.

⁵⁸ Медведев П.Н. (Бахтин М.М.) Формализм и формалисты (1934) / Введение в литературоведение. Хрестоматия. М.: Высшая школа, 2006. С. 179-180.

zimmasiga oladi. Shunday ekan, poetika adabiyotni san'at sifatida o‘rganuvchi fan, poeziya haqidagi ilmdir” deb xulosalaydi⁵⁹.

Poetika — adabiyotni san'at sifatida o‘rganuvchi fandir. Agar azaldan mavjud bo‘lgan bunday so‘z qo‘llanilishini qabul qilsak, shuni dadil tasdiqlab aytish mumkinki, keyingi yillarda adabiyot haqidagi fan *poetika* belgisi ostida rivojlanmoqda.

Shuning uchun shakl va mazmun (*nima* va *qanday*)ning shartli ziddiyati ilmiy tadqiqotlarda har doim estetik obetda birlashgan holatni tasdiqlashga olib keldi. San’at asarida har qanday yangi mazmun shakl orqali ko‘rinadi: shaklda aks etmagan mazmun, ya’ni o‘z ifodasini topmagan mazmun san’at asarida mavjud emas. Xuddi shu kabi shaklning har qanday o‘zgarishi yangi mazmunning ochilishidir, yoki shakl qaysidir mazmunga nisbatan ifodaviy usul deb qaralayotgan joyda mazmundan xoli shakl bo‘lishi mukin emas. Shunday qilib, bu nisbatdagi shartliligi san’at asarining badiiy strukturasida sof formal (shakliy) momentning maxsus xususiyatlarini aniqlashda kam samar berishi mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. “Retseptiv estetika” deganda nimani tushunasiz?
2. Matnni qabul qilish tarixi, usullari va vositalarini tushuntiring.
3. Reminitensiya nazariyasi va uni kitobxon-matn-muallif loyihasidagi o‘rni nimadan iborat?
4. Tarixiy-funksional tadqiqotlar mualliflarini aniqlang va ularning asalariga izohlar bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Томашевский Б.В. Формальный метод. Вместо некролога. М., 1925; Против современного абстракционизма и формализма. Сб. переводов, М., 1964; Шор Р., Формальный метод на Западе, в кн.: Арспоетика, в. л, М., 1927.
2. Жирмунский В.М. О формальном методе / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977.
3. Медведев П.Н. (Бахтин М.М.) Формализм и формалисты (1934) /

⁵⁹ Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. С.

- Введение в литературоведение. Хрестоматия. М.: Высшая школа, 2006. С. 179-180.
4. Борев Ю.Б. Энциклопедический словарь эстетики и теории литературы. Москва, 2008. Эл. версия - П. С. 90-92.
 5. Жирмунский В.М. Задачи поэтики / Теория литературы. Поэтика. Стилистика: Избр.тр. Л., Наука, 1977. С.
 6. Бройтман С.Н. Историческая поэтика // Тамарченко Н.Д. Теория литературы: В 2 тт. – Т.2. – М.: АСАДЕМА. 2004.
 7. Тамарченко Н.Д. Теоретическая поэтика / Теория литературы. В двух томах. Т.1. Теория художественного дискурса. М.: Академия, 2004.
 8. Хализев В.Е. Теория литературы. М., 2002.

4- AMALIY MASHG'ULOT.

ADABIY VA MADANIY-TARIXIY KONTEKSTGA ASOSLANGAN NAZARIYALAR: INTERTEKSUAL TADQIQOTLAR; “YANGI ISTORIZM”, KULTUROLOGIK METODOLOGIYA; QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK; MULTIKUTUROLOGIYA

REJA:

1. Poststrukturalizm va postmodernizm adabiyoti namoyandalari
2. “Yangi istorizm” ruhidagi talqinlarni o‘zbek tarixiy romanlari tahliliga jalb etish masalalari.
3. Kulturologik metodologiya va multikuturologiyada milliy adabiyotlararo muloqot qilishning tahlil tamoyillarini o‘rganish

Tayanch tushunchalar: Poststrukturalizm, postmodernizm, “Yangi istorizm”, kulturologik metodologiya, multikuturologiya, adabiyotlararo muloqot

Amaliy mashg’ulotdan maqsad: Intertekstual tadqiqotlar asosida yaratilgan

N.Kristeva asarlari bilan tanishish. Poststrukturalizm va postmodernizm adabiyoti namoyandalarini aniqlash. "Yangi istorizm" ruhidagi talqinlarni o'zbek tarixiy romanlari tahliliga jalb etish masalalari. Kulturologik metodologiya va multikuturologiyada milliy adabiyotlararo muloqot qilishning tahlil tamoyillarini o'rghanish. Koptillilik va kopadabiyotlilik sharoitida adabiy ta'limning o'rni. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanidagi yangiliklar.

Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslik — 19-asrning 2-yarmida pozitivizm ta'siri ostida Yevropada paydo bo'lgan maktablardan biri; adabiyot tarixining xalqaro adabiy aloqalar va munosabatlarni, turli mamlakatlardagi adabiy-badiiy voqeа-hodisalarning o'xhash va farqli jihatlarini o'rganuvchi bo'limi. Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslika. namoyandalari asosiy e'tiborni adabiy oqimlar, milliy adabiyotlar va ayrim asarlar, obraz va syujetlar o'rtasidagi o'xhashlikni aniqlashga qaratadilar, syujetlar migratsiyasini, ya'ni xalqdan xalqqa ko'chishini adabiy rivojlanishning omili deb qaraydilar. Shuni aytish kerakki, adabiy voqeа-hodisalarning o'xhashligi, bir tomondan, xalqlarning ijtimoiy va madaniy rivojlanishidagi o'xhashlikka, ikkinchi tomondan esa, ular o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalarga asoslanadi; shunga muvofiq ravishda adabiy jarayonning tipologik o'xhashliklari hamda "adabiy aloqalar va ta'sirlar" farqlanadi. Odatda, ular o'zaro ta'sir, aloqada bo'lsada, biroq bu narsa ularning qo'shilib, qorishib ketishini tasdiqlamaydi. Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikning dastlabki belgilari nemis olimlari I.G.Gerder, J.Benfey, ingliz olimi J.Denlon va rus olimi F.I.Buslaev asarlarida namoyon bo'lgan bo'lsada, uning asosiy prinsiplari yevropalik X.M.Poznett va rossiyalik A.N.Veselovskiy asarlarida uzilkesil ta'riftavsifga ega bo'ladi. Komparativistlar, ya'ni Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslika. Namoyandalari insoniyatning badiiy taraqqiyotiga oid ma'lumotlarni yig'ish, turli mamlakatlar adabiyotlari va folklori o'rtasidagi ayrim o'xhashlik va aloqalarni aniqlash ishiga katta hissa qo'shdilar. Biroq ular badiiy voqealarni aksar hollarda qarama-qarshi tabaqalar kurashidan holi tarzda o'rganib, asarlarning ijtimoiy mazmuniga yetarlicha e'tibor qaratmadilar, asosan, syujet, obraz, motiv, ko'chim (trop)lar kabi shakliy unsurlarga hamda ularning "o'zlashtirilishi"ga ahamiyat berdilar. Bu holat ma'lum darajada sxematizm va sub'ektivizmga, milliy adabiyotlar o'ziga xosligini inkor etishga, "o'zlashma" syujetlar rolini bo'rttirib ko'rsatishga olib keladi. XX-asr rus adabiyotshunoslardan N.I.Konrad, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Propp, I.G. Neupokoeva va boshqalar, G'arbiy Yevropa va Amerika komparativistlaridan

farqli ravishda, adabiyotlar va folklor ni qiyosiy o‘rganishda o‘xshashliklarni nafaqat syujet yoki motivlarning oddiy ko‘chishi sifatida, balki tipologik hodisalar sifatida izohlaydilar. O‘zbek olimlaridan F.Sulaymonova, B.Sarimsoqov, K.Imomov, H.Homidiy, M.Jo‘raev va boshqalarlarning asarlarida u yoki bu darajada Qiyosiy-tarixiy adabiyotshunoslikdagi unsurlari uchraydi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Intertekstual tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?
2. N.Kristeva asarlari bilan tanishtiring.
3. Poststrukturalizm va postmodernizm adabiyoti namoyandalarini aniqlang.
4. “Yangi istorizm” ruhidagi talqinlarni o‘zbek tarixiy romanlari tahliliga jalg etish mumkinmi?
5. Kulturologik metodologiya va multikuturologiyada milliy adabiyotlararo muloqot qilishning tahlil tamoyillari qaysilar?
6. Koptillilik va ko‘p adabiyotlilik sharoitida adabiy ta’limning o‘rni qanday ko‘rinadi?
7. Qiyosiy adabiyotshunoslik fanidagi yangiliklar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Борев Ю.Б. Энциклопедический словарь эстетики и теории литературы. Москва, 2008. Эл. версия - П. С. 90-92.
2. Виноградов В.В. Поэтика и ее отношение к лингвистике и теории литературы / Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. М., 1963. С.164-200.
3. Кристева Ю. Бахтин, слово, диалог, роман (1967) // Французская семиотика. От структурализма к постструктурлизму. М., 2000. С. 429.
4. Литературный энциклопедический словарь / Под ред. В.М.Кожевникова и П.А.Николаева. М.: СЕ, 1987.
5. Медведев П.Н. (Бахтин М.М.) Формализм и формалисты (1934) / Введение в литературоведение. Хрестоматия. М.: Высшая школа, 2006. Современное зарубежное литературоведение: Энциклопедический справочник. М., 1979.
6. Гуддон Ж.А. А Диционарй оғ Литерарий Термс. Н.-Ҷ., 1972.

V. KEYSLAR BANKI



V.KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalgalashirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

1-keys. Amerikalik “yangi tanqid” tarafdarlari kimlar edi? Fikrlaringizni misollar yordamida izohlab misollar ayting.


2-keys. Adabiyotshunoslikda qanday turdagি manbalari, tarixiy va diniy yodgorliklar tarkibidagi adabiy-nazariy tasavvurlar ham adabiyot tarixining ilk bosqichi sifatida qaraladi?

3-keys. Adabiyotshunoslik professional istilohga ko‘ra, vujudga kelgan bo‘lsa ham, uning ildizi ilk mifik tafakkur namunalariga borib taqalishi qanday manbalar orqali izohlash mumkin?

4-keys. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga oid nazariyalar adabiyotshunoslik tarixi taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega sanaladi?

5-keys. Adabiy tafakkur tarixidagi tarixiy bosqichlar qaysilar? Arxaik; mumtoz(kanonizatsiya) va zamonaviy (dekanonizatsiya).

VI. GLOSSARIY



VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Tizim	Tizim (sistema — yunoncha: butunlik, qismlarning ulanib, bir butun holida bo‘lishi) biror butunlik (yaxlitlik)ni hosil qiluvchi azo (komponent)larning o‘zaro aloqadorlikdagi yigindisi	System (Greek - system: integrity, interconnectedness and interconnection) is the interconnected sum of the components that make up a whole.
Tizimli tahlil	<i>Tizimli tahlil</i> (TT) ikki ma’noda qo’llaniladi: tor va keng ma’nolarda: 1) tor ma’noda — murakkab siyosiy, harbiy, sotsial, iqtisodiy, ilmiy va texnik xarakterdagi muammolarni yechish va asoslashda qo’llaniladigan metodologik vositalar yigindisi; 2) keng ma’noda “TT”, kopincha, “tizimli yondashuv”ning sinonimi sifatida qo’llaniladi (tizimli yondashuv jarayoniga kirishil-ganda bu munosabatga yana qaytiladi).	Systematic analysis (SR) is used in two ways: in narrow and broad terms: 1) in narrow terms - a set of methodological tools used to solve and justify complex political, military, social, economic, scientific and technical problems; 2) In the broadest sense, “TT” is often used as a synonym for a “system approach” (when the system approach approaches the process, it returns to this relationship).

Emerjentlik	Yaxlitlik elementlarning komponentlashuvi, ya'ni unsurlarning o'zaro aloqadorlikka kirishuvi natijasida butunlik (yoki jonlilik) hosil qilinishidir	Integrity is the componentization of elements, that is, the formation of integrity (or vibrancy) as a result of the interconnection of elements.
Tizimli tahlil mohiyati:	Obektning hajmi, uning komponentlarining o'zaro aloqadorligi va boshqa obektga munosabati masalasi. Mohiyat bu komponentlar xossalaringning tavsifi va mavjudlik belgilarida aks etadi	The question of the size of an object, the interrelation of its components, and its relation to another object. The essence is reflected in the characteristics and availability characteristics of these components
Ilmi adab	Garb istilohiga ko'ra: poetika; zaruriy, eng muhim ilmlar majmuasi hisoblanib, quyidagi filologik sohalarni o'z ichiga oladi: <i>lug'at</i> (1), <i>sarf</i> , ya'ni morfologiya (2); <i>ishtiqaq</i> — so'z yasalishi (3); <i>nahv</i> — cintaksis (4), <i>maoni</i> (5), <i>bayon</i> ilmi (6), <i>aruz</i> (7), <i>qofiya</i> (8), <i>insho</i> (9), <i>badoe</i> — she'r farzi (10), <i>muhozara</i> — tarixiy voqeа va rivoyatlardan foydalanish (11), <i>rasmu-l-xat</i> (12)	According to the Western term: poetics; is a necessary and most important set of sciences and includes the following philological fields: dictionary (1), expenditure, ie morphology (2); enthusiasm - word formation (3); nahv - syntax (4), maoni (5), narrative science (6), aruz (7), rhyme (8), essay (9), badoe'-fard (10), discussion - use of historical events and narratives (11), photo-letter (12)
Muammolar tasnifi	TT da muhim orin tutadi. Umumiy holda ularni quyidagicha tasniflash mumkin: 1.Yaxshi tarkiblangan (strukturirovanniy) — well-structured. 2.Bosh tarkiblangan (slabo struktirovanniy) — ill-structured. 3.Tarkiblanmagan yoki	It plays an important role in TT. In general, they can be classified as follows: 1. Well-structured (well structured) - well-structured. 2. Empty Composition (slabo struktirovanniy) - ill-structured. 3. Unstructured or interconnected quantities

	o‘zaro miqdoriy aloqada bo‘lgan (nestrruk-tirovanniy) — unstructured;	(nestrruk-tyranny) - unstructured;
Tadqiqot obektini yaxlit tushunish	Tadqiqot obekti tizimli suratda biri ikkinchisini taqozo qiladigan komponentlardan tuzilishi belgilanadi.	The object of the research is systematically determined from the components that make up the other.
Struktura	Tarkib, tarkiblanish tamoyillariga amal qilinishda tizimli tahlil natijalariga yaqinlashadi.	The content approaches the results of systematic analysis when complying with the principles of composition.
Matnga asoslangan nazariyalar	Formal-struktural yondashuv, <i>yangi tanqid, narratologiya</i> uchun badiiy matn nazariy fanning birlamchi obekti bulgani uchun matn mohiyati (nazariyasi), tarkibi (strukturasi), talqini (germenevtikasi), ifodaviyligi kabi ilmiy muammolar bu yo‘nalishdagi tahliliy jarayon	As the literary text is the primary object of theoretical science for formal-structural approach, new criticism, narratology, scientific problems such as the essence (theory), structure (structure), interpretation (hermeneutics), expressiveness in this area are analyzed.
Muallifni o‘rganishga qaratilgan nazariyalar	Biografik va psixoanalitik ondashuv, shu bilan birga eministik adabiyot-shunoslik, enomenologik tadqiqotlar chun obekt badiiy ijod yoki muayyan ijodkorning asarlari o‘lgani uchun ham uning redmetini muallif uslubi, slubni royobga chiqaruvchi ushqqi (metod, janr va oshqalar) va ichki xususiy ollar (dunyoqarash, yozish oidalari, mahorat) kabilar shbu yo‘nalishdagi nazariy arashlarning predmetini ushkil qiladi.	Biographical and psychoanalytic approaches, including feminist literary criticism, phenomenological studies, whether the subject is a work of art or a work of a particular artist, its subject matter, method, genre, etc. rules, skills, etc.) are the subject of theoretical theories in this area.
Lingvopoetika	Badiiy matnni til sathlari va badiiy jihatlari bo‘yicha tahlil etishni zimmasiga olib, tizimli tahlilning keyingi	It undertakes the analysis of the literary text on the levels and artistic aspects of the language and

	bosqichlariga asos yaratadi.	provides the basis for further stages of systematic analysis.
Struktural poetika	Matn madaniyat fenomeni sifatida masul nutqiy harakat bo'lib, u vujudga kelgan makon va zamondan tashqarida «ishlashga» moslashtirilgan holda qayta ishlanadi va ohor beriladi.	The text is a speech movement responsible for the phenomenon of culture that is processed and interpreted in a way that is adapted to "work" beyond space and time.
Matn transformatsiyasi	Bir mavzu doirasidagi matnlarni janr va syujetiga ko'ra o'zgarishidir. A.N.Veselovskiy syujet poetikasi nuqtai nazaridan, V.B.Shklovskiy yangi janrlar vujudga kelish omili deb qarashgan.	Change text within a theme by genre and plot. A.N. Veselovsky from the point of view of subjective poetics, V.B. Shklovsky considered the emergence of new genres.
Podtekst	Kalkalash orqali rus tiliga olingan — inglizcha: subtext; o'zbekcha: matnosti; jiddiy va chuqur adabiy asarlarda ichki «suvosti oqimi» bo'lib, asarning asosiy konsepsiyasini tashiydi. E.Xeminguey badiiy asarda "aysberg" g'oyasini ilgari surgan.	Taken to Russian by Shading - English: subtext; Uzbek: texts; in serious and profound literary works the inner «subterranean» carries the basic concept of the work. In the work of art, Hemingway put forward the idea of »iceberg».
Kontekst	Lotincha: contextus — boglanish, zanjir — matnning ma'no maydoni bo'lib, unda badiiy matndagi har bir ichki qurilma ma'no tomonidan boshqariladi, asar talqinida mana shu maydondagi ma'no nazarda tutiladi.	Latin: contextus is the link, the chain is the meaning space of the text, where each internal device in the artistic text is controlled by the meaning, meaning the meaning of the space in the interpretation of the work.
Intertekstuallik	Fransuzcha: intertextuality; so'zma-so'z ma'nosi: matnlarorasi; badiiy matnning ichki aloqadorligi bo'lib, u tashqi hayot voqealariga emas, balki matnning oziga va boshqa matn-larga munosabatidir.	French: intertextuality; literal meaning: texts; fiction is the internal link between the text itself and other texts, not external events.

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI



VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi

- to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
 7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
 8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
 9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-conli Farmoni.
 10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
 11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
 12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
 13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 29 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 40-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
2. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Hook 1, 2.

3. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010. – 204 p.
4. Karimova V.A., Zaynudinova M.B. Nazirova Ye.Sh., Sadikova Sh. Tizimli tahlil asoslari. – T.: “O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2014. – 192 b.
5. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. – 175 p.
6. Mitchell H.Q. “Traveller” B1, B2, MM Publications, 2015. – 183 p.
7. Mitchell H.Q. Marilena Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications, 2015. – 191 p.
8. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Account, 2015. – 134 pp.
9. Paul Kim. Massive Open Online Courses: The MOOC Revolution. Routledge; 1 edition 2014. – 176 pp.
10. Rahmonov N. O’zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Sano-standart”, 2017.
11. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
12. William Rice. Moodle Ye-Learning Course Development - Third Yedition. Packt Publishing - yebooks Account; 3 yedition 2015. – 350 pp.
13. Yusupbekov N.R., Aliev R.A., Aliev R.R., Yusupbekov A.N. Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2015. – 572 b.
14. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: TA’LIM-MEDIA, 2019.
15. Белогуров А.Ю. Модернизация протесесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 116 с. ИСБН 978-5-317-05412-0.
16. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. - 112 bet.
17. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография// М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://элар.урфу.ру/битстрим/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.пдф
18. Каримов Б. Абдулла Кодирий ва герменевтик тафаккур. – Т.: “Академнашр”, 2014.
19. Киселев Г.М., Бочкова Р.В. Информационные технологии в педагогическом образовании. – М.: “Дашков и К”, 2018. – 304 с.

20. Oliy ta'lif tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.yecs.uniruse.bg/pimaGES/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
21. XX asr jahon adabiyoti manzaralari. T.:MUMTOZ SO'Z, 2020.
22. Теория литературы: Теоретическая поэтика. Учебное пособие для студ. филол. фак.: в 2 т. / Под ред. Н.Д. Тамарченко. Т. И. М.: Академия, 2004.

IV. elektron ta'lim resurslari

1. <http://lex.uz>
2. <http://edu.uz>
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://natlib.uz> www.tilvaadabiyot.uz
5. <https://minedu.fi/yen/yeducation-system>
6. <https://study.com/academy/lesson/modern-world-literature-characteristics-influences.html>
7. <https://orion.sfasu.yedu/courseinformation/syl/201101/yeng30890.pdf>

VIII. TAQRIZLAR



**Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ҳузуридаги
педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш
тармоқ маркази проф. Ҳ.Болтабоев томонидан тузилган
“Жаҳон адабий таълимида етакчи концепциялар”
модулининг ишчи ўқув дастурига
ТАҚРИЗ**

Ўқув-педагогик жараённинг доимий катъий талаблари баробарида унинг мазмуни ва ифода шакллари тез-тез янгиланиб туриши лозим. Чунки ҳётнинг хамма жабҳаларида бўлганидек, педагогика ва методика фанлари ҳам нафакат шакллар, интерфаол воситалар ва ахборот технологиялари хисобига, балки жаҳон таҳлим тизимидағи айrim янгиликларни миллий тизимга олиб кириши, энг замонавий ва етакчи тенденциялар билан тингловчиларни куроллантириши лозим. Ана шу максадда проф. Ҳ.Болтабоев томонидан педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизими учун “Жаҳон адабий таълимида етакчи концепциялар” мавзусида модул тавсия этилмокда.

Мазкур модулнинг ишчи ўқув дастурида жаҳон адабий таълимида юз беряётган янгилинишлар, дунё аадбиётшунослигидаги етакчи илмий академик мактаблар, адабий концепция ва тизимлар ўз аксини топганлиги ушбу модулнинг янги илмий асосга курилганини асослайди. Модул бир неча кисмлардан иборат бўлиб, унинг маъруза қисмида муаллиф нисбатан чекланган соатлар давомида жаҳонда яратилган бадиий асар ва адабий жараёнга муносабатдаги турлича ёндашувлар мавжудлигини эътироф этади. Улар орасида “бадиий матнни асос сифатида ўрганувчи”, “муаллифни адабий жараённинг асоси сифатида белгиловчи”, адресат (китобхон)ни бу жараёндаги ўрнини белгиловчи” карашлар алоҳида ўрин тутади. Уларни маҳсус тизимга солишдан аввал муаллиф ҳар бирининг ўзига хос тараккиёт йўли, ифода шакллари ва илмий йўналишлари мавжудлигини кўрсатади.

Адабий жараён тушунчаси жуда кенг камровли бўлгани билан юкорида қайд этилган жиҳатлар унинг асосига кўйилиб, адабий таълимга олиб кирилгандагина у миллий заминга пайвандланиши мумкин. Шу жиҳатдан муаллиф амалий машгулотлар давомида муайян илмий юкни тингловчиларга топширишга, уларни мавжуд карашлар доирасида эркин фикр юритишига ёрдам берувчи мавзуу ва малака галабларини ишлаб чиқкан. Мазмун жиҳатдан янгиланадиган адабий таълим гизимида “Жаҳон адабий таълимида етакчи концепциялар” модулининг ўрни ҳам ҳалмоқли, адабий таъсири ҳам катта. Бизнингча, ушбу ишчи ўқув дастурининг тедагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш маркази ғаолиятига татбиқ этилиши юртимизда юксалаётган адабий таълимга бўлган ўтиёжларни қондиришга хизмат киласи.

“Жаҳон адабий таълимида етакчи концепциялар” модулини Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ҳузуридаги педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази доирасида амалиётга абиқ этиш мумкин.

P. Ниёзметова



ТошДЎТАУ профессори,
педагогика фанлари доктори

**TOSHDO'TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARAZIDA
O'QITILADIGAN "O'ZBEK TILI FILOLOGIYASI: O'ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGI" YO'NALISHI KURSI O'QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

Mazkur yo'nalish o'z maqsad va vazifalriga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko'rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo'ladi. Fanlararo integratsiya, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish va bili olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo'llash – bu davr talabi sanaladi. "Jahon adabiy ta'limining yetakchi konsepsiylari", "Adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillar", "Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitish muammolari", "Semantikaning dolzarb muammolari", "Folklor va yozma adabiy aloqalar", "O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" kabi modullarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlash zarur.

Dasturda har bir fanni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun, tinglovchilar malakasini oshirish maqsadida rasmiy hujjatlar, jumladan, o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, malaka talablari hamda kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Zero, o'zbek adabiyotshunoslaring darajalarini dunyo ilm-fani olimlari, muallimlari darajasiga ko'tarish uchun dunyo adabiyotshunosligidagi ilg'or adabiy-nazariy metodlar tamoyillari, badiiy asarlarning shakliy jihatlariga doir muammolari, jadid adabiyotining dunyo adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilishi, dunyo ilm-fan markazlarida o'zbek adabiyoti muammolari tadqiqotlari, o'zbek yozma dabiyoti bilan xalq og'zaki ijodi bilan aloqalarini tinglovchilar e'tiboriga havola etish o'zining yaxshi samaralarini berishi tabiiy.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan. Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilarning ilmiy-

pedagogik faoliyatini inobatga olinishi, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish malakasiga, ayniqsa, talabalar bilan ustozlarning o‘zaro muomala madaniyatiga e’tibor berish kabi masalalarning ushbu o‘quv dastur tuzuvchi professor-o‘qituvchilari diqqatini o‘ziga jalb etgani katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta’lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori



S.Normamatov



14.09.2020

Alisher Navoy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

Avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tganiga qaramay, ilmiy, pedagogik yo'nalishda katta yutuq va natijalarga erishmoqda. Binobarin, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining aynan shu nufuzli universitet qoshida ochilgani ayni muddao bo'igan.

"O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishidagi o'quv dasturining mazmun-mundarijasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi – pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompentatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilish kabilarning o'rinni ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda. 1-modulning "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish" deb nomlangan 1.1-qismida kredit tizimi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, ayniqsa onlayn darslarni tashkil etish va o'tqazishda pedagog e'tibor qaratishi muhim bo'lgan jihatlar aks etgan.

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" bo'limida esa pedagogning ilmiy, pedagogik salohiyatini jahon standartlariga chiqarish yo'lidagi zarur tavsiya, ko'rsatmalar belgilab berilgan.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish"ga qaratilgan bo'lib, bu, ta'bir joiz bo'lsa, 1-modulning mantiqiy davomi va yakunlovchi bosqichidir. Ushbu modulda tinglovchi-pedagog o'zlashtirishi ko'zda tutilgan multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'limga resurslarini tayyorlash, ulardan ta'limga jarayonida samaraliy foydalanish, QR – kod va undan foydalanish, shuningdek, sohaga tegishli ingliz tilidagi maqolalarni o'qib, tushunish ko'nikmasi kabilarning qamrab olingani mutaxassis kadrlarning o'z yo'nalishlari bo'yicha yanada tajribali bo'lishlariga qaratilgan. "Mutaxassislik fanlari" deb nomlangan 3-modul 6 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ushbu modulda folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyotning samarali o'qitilishiga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy va pedagogik yo'llanmalar ifoda etilgan. "Adabiyotshunoslik metodlari va tamoyillari", "Folklor va yozma adabiy aloqalar", "O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" bo'limlaridagi talab va ko'nikmalarini o'zlashtirgan pedagog-tinglovchi ta'limga jarayonida jiddiy yutuq va natijalarga erishmog'i shubhasizdir.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rinni oshirishni tuzishda foydalilanigan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid 8 internet saytlaridan foydalilanigan ham mazkur dasturning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturini ta'limga jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori